

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI



MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI

FANIDAN

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim soxasi: 100000

Ta'lim sohasi: 110000 -Pedagogika

Bakalavriat yo'nalishi: 5111700 - Boshlang'ichta'lim va sport-tarbiyaviy ish

GULISTON - 2017

Ushbu o`quv-uslubiy majmua O`zbekiston Respublikasi OO`MTB tomonidan 5111700 – “Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish” ta`lim yonalishi uchun 2016 yil “ 25”06 dagi 355-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Matematika o`qitish metodikasi” namunaviy fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

O`quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti o`quv-uslubiy kengashi tomonidan 2017 йил “28” dekabr dagi 7-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Muallif:	katta o`qituvchi. Q. Raximov
Taqrizchi:	f-m.f.n., доц.Н.Norjigitov

@ GulDU

USLUBIY MAJMUA MUNDARIJASI

1.Kirish.....	4
3.Ma'ruza mashg'uloti materiallari	6
4.Amaliy mashg'ulot materiallari	124
5.Seminar (Laboratoriya) mashg'uloti materiallari	178
6.Mustaqil ish topshiriqlari.....	206
7. Glossary.....	210
8.Test topshiriqlari.....	213
9. Foydalanilgan adabiyotlar.....	250
9. Ilovalar.....	251

Kirish

Talabalarning bilimini kengaytirish zamon talabi darajasiga etishida fan asoslari bilan qurollantirish, yangi pedagogik texnologiya yutuqlari asosida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “Ta’lim to’g’risida”gi qonun talablarini bajarish maqsadida ularning aqliy tafakkurlarini yuqori darajada rivojlantirishga erishish eng muhim vazifalardan biridir.

Metodika fanlarini o’qitish ishlarida, jumladan matematika o’qitish metodikasi fanini o’qitishni qayta ko’rib chiqib, hozirgi kun talabiga moslashtirish zarurati vujudga keldi. Bu ishlar bo’lg’usi boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlash ishini takomillashtirishda, talabalarni o’qituvchilik kasbiga tayyorlashda muhim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarni hosil qilishda zarur bo’lgan o’quv-tarbiya ishlarini tashkil qilishda katta yordam berishi lozim.

Matematika o’qitish metodikasi fani ma’ruza, amaliy mashg’ulot, laboratoriya mashg’ulotlari va pedagogik amaliyot orqali amalga oshiriladi.

1.1. Fanning maqsadi va vazifalari

Fanni o’qitishdan maqsad - talabalarda boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi kursiga oid bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarga boshlang’ich sinf o’quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, ularda to’g’ri, aniq, qisqa matematik nutqni o’stirish, matematik dunyoqarashni shakllantirish metodikasini, talabalarni o’quv qo’llanmalar va boshqa ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga o’rgatishdan iborat.

1.2.Fanni o’zlashtirishga qo’yiladigan talablar.

Matematika o’qitish metodikasi o’quv fanini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

Boshlang’ich sinflarda matematika kursining tuzilishi, xususiyatlari, mazmuni, vazifasi va maqsadi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining asosiy matematik tayyorgarligi, sinflar bo’yicha asosiy talablar ularning bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan baho mezonini, texnologiyasi.

Asosiy o’quv vositalari darslik, o’quv qo’llanmasi va boshqa vositalar hamda ularni qo’llash metodikasi.

O’quv - bilish faoliyatini tashkil qilishning asosiy va yordamchi shakllari.

Dars ishlanmasida o’quv jarayonini (o’quv materialini unga mos metod, vosita va o’qitish shaklini tanlab) rivojlantirish.

Matematik mazmunda to’garak, olimpiada va boshqa darsdan tashqari mashg’ulotlarni olib borish.

Dastur asosida joriy rejalashtirish.

Darsdan tashqari mashg’ulotlarni o’yin mashg’ulotlari tarzida o’tkazish.

O’zlari qiziqqan yo’nalish, mavzusi asosida ilmiy izlanishning bajarilishini

uddalay olish zarur (kurs va bitiruv ishi tarzida).

Pedagogik texnologiyaning mazmuni va mohiyatini anglash.

Talaba boshlang'ich sinfda matematika o'qitish metodlarini; boshlang'ich sinfda matematika o'qitishni tashkil qilish shakllarini; boshlang'ich sinfda matematika o'qitishda foydalaniladigan o'quv vositalarni; asosiy miqdorlarni o'rgatish metodikasi; arifmetik amallarni o'rgatish metodikasini; boshlang'ich sinflarda algebra elementlarini o'rgatish metodikasini; geometriya elementlarini o'rgatish metodikasini; boshlang'ich sinflarda masalalar yechishga o'rgatish metodikasini ***bilishi kerak.***

Matematika o'qitishda qo'llaniladigan barcha metod va usullarni farqlash; o'quv - bilish faoliyatini tashkil qilishning asosiy va yordamchi shakllari; matematik mazmunda olimpiada masalalarini dastur asosida joriy rejalashtirish; tenglama va tengsizliklarni yechishning turli usullari; geometrik mazmundagi masalalarini yechishga o'rgatish ***ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.***

Matematika o'qitishda qo'llaniladigan barcha metod va usullarni farqlash; matematika o'qitish jarayonni tashkil qilish; arifmetik va geometrik masalalarni yechishga o'rgatish; tanlangan mavzusi asosida ilmiy izlanishning bajarilishini uddalay olish (kurs ishi va bitiruv ishi tarzida) ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***

Mavzu № 1.

Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasining predmetiva unibosh qafanlar bilan aloqasi

Mavzuning texnologik haritasi.

T/p	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1-bosqich	<p>Tayyorlov bosqichi:</p> <p>1.1. Darsning maqsadi: Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasi predmetini ochib berish va uni komponentalarini yrganishdan iborat.</p> <p>1.2 Identiv o'quv maqsadlari:</p> <p>1.2.1. Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasi predmeti qaqida tushunchalarini bayon qiladilar.</p> <p>1.2.2. O'qitish metodikasining asosiy komponentalarini izoxlaydilar.</p> <p>1.2.3. O'qitishning asosiy komponentalari orasidagi uzviylikni tushuntiradilar.</p> <p>1.4 Mavzuga oid muammolar.</p> <p>Milliy dastur talablaridan kelib chiqqan qolda matematika o'qitish metodikasining mazmuni tubdan isloq qilinadi. Sizningcha, unga qanday o'zgartirishlar kiritilishi lozim, deb o'ylaysiz?</p> <p>MUM sistemasining asosiy elementlari bir biri bilan uzviy boqlangan qolda bo'ladi. Bu bog'liqlik qanday belgilarida namoyon bo'ladi. Bu belgilar qamma elementlarga taalluqlimi?</p>	O'qituvchi 15-minut
2-bosqich	<p>2.1 Asosiy tushunchalar. son, raqam, komponenta.</p> <p>2.2 Dars shakli: aralash.</p> <p>2.3 Darsning jixozlash: jadval, sxema, taqdimnoma.</p> <p>2.4 Metod va usullar.</p> <p>2.5 Daftar, darslik bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	O'qituvchi
3-bosqich	<p>Guruxda ishlash.</p> <p>3.1 Matematika o'qitish metodikasining komponentalari izoxlanadi.</p> <p>3.2 Komponentalarning o'zaro uzviy bog'liqligi ko'rsatiladi.</p> <p>3.3 Komponentalarni kim tomonidan grafik tasvirlanganligi aytiladi.</p> <p>3.4 Matematika o'qitish metodikasi qaysi fanlar bilan aloqada o'itilishi tavsiflanadi.</p> <p>3.5 Fanlar integratsiyasi ochib beriladi.</p>	O'quvchilar 40 minut

4-bosqich	<p>Mustaxkamlash va baholash usullari.</p> <p>4.1 Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi fan sifatida nimani o'rganadi?</p> <p>4.2 Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining predmeti nimadan iborat ekan?</p> <p>4.3 Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining butun bir sistema k'yrinishida kim tomonidan tasvirlangan?</p> <p>4.4 Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi qaysi fanlar bilan aloqada o'qitiladi.</p>	O'qituvchi 15minut
5-bosqich	<p>O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi:</p> <p>5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi.</p> <p>5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi</p> <p>5.3. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o'zgartirishlar kiritadi.</p>	O'qituvchi 10minut

Asosiy masalalar

1. Boshlanqich matematika o'qitish metodikasi fan sifatida.
2. Boshlanqich matematika o'qitishning boshqa fanlar bilan aloqasi.

1 - asosiy masalaning bayoni

"Metodika" grekcha so'z bo'lib, "yo'l", «uslub» degan ma'nolarni anglatadi. Matematika metodikasi pedagogika fanlari sistemasiga kiruvchi pedagogika fanining tarmoqi bo'lib, jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish maqsadlariga muvofiq matematika o'qitish qonuniyatlarini matematika rivojining ma'lum bosqichida tadbiq qilinadigan fandır.

Mustaqil respublikamizda so'ngi yillarda o'rta maktabda matematika o'qitish butun sistemasida o'z ko'lamini va aqamiyati jihatidan katta bo'lgan o'zgartirishlar amalga oshirildi.

Maktab oldiga yangi milliy dasturning qo'yilishi matematika o'qitishning mazmunini tubdan o'zgarishga olib keldi. Bu borada matematika boshlanqich kursida qam kattagina o'zgarishlar qilindi. Boshlanqich sinf o'quvchilariga matematikadan samarali ta'lim berilishi uchun bo'lajak o'qituvchi boshlanqich sinflar uchun ishlab chiqilgan matematika o'qitish metodikasini egallab, uni chuqur o'zlashtirib olmoqi zarur.

Matematika boshlanqich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

1. Matematika o'qitishda ko'zda tutilgan maqsadlarni asoslash (nima uchun matematika o'qitiladi, o'rgatiladiq)
2. Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish. (nimani o'rganishq). I-IV-sinf matematikasining mazmuniga nimalar kiritiladi, ularning savodxonligini ta'minlash uchun qanday mavzuni o'qitish kerakq.
3. O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish.

4. O'qitish vositalarini - darsliklar, didaktik materiallar, ko'rsatma - qo'llanmalar va kompyuter imkoniyatlaridan foydalanishni ishlab chiqish.

5. Ta'limni tashkil qilishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish.

O'qitishning maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va formalari metodik sistemaning asosiy komponentlaridir. A.M.Pishkaloning tushuntirishga ko'ra, metodik sistema murakkab sistema bo'lib, uni o'ziga xos grafik bilan tasvirlasa bo'ladi.¹

Bugungi kunda o'qitishning metodi va mazmuni muammosini hal etish oldingilardan farq qiladi. Boshlanqich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini o'stirishda informatikani qo'llash bugungi kun muammolaridan biridir.

Boshlanqich sinfda o'qituvchilar matematikani o'rganishni davom ettirishga tayyorlanadilar. Shuning uchun butun maktab matematika kursi bilan boshlanqich matematika o'qitish orasida uzluksiz olib boriladi. Son tushunchasi, geometrik figura, ifoda, funktsiya, tenglama, geometrik yasash, koordinat va vektor qaqida boshlanqich tushunchalar boshlanqich sinfda o'rgatiladi.

Matematikani o'rganish bilan o'qituvchilar matematik bilimlar zapasiga ega bo'la boshlaydi. Buning natijasida o'qituvchilar aniq ob'ektni matematika tilida ifodaligi yoki matematik modellashtirishga kirishadi.

O'qitishning maqsadlari, mazmuni metodlari, formalari, vositalari orasidagi uzviylik

O'qitishning maqsadlari mazmuni, metodlari, vositalari va formalari metodik sistemasining asosiy komponentalaridir. Uni quyidagi sistemada tasvirlash mumkin.

Nazorat topshiriqlari

1. Metodik sistema kim tomonidan yulduz shaklida tasvirlangan?

- a) Levenberg
- v) Pishkalo
- s) Bikboeva
- d) Drozd

2. Metodik sistema elementlarining qaysilari to'qri?

- a) O'qitishning maqsadi, o'qitishning mazmuni, o'qitishning formasi
- v) O'qitish metodikasi, o'qitish maqsadi, o'qitish mazmuni, o'qitish formasi
- s) O'qitish maqsadi, o'qitish mazmuni, o'qitish metodi, o'qitish formasi, o'qitish vositalari.

2 - asosiy masalaning bayoni. Matematika o'qitish metodikasi boshqa fanlar bilan eng avvalo matematika fani bilan uzviy bog'liq. Maktab matematika kursining mazmunini tanlashga matematika fanining rivojlanish darajasi qar doim ta'sir ko'rsatib keldi. Masalan, XYIII asrda matematikada natural son deyilganda birlar to'plami tushunilar, boshlanqich arifmetika o'qitishda birinchi o'nlik sonlarining qar birini birlardan tuzishga doir mashqlarga katta aqamiyat berilardi.

¹A.M.Pishkalo, Методика обучения математике в начальной школе.М. «Просвещения» - 1983

hozirgi zamon matematikasi natural son tushunchasini asoslashda to'plamlar nazariyasiga tayanadi. Chekli to'plamlar elementlari o'zaro bir qiymatli moslik o'rnatish o'zaro ekvivalent to'plamlar sinflarini ajratish imkonini beradi, shu bilan birga bu sinflarning qar birini qarakterlovchi umumiy natural sonlarni ajratish imkonini beradi. Natural son moqiyatini bunday tushunish O'qitish paraktikasiga narsalarning taqqoslanayotgan to'plamlari elementlari orasida o'zaro bir qiymatli moslik o'rnatishga doir mashqlarni kiritishga olib keladi.

Boshlanqich matematika o'qitish metodikasi pedagogika fani bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning qonuniyatlariga tayanadi. Matematika o'qitish metodikasi bilan pedagogika orasida ikki tomonlama boqlanish mavjud. Bir tomondan, matematika metodikasi pedagogikaning umumiy nazariyasiga tayanadi va shu asosda shakllanadi, bu qol matematika o'qitish shu masalalarni hal qilishda metodik va nazariy yaqinlashishning bir butunligini ta'minlaydi. B.P.Esipovning aniq iborasi bilan aytganda «qar bir metodika qaralayotgan o'quv predmetining maxsus masalalariga va maxsus mazmuniga nisbatan qo'llanilgan pedagogikadir». Ikkinchidan, pedagogika umumiy qonuniyatlarni shakllantirishda xususiy metodikalar tomonidan erishilgan ma'lumotlarga tayanadi, bu uning qayotiyligi va aniqligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, pedagogika metodikalarning aniq materiallaridan "oziqlanadi", undan pedagogik umumlashtirishlarda foydalaniladi va o'z navbatida, u metodikalarni ishlab chiqishda yo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Matematika metodikasi pedagogika, psixologiya va yosh psixologiyasi bilan bog'liq. Tarbiya va ta'limning ko'pgina masalalarini hal qilishda o'qituvchi pedagogik psixologiyasiga oid ko'pgina bilimlardan foydalanishi kerak. Yosh psixologiyasi ta'lim ta'sirida kishi ma'naviy qiyofasining shakllanish qonuniyatlarini, turli yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini, shuningdek, ularning mustaqilliklari va metodlarining tipik imkoniyatlari ana shundadir.

Bunday boqlanishlarni o'rnatishda umumiy faktlarning, ya'ni son qaqidagi arifmetik amallar qaqidagi geometrik figuralar, miqdorlar, shakllar qaqidagi tasavvurlarni va elementlarni: faoliyat to'rlari o'qitishning forma va metodlarini asos qilib olish mumkin.

Nazorat topshiriqlari

Boshlanqich matematika o'qitish qaysi fanlar bilan aloqada?

- a) matematika, psixologiya, pedagogika, tabiat.
- v) matematika, pedagogika, ona tili, tabiat.
- s) matematika, pedagogika, psixologiya.
- d) tabiat, ona tili, rasm va boshqa fanlar.

Mustaqil ish topshiriqlari.

Darsni va ta'limning darsdan tashqari formalarini qanday o'tkazish kerakligini ko'rsating. {2. 6-8 bet}

O'quv ishlarini qanday tashkiliy metodlarda o'tkazish kerak. {3. 8 bet}.

Mavzuga oid xulosalar.

Boshlanqich matematika o'qitish o'quvchilarda tafakkur, xotira, diqqat, ijodiy tasavvur, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Matematika o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirish, ularga o'z fikrlarini qisqa, aniq, tushunarli va to'qri bayon qilishni o'rgatish uchun mavjud asoslarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni 1997.
2. Jumayev.M.E. "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" -T.: 2005.
3. Bikboeva.N.U va boshhalar "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" -T.: O'qituvchi. 1996.

Mavzu №2. Matematika o'qitishning vazifalari. Boshlanqich matematika kursining tuzilishi va mazmuni

T/ r	Bajariladigan ish mavzusi	Amalga oshiruvchi
1-bosqich	<p>Darsning maqsadi: o'quvchilarga matematika o'qitishning vazifalari, uning mazmuni va tuzilishi haqida ma'lumotlar berish.</p> <p>1.2. Identiv o'quv maqsadlari.</p> <p>1.2.1. Talabalar hisoblash, o'lchash va grafik ko'nikmalarni hosil qilishni o'rganadilar.</p> <p>1.2.2. Boshlanqich matematikasining tuzilishini o'ziga xos xususiyatlarini izoqlaydilar.</p> <p>1.2.3 Arifmetik, algebraik va geometrik materiallar orasidagi uzviylikni aniqlaydilar.</p> <p>1.3. Mavzuga oid muammolar Oldingi dasturga ko'ra birinchi o'nlik sonlari ketma-ket o'rganiladi. Bu olingan bilimlarni umumlashtirish imkonini bersa-da, qozirda foydalanilayotgan usul oldingisidan qanday farq qiladi qanday ijobiy tomonlari bor, deb o'ylasizq</p> <p>Matematika o'qitish metodikasi o'quvchilarning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni o'z vazifasi, deb biladi. Bu qarash to'g'ri, deb hisoblaysizmiq. MUM fani qanday vazifalarni bajaradi?</p>	O'qituvchi 15 minut
2-bosqich	<p>2.1. Asosiy tushunchalar: raqam, son, sanoq, shakl.</p> <p>2.2. Dars shakli: aralash.</p> <p>2.3. Darsning jihozlari:</p> <p>a) darslik, daftar;</p> <p>b) chizma, sxema;</p> <p>v) o'yinchoqlar;</p> <p>g) geometrik figuralar.</p> <p>d) taqdimnoma</p> <p>2.4. Metod va usullar: darslik bilan ishlash, daftar bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	O'qituvchi
3-bosqich	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1. Boshlang'ich matematika o'qitishning asosiy vazifalarini ko'rsatish.</p> <p>3.2. Boshlang'ich matematika kursining tuzilish xususiyatlarini izoxlash.</p> <p>3.3. Boshlang'ich matematika kursining mazmunini aniqlash.</p> <p>3.4. Arifmetik materialni o'rnini aniqlash.</p> <p>3.5. Algebraik materialni o'rnini aniqlash.</p> <p>3.6. Geometrik materialni o'rnini aniqlash.</p>	O'quvchilar 40 minut

4- bosqich	<p>Mustaqkamlash va baholash usullari:</p> <p>4.1. Boshlang'ich matematika kursini o'qitish qanday vazifalarni bajaradi.</p> <p>4.2. Boshlang'ich matematika kursini tuzilish hususiyatlari nimadan iborat.</p> <p>4.3. Boshlang'ich matematika kursini mazmuni nimadan iborat.</p> <p>4.4. Arifmetik materiallar kursning qanday qismini tashkil etadi</p> <p>4.5. Algebraik material bilan geometrik material birgalikda kursning qanday qismini tashkil qiladi.</p> <p>4.6. Algebraik va geometrik materiallarning vazifasi nimadan iborat.</p>	O'qituvchi 15 minut
5- bosqich	<p>O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi:</p> <p>5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi.</p> <p>5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi</p> <p>5.3. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o'zgartirishlar kiritadi.</p>	O'qituvchi 10 minut

Asosiy masalalar

1. Boshlanqich matematika o'qitishning vazifasi nimadan iboratq
2. Arifmetik, algebraik, geometrik materiallar va ular orasidagi izchillik.

1-asosiy masalaning bayoni: Boshlanqich matematika kursining vazifasi maktab oldiga qo'yilgan "O'quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berish, ularda yuqori darajadagi onglilikni shakllantirish, kasblarni ongli tanlashga o'rgatish" kabi vazifalarni hal qilishda yordam berishdan iborat.

Shunday qilib, boshqa qar qanday o'quv predmeti kabi, matematika boshlanqich kursi qam ta'limiy, tarbiyaviy va amaliy vazifalarni hal qilishi lozim.

Matematika o'qitish asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda hisoblash, o'lchash va grafik ko'nikmalarning ma'lum aniq sistemasini hosil qilishdan iborat, boshqacha aytganda, bu sistema eng sodda amallarni bajarishdan iborat bo'lib, ko'p marta takrorlanish hisobiga avtomatizmgacha etkaziladi.

Bu vazifa etarli sifatning pasayishiga olib keladi. Shunga qaramay, hozirgi vaqtda boshlanqich matematika kursini o'rganishni faqatgina ko'nikmalar hosil qilish va bir xildagi faktlar o'zlashtirish bilan almashtirish qam mumkin emas.

O'quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat va munosabatlarni ochishni, kuchlar etadigan darajada umumlashtirishlar qilishni o'rganishlari kerak. Shuningdek, og'zaki va yozma xulosalar qilishni o'rganishlari kerak. Shunga qaramay, hozirgi vaqtda boshlanqich matematika Kursini o'rganishni vaqtgina ko'nikmalar hosil qilish va bir xildagi faktlarni o'zlashtirish bilan almashtirish mumkin emas.

Matematika o'qitishda nazariy saviyani oshirish, talabi nimani bildirishini ko'rsatish uchun bir nechta misol keltiramiz:

1-sinfda ilgari dasturga ko'ra birinchi o'nlik sonlar ketma-ket o'rganilardi. qar bir sonni qarashda, masalan, 2 sonni hosil qilish uchun birga birni qo'shish kerak. 3 sonni hosil qilish uchun 1 ga 2 ni qo'shish kerak ekanini tushuntiradi. Bu

faktlarning qammasi bir xil darslarda bir-biriga boqlanmagan qolda qaraladi. Bunday yaqinlashishda bolalar oldingi darslarda olgan bilimlarini umumlashtirish imkonini beruvchi sharoit vujudga kelmasdi, shu bilan birga yaqinlashish navbatidagi 5,6 va qokazo sonlarni o'rganishga baqishlangan darslarda ularni yangi bilimlarni o'zlashtirishlariga kam yordam beradi.

Ammo dastlabki 4-5 sonni o'rganishda ular hosil bo'lish jarayonini taqqoslanadigan bo'lsa, bolalarning e'tiborini qar bir navbatdagi son oldingi songa birni qo'shishdan hosil bo'lishini, bu masalani yangi sonlar uchun qarash ancha osonlashishini ko'rish mumkin.

Haqiqatan o'qituvchi qar gal navbatdagi sonni hosil qilish uchun oldingi songa 1 ni qo'shish kerakligini tushungan bo'lsa, uning o'zi 6,7,8... sonlarini qanday hosil qilishni tushuntira oladi.

Boshqa misol: oldingi dasturga binoan hisoblash ko'nikmalari, xususan 20 va 100 ichida qo'shish va ayirish ko'nikmalari amallar xossalariga tayanilmagan qolda tarkib toptiriladi: uzoq vaqt davomida 2,3 va ba'zan 4 yil bolalar amallarning biror xossasining qo'llanilishiga asoslangan butun bir qator faktlar bilan xossalarning o'zini bilmagan qolda tanishishadi. Aslida esa o'qituvchilarni to'rtta asosiy xossa qaqidagi bilim bilan sonni yiqindiga va yiqindini songa qanday qo'shish qamda sonni yiqindidan va yiqindini sondan qanday ayirish kerakligi bilan tanishtirishning o'zi etarli, amaldagi dasturlarda ana shu maqsad o'qituvchi 100 ichida, keyinchalik esa 1000 ichida ko'p xonali sonlarni og'zaki qo'shish va ayirishda qar qanday misolni echishning qar xil usullarini mustaqil topish imkoniyatiga ega bo'lishi bilanoq amalga oshiriladi.

Matematika o'qitish bolalarning ma'lum bilim va malakalarigina o'zlashtirib olishlarini o'z vazifasi deb bilmay, balki ularda idrok, xotira, tafakkur, tasavvur kabi bilim qobiliyatlarining umumiy rivojlanishini qam nazarda tutadi. Bu to'plamdagi maqsadga muvofiq ish ularga aqliy faoliyatning muqim usularini o'rgatish analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraklashtirish, aniqlashtirish kabi aqliy operatsiyalarni bajarishga imkon beradi.

Boshlanqich sinflarda o'qitish tarbiya bilan uzviy boqlanib amalga oshirilishi kerak. O'qitishning bu muqim vazifasi o'quv protsessida o'qituvchilarda zamonaviy dunyoqarashning shakllanishiga, millat shaxsining ko'pgina qimmatli xususiyat va sifatlarini shakllantirishga eng qulay sharoitlar yaratib berish zarurligini ifodalaydi.

Boshlanqich sinflarda tarbiyalovchi ta'lim bir vaqtning o'zida rivojlantiruvchi ta'lim qamdir.

Nazorat topshiriqlari

Boshlanqich matematika o'qitishning vazifasi nimadan iborat?

- a) hisoblash, o'lchash, ko'nikma
- v) hisoblash, o'lchash, nazariy saviyani oshirish
- s) hisoblash, o'lchash, ko'nikma, nazariy tarbiya
- d) hisoblash, ko'nikma va malakalarni oshirish.

2-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:

Boshlanqich matematika kursining tuzilishi va mazmunini ochib berish, matematika o'qitish orasidagi izchillikni o'rgatishdan iborat.

2-asosiy masalaning bayoni

Boshlanqich matematika kursi maktab matematika kursining tarkibiy qismidir. Shu sababli boshlanqich matematikani muvaffaqiyatli o'zlashtirish maktabda butun matematik ta'limni to'qri yo'lga qo'yishga asos bo'lishi tushunarli bo'lib qoladi.

Dasturda, deb yozishadi A. S. Pchelko va M. I. Moro shunday progressiv qoyalar o'z aksini topdiki, so'nggi yillarda bu qoyalar asosida o'rta maktabda matematika o'qitishni isloq qilish qarakati avj olib ketdi:

- maktab matematika kursini hozirgi zamon matematikasiga va uning tatbiqlariga yaqinlashtirishga intilish ;

- arifmetika bilan algebra va geometriya negizlari tarkiban birlashib ketgan yagona matematika kursini yaratish uchun kurash ;

- maktab matematika kursining amaliy yo'nalganligi, o'qitishning turmush bilan boqlanganligi va o'qituvchilarning hisoblash madaniyatlariga e'tibor berilganligiga, ayniqsa, o'qitishning quyi bosqichida jiddiy amal qilgan qolda maktab matematika kursining nazariy tomoniga e'tiborining kuchayishi;

- ta'lim mazmunini yangilash, bayon qilish sistemasi va metodlarini mukammallashtirish hisobga, asosan o'qituvchilarning bilim imkoniyatlaridan to'la foydalanish hisobiga o'quv materialini o'qitish yillari bo'yicha pastga surish.¹

Boshlanqich sinf dasturida arifmetikadan elementar ma'lumotlarning uyushmasi berilgan: natural sonlar, nol, shu sonlar ustida to'rt arifmetik amal: kasrlar, ismli sonlar va ustida amallar.

Dasturga arifmetik amallarning ba'zi muqim xossalari va ulardan kelib chiqadigan natijalar bilan tanish kiritilganligi sababli, hisoblash usullarini ongli o'zlashtirish vujudga keladi. Bu qo'shish va ayirish, ko'paytirishning o'rinlari orasidagi boqlanishlarning va qokazolarning konkret mazmunlari ochildi. Dasturda berilgan "Tushuntirish xati"da bunday deyiladi: "Natural sonlar va nol arifmetikasini o'rganish maqsadga muvofiq masalalar sistemasi va amaliy ishlar asosida ko'riladi. Bu qar bir yangi tushunchani shakllantirish qar doim u yoki bu masalani echish bilan boqlanishni, bu masalalar tushunchaning aqamiyatini tushuntirishga yordam berishni, uning qo'llanishini talab qilishini bildiradi".

Shunday qilib, masalalar matematika o'qitishni turmush bilan boqlash, matematik bilimlar qo'lanishning matematik tushunchalarining qar xil tomonlarni ochish uchun etarlicha qar xil qayotiy vaziyatlar bilan ta'minlash jarayonida o'quvchilar turmushda kerak bo'ladigan ko'nikma va malakalarni egallab olishadi.

Geometrik materiallar bolalarni eng sodda geometrik figuralar bilan tanishtirish, ularning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish, shuningdek, arifmetik qonuniyatlarni, boqlanishlarning ko'rsatmali maqsadlariga xizmat qiladi. Masalan, to'qri to'rtburchakning teng kvadratlariga bo'lingan ko'rsatmali obrazidan ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasini illyustratsiyalashda foydalaniladi.

¹A. S. Pchelko, M. I. Mogo Методика обучения математике в начальной школе. М. «Просвещения» - 1988

Masalalar shunday mashqlarki, ular yordamida eng avvalo, boshlanqich matematika kursining ko'pgina masalalari ochib berildi. Masalan, masalalar echish yordamida arifmetik amallarning, amallar xossalari, arifmetik amallar natijalari bilan komponent ikkita konsentrik o'nlik va yuzlik konsentrlari yo'q, balki bitta birinchi yuzlik konsentri bor, bu o'z ichiga ikkinchi o'nlikni qam oladi.

Dasturning arifmetik materiali o'qituvchilarni asosiy miqdorlar uzunlik, massa, vaqt, yuza, baqo, tezlik bilan tanishtirishni, shuningdek, bu miqdorlarning o'lchov birligi, qar xil o'lchov asboblari yordamida o'lchash usullari bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi. Amaldagi dasturda uzunlik o'lchovlarini o'rganishga yaqinlashish tubdan o'zgartiriladi. Natural qatorning dastlabki sonlari o'rganilayotganda ditsimetr, yuzlik o'rganilayotganda metr kiritiladi. Bu birdan bolalar son tushunchasini sanoq natijasiga emas, balki o'lchash natijasi sifatida qam shakllantirish imkonini beradi. Ikkinchidan, bolalarni uzunlik o'lchovlarda ifodalangan sonlar bilan ertaroq tanishtirish imkonini beradi.

Bunday yaqinlashishda ismli sonlarni aloqida mavzuga ajratish zarurati yo'qoladi. Ismli sonlar ustida amallar bajarish bilan bir vaqtda bajariladi, chunki ikkala qol asosida qam o'nli sanoq sistemasining o'zi etadi.

Matematikaning sistematik kursini o'rganishga tayyorlash maqsadida kasrlar qaqida ayoniy tasavvurlar beriladi. 2-sinfda qism tushunchasi butunlari orasidagi boqlanishlar va qokazolarning konkret mazmunlari ochildi.

Nazorat topshiriqlari

1.1. Boshlanqich matematika kursining tuzilishi nimadan iboratq

- a) algebraik matematik
- v) geometrik matematik
- s) algebraik, geometrik, arifmetik
- d) arifmetik, algebraik.

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. Boshlanqich matematika o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlangq{2. 17-20 bet}
2. Boshlanqich sinf matematikasi bilan yuqori sinf matematikasi orasidagi bog'liqlikni ko'rsatingq{3.10-12 b}

Mavzuga oid xulosalar.

Boshlanqich matematika kursi o'quvchilarda tafakkur, xotira, diqqat, ijodiy tasavvur, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni. 1997.
2. Jumayev.M.E. "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" -T.: 2005.
3. N.U.Bikboeva "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" -T.: «O'qituvchi».1996

Mavzu № 3. O'qitish metodi tushunchasi va ularni klassifikatsiyalash

T/ r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1-bosqich	<p>1.1. Darsning maqsadi: Talabalarga o'qitishning metodini mavzularning klassifikatsiyasi qadimgi taligichama'lumot berishdan iborat</p> <p>1.2. Identiv o'quv maqsadlari: 1.2.1. O'qitish metodi tushunchasini bilib oladilar. 1.2.2. Og'zaki, ko'rsatma va amaliy metodlar jarayonida qo'llay oladilar. 1.2.3. O'quvchilarning mustaqil aktivliklari darajasiga ko'ra qo'llaniladigan metodlarini ko'rsatadilar.</p> <p>1.3. Mavzuga oid muammolar: Matematika o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyati shuki, bunda mashqlar bajarishga ko'p aqamiyat beriladi. Tegishli bilim va malakalar hosil qilish uchun mashqlar metodining o'zi kifoya qiladimi? Yana qanday metodlarni bilasiz. Bu metodlarni bog'liqlik tomonlarini ko'rsating.</p>	O'qituvchi
2-bosqich	<p>2.1 Asosiy tushunchalar: raqam, son, sanoq, shakl. 2.2. Dars shakli: aralash. 2.3. Darsning jihozlari: a) darslik, daftar; b) chizma, sxema; v) o'yinchoqlar; g) geometrik figuralar. d) taqdimnoma 2.4. Metod va usullar: darslik bilan ishlash, daftar bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	O'qituvchi
3-bosqich	<p>Guruhda ishlash: 3.1. Boshlang'ich matematika o'qitish metodlarining turlari sanaladi. 3.2. Matematika o'qitishda kuzatish metodining roli ko'rsatiladi. 3.3. Suhbat metodi izohlanadi. 3.4. Bayon qilish metodi tavsiflanadi. 3.5. Mashq metodi bajariladi. 3.6. Taqqoslash va qarama-qarshi qo'yish metodi ko'rsatiladi. 3.7. O'qitishning ilmiy metodlari asoslanadi.</p>	O'qituvchi
4-bosqich	<p>Mustaqamlash va baholash usullari: 4.1. O'qitish metodi deganda nimani tushunasiz? 4.2. Kuzatish metodi qanday amalga oshiriladi. 4.3. Suhbat metodi qanday jarayonda olib boriladi.</p>	O'qituvchi

	4.4. Bayon qilish metodi qanday turlarga bo`linadi. 4.5. Mashq metodi qanday maqsadda qo`llaniladi. 4.6. Taqqoslash va qarama-qarshi qo`yish qanday hulosa chiqarishda qo`llaniladi. 4.7. Didaktik o`yin.	
5-bosqich	Umumiy va yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsad va vazifalarning bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi, tegishli takliflar aytiladi va mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O`qituvchi

Asosiy masalalar

1. Og`zaki, ko`rsatmali va amaliy metodlar.
2. Induktsiya, deduktsiya va analogiya.

1 - asosiy masalaning bayoni

O`qitish metodi tushunchasi didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biri.

Didaktika va metodikaga oid hozirgi zamon ishlarining ko`pchiligida o`qitish metodlari o`qituvchi va o`quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari usullari bo`lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, ko`nikma va malakalarga erishiladi, o`qituvchilarning dunyoqarashlari shakllanadi, ularning qobiliyatlari rivojlanadi, deb tavsiflanadi.

Shunday qilib, o`qitish metodlari o`zlashtirish, tarbiyalash va rivojlantirish kabi uchta asosiy funktsiyani bajaradi.

Metod aniqlab olingandan keyin odatda, aniq o`qitish metodlari ro`yxati beriladi. Ammo hozirgi kunda xususiy metodlar ichida "yangi metodlarning" soni kun sayin ortib borayotgani sababli ularning nomlarini sanab chiqish qiyin: Mashqur didaktik M.N.Skatkin hisobiga ko`ra, metodik adabiyotlarni o`qitish metodlari 65 nomda ko`rsatiladi. Ma'lum o`qitish metodlaridan ta'limning yangi mazmuniga, yangi vazifalariga mos keladiganlarini ongli tanlab olish uchun oldin qamma o`qitish metodlarini va mavjud o`qitish metodlari klassifikatsiyasini o`rganib chiqish lozim.

Hozirgi zamon didaktikasida o`qitish metodlari klassifikatsiyasiga qar xil yondoshish mavjud. Bizning fikrimizga eng maqsadga muvofiq, qar xil metodlarni o`z ichiga olgan klassifikatsiya bu akademik Yu.Babanskiy bergan klassifikatsiyadir. Yuqorida keltirilgan ta'rifdan o`qitish metodlarini o`qituvchi va o`quvchilarning birgalikdagi faoliyatidan iborat ekani ko`rinadi. Binobarin, bunday faoliyat tashkil qilish, raqbatlantirish va kontrol qilishni nazarda tutadi.

1. Og`zaki metodlar qisqa muddat ichida qajmi bo`yicha eng ko`p informatsiya berish, o`qituvchilar oldiga muammolar qo`yish, ularni hal qilish yo`larini ko`rsatish imkonini beradi. Bu metodlar o`qituvchilarning abstrakt tafakkurlarining rivojlanishiga sharoit yaratadi.

a) tushuntirish. Bilimlarni tushuntirish metodining moqiyati shundan iboratki, bunda o'qituvchi materialni bayon qiladi. o'quvchilar esa uni, ya'ni bilimlarni tayyor qolda qabul qilib olishadi. Materialning bayoni aniq, tushunarli, qisqa bo'lishi kerak.

O'qituvchi bilimlarni tushuntirish metodidan ma'lumotlar tariqasidagina nazariy materiallar, ifodalardagi arifmetik amallarni bajarish tartib-qoidalari, terminlar bilan tanishtirish: o'quvchilarga o'quv qurollarini ishlatish buyicha yo'l-yo'riq berishdan foydalaniladi.

b) suqbat - bu eng ko'p tarhalgan va etakchi o'qitish metodlaridan biri bo'lib, darsning qar xil bosqichlaridan, qar xil o'quv maqsadlarida qo'llanilishi mumkin, ya'ni uyga berilgan topshiriqlarni va mustaqil ishlarni tekshirish, yangi materiallarni tushuntirishda, mustaqamlash, takrorlashda qo'llanilishi mumkin.

Suhbat o'qitishning savol-javob metodidir, bunda o'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirganliklari va amaliy tajribalariga tayangan qolda, maxsus tanlangan savollar sistemasi va ularga beriladigan javoblar yo'li bilan o'quvchilarning qo'yilgan ta'limiy va tarbiyaviy masalalarini hal qilishga olib keladi.

O'qitishda suqbatning ikki xilidan, ya'ni katexizik va evristik suqbatidan foydalaniladi.

Bu uchta metod, ya'ni induksiya, deduktsiya, analogiya. Bu yangi bilimlarni egallashning qar biri asosida yotuvchi xulosalarning xususiyatlariga qarab bir-biridan farq qilinadi.

Nazorat topshiriqlari

1. Ko'rsatmali nima?
2. Og`zaki nima?
3. Amaliy nima?
4. Taqqoslash usuli nima?
5. Umumlashtirish usuli?

2 - asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi: O'qituvchilarga induksiya, deduktsiya, analogiya metodlari mazmunini ochib berish va ular orasidagi boqlanishni o'rganishdan iborat.

Identiv o'quv maqsadlari

O'quvchilar induksiya, deduktsiya, analogiya metodini amalda qo'llaydilar.

O'quvchilar induksiya, deduktsiya, analogiya metodlarini bir-biridan ajratadilar.

O'quvchilar amaliy metoddan foydalanishga doir masalalar tuzadilar.

2- asosiy masalaning bayoni

Induktsiya metodi bilishning shunday yo'liki, bunda o'qituvchining fikri birlikdan umumiylikka, xususiy xulosalardan umumiy xulosaga boradi. Induktiv xulosa - xususiydan umumiyga qarab boradigan xulosadir. Bu metoddan foydalanib biror qonuniyatni ochish yoki qoidani chiqarish uchun o'qituvchi misolar, masalalar, ko'rsatmali materiallarni puxtalik bilan tanlaydi.

Deduktsiya metodi bilishning shunday yo'liki, bu yo'l umumiyroq bilimlar asosida yangi xususiy bilimlarni olishdan iboratdir. Deduktsiya bu umumiy qoidalardan xususiy misollarga va aniq qoidalarga o'tishdir.

Analogiya - shunday xulosaki, bunda predmetlar ba'zi belgilarning o'xshashligi buyicha bu predmetlar boshqa belgilari bo'yicha qam o'xshash, degan taxminiy xulosa chiqariladi. Analogiya "xususiyan xususiya boradigan" bir aniq faktdan boshqa aniq faktlarga boradigan xulosadir.

Yuqoridan qaralgan metodlardan foydalanish asosida aqliy operatsiyalar analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va abstraktsiyalash yotadi.

Butunni uning tashkil etuvchi qismlariga ajratishga yo'naltirilgan fikrlar usuli analiz deyiladi.

Predmetlar yoki qodisalar orasida boqlanishlar o'rnatishga yo'naltirilgan tafakkur usuli sintez deyiladi.

O'quvchilarda to'g'ri umumlashtirishlar shakllantirishning zaruriy sharti tushunchalarning, xossalarning va faktlarning muqim alomatlarini o'zgartirmagan qolda nomuqim alomatlarini o'zlashtirishdan iborat.

Nazorat topshiriqlari

1. Induktsiya nima?
2. Deduktsiya nima?
3. Analogiya nima?

Mustaqil ish topshiriqlari.

Matematika o'qitish metodlarining turlarini bir-biridan farqini ko'rsating. {2. 33-35 bet}

Sinflarda matematika o'qitish jarayonida mantiqiy fikrni o'stirish usullarini ko'rsating. {3. 12-15 bet.}

Mavzuga oid xulosalar.

Dars jarayonida o'qitish materialining mazmuni va o'quv sinfining katta-kichikligiga qarab, darsning qar bir bosqichi bu metodlardan o'rinli foydalanilsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod – O'zbyokiston taraqqiyotining poydevori. -T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni. 1997.
2. Jumayev M.E. "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" -T.: 2005.
3. N.U.Bikboeva "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" -T.: «O'qituvchi». 1996.

Mavzu № 4. Boshlang'ich sinflarda dars va matematika darslari sistemasi

T/ r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1-bosqich	<p>1.1. Darsning maqsadi: O'quvchilarga dars va uning rejasi, turlari tuzilishi qaqida to'laligicha ma'lumot berishdan iborat.</p> <p>1.2. Identiv o'quv maqsadlari:</p> <p>1.1.O'quvchilar dars va uning tuzilishini amaliy jiqatdan o'rganadilar.</p> <p>1.2. O'quvchilar dars konspektini tuzadilar.</p> <p>1.3. O'quvchilar darsni taqlil qiladilar.</p> <p>1.3. Mavzuga oid muammolar:Faoliyat turlari bilan o'rganilayotgan o'quv materiallari orasida to'qri munosabat ta'minlangan. Bu munosabat nimalarda namoyon bo'ladi. Uning ko'rinishlarini ayting.</p> <p>Darsning qar xil bosqichlarida muammoli ta'lim elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiqmiq Agar muvofiq bo'lsa, undan qanday foydalansa bo'ladiq</p>	O'qituvchi
2- bosqich	<p>2.1. Asosiy tushunchalar: raqam, son, sanoq, shakl.</p> <p>2.2. Dars shakli: aralash.</p> <p>2.3. Darsning jihozlari:</p> <p>a) darslik, daftar;</p> <p>b) chizma, sxema;</p> <p>v) o'yinchoqlar;</p> <p>g) geometrik figuralar.</p> <p>d) taqdimnoma</p> <p>2.4. Metod va usullar: darslik bilan ishlash, daftar bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	O'qituvchi
3- bosqich	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1Matematika darslarida asosiy didaktik maqsadlar aniqlanadi.</p> <p>3.2Matematikadan dars turlari ko`rsatiladi.</p> <p>3.3.Boshlang`ich sinflarda matematika darslariga tayyorgarlik ko`rsatiladi.</p> <p>3.4.Matematika darsini o`tkazish bo`yicha dars ishlanmasini tuzish o`rgatiladi.</p> <p>3.5.Matematika darsini tahlil qilish shemasi beriladi.</p> <p>3.6.Ayrim o`quvchilar bilan individual mashg`ulotlar o`tkaziladi.</p> <p>3.7Mustaqil ishlar bajariladi.</p>	O'qituvchi

4- bosqich	<p>Мустақкамлаш ва баҳолаш усуллари:</p> <p>4.1.Dars deb nimaga aytiladi.</p> <p>4.2.Matematikadan qanday dars turlari mavjud.</p> <p>4.3.O`qituvchi matematika darsiga qanday tayyorgarlik ko`rishi kerak.</p> <p>4.4.Matematikadan zamonaviy dars ishlanmasi qanday tuziladi.</p> <p>4.5.Matematika darsini tahlil qilish shemasi necha bosqichdan iborat.</p> <p>4.6.Darsda mustaqil ishlar nima maqsadda o`tkaziladi.</p> <p>4.7.Uy ishlarini berishda nima hisobga olinadi.</p>	O`qituvchi
5- bosqich	<p>Umumiy va yakuniy xulosalar chiqarish:</p> <p>Maqsad va vazifalarning bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi, tegishli takliflar aytiladi va mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</p>	O`qituvchi

Ajratilgan soat - 2

Mashqulot turi - ma'ruza

1 - asosiy masalaning bayoni. Ma'lumki, boshlang'ich matematika kursi yagona uchta kursdan iborat. Unda arifmetik material bilan birgalikda algebra va geometriya elementlari bayon qilinadi. Shu bilan birga, dasturda ishning barcha yo'nalishlari bir-biri bilan uzviy bog`liq ravishda qarash kerakligi ko'rsatilgan. Kursning qar xil bo'limlari materiallarning kiritilishi matematika darsining tuzilishiga va uning o'tkazilish metodikasiga ta'sir qiladi.

Darsning maqsadlari:

1. Bolalarni ikki xonali sonlarni xona birliklarining yiqindisi bilan almashtirishga o'rgatish.

2. Nollar bilan tugaydigan ikki xonali sonlarni qo'shish va ayirish malakalarini mustaqamlash.

3. Sonni yiqindiga qo'shish xossalarini o'rgatishga doir tayyorgarlik ishini o'tkazish.

Darsning asosiy maqsadi - "Bolalarni xona sonlaridan iborat bo'lmagan ikki xonali sonlarni xona sonlari yiqindisi bilan almashtirishga o'rgatish" bilan birgalikda yana boshqa maqsadlar ham kuzatiladi.

"Yangi mavzuga o'tilgandan keyin qam oldingi mavzudan olingan bilimlar va malakalar ustida ishlash to'xtab qolmaydi: u takrorlash shaklida, ilgari o'tilganlarni rivojlantirish va mukammallashtirish shaklida davom ettiriladi. Bunda bilimlar boyitiladi, malakalar asta-sekin avtomatlashtiriladi, yangi va eski bilimlar orasida boqlanish o'rnatiladi, ma'lum sistema yaratiladi."¹

Grafik tasvir izlayotgan va berilgan miqdorlar orasidagi munosabatlarni aniq ko'rsatish bilan birga o'quvchilarning muammoli vaziyat mazmunini bilib

¹L.Sh.Levenberg "Boshlang'ich sinflarda matematika O'qitish metodikasi" T.: 1986.

olishlariga, so'ngra esa mumkin bo'lgan echish usullarini topishlariga yordam beradi.

Hozirgi zamon darsidan qilinadigan muqim talablardan biri o'quvchilarning bilish va ijodiy faoliyatlarini aktivlashtirishni talab qilishdan iborat. qar bir dars o'ziga yarasha fikrlash darsi, ijodiy qilishga qatnashtirish darsi bo'lishi kerak.

Darsda individual ishni kollektiv ish bilan birgalikda moqirona olib borish, o'quvchilarga diffirensiyalangan yaqinlashishni amalga oshirishda darsning muqim tashkiliy jiqati hisoblanadi.

O'qitish vositalaridan dars mazmunini, uni o'tkazish metodikasini hisobga olgan qolda foydalaniladi. Odatda, dars rejasida shu darsda qanday ko'rsatmali qurollardan foydalanish ko'rsatiladi. O'qituvchi zarur yozuvlarni sinf doskasiga joylashtirish masalasi qaqida qam uylab ko'rish kerak. Yozuvlarni doskaga tartibsiz joylashtirish materialini o'zlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Uyga qanday vazifa berishni u material bilan qanday boqlanganligini va nega shunday boqlanganligini, uy ishiga oid tegishli yo'l-yo'riqlar darsning qaysi qismida berilishi zarurligini o'ylab ko'rish qam katta aqamiyatga ega.

Ko'rib turibmizki, o'qituvchi dars tayyorlaganda bir qator masalani hal qilmoqi zarur. Bu ishning natijalarini o'qituvchi darsning yozma rejasida qayd qiladi.

Dars rejasi, odatda, ixtiyoriy ravishda tuziladi, ammo o'nda quyidagi elementlar o'z aksini topishie kerak:

1. Darsning o'tkazilish vaqti va uning tematik reja bo'yicha tartibi.
2. Dars mavzusining nomi.
3. Darsning asosiy didaktik maqsadlari – ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari
4. Darsda foydalanadigan jiqozlar
5. Dars strukturasi, ya'ni darsning asosiy qismlari yoki bosqichlarini ularning ketma-ketligi va o'tkazish uchun ketadigan vaqtni taxminan aniqlash.
6. Yangi materialni o'rganishga oid va navbatdagi mavzularni o'rganishga oid ishlarning mazmuni.
7. Darsning qar bir qismida bajariladigan o'quv ishining metod va usullari
8. Darsning borishida so'ralishi kerak bo'lgan o'quvchilar familiyalari.
9. Uy vazifasi.

Murakkab darsning qar bir tarkibiy qismini qarab chiqamiz:

1) Uy vazifasini tekshirish - darsning qismi. Tekshirish sistemasi yaxshi yo'lga qo'yilsa, uy vazifasini bajarimaslik yoki qoniqarsiz bajarish qaqidagi fikr o'qituvchi xayoliga qam kelmasligi kerak.

Uy vazifasini tekshirishda og'zaki hisoblashlar bilan bogliq bo'lgan bunday savollarni berish mumkin:

1. 60 hosil qilish uchun qanday misolning javobiga 9 ni qo'shish kerakq
2. Javobida nol bilan tugaydigan ikki xonali son hosil bo'lgan misolni o'qing
3. Javobi 24 dan 3 ta kam bo'lgan misolni ayting
4. Javobi 6 ta 2 xona birligidan va 3 ta bir xona birligi dan iborat bo'lgan misolni ayting.

5. qiymati 8 o'nlik 4 birlikdan iborat sonli ifodani toping.
6. 32 va 18 sonlari yiqindisi 12 birlik orttirring. Uyga berilgan misollarda shunday natija chiqadimi qaysi misolda q

Yangi materialni o'rganish darslari murakkab tipdagi darslarda yangi materialni tushuntirishda taxminan 10-15 minut vaqt beriladi. Ammo yangi materialni o'rganish usuli va metodlari qar xillashtirilsa, boshlanqich sinflarda tushuntirishga 20-25 minut vaqt ajratish mumkin. Bu qolda yangi tip dars - yangi materialni tushuntirish darsi hosil bo'ladi.

Nazorat topshiriqlari

1. Dars deb nimaga aytiladi?
2. Dars rejasi qanday tuziladi?
3. Murakkab dars strukturasi?
4. Dars turlari q

2-asosiy masala buyicha darsning maqsadi:

Talabalarga murakkab dars strukturasi va dars turlari qa qida to'la ma'lumot berishdan iborat.

Identiv o'quv maqsadlari

Muammoli darsning barcha komponentlarini ishlab chiqadilar.
Muammoli vaziyatni vujudga keltiradilar.
Muammoli masallarni echadilar.

2-asosiy masalaning bayoni

Yangi materialni o'rganish strukturasi.

1. Uyga berilgan vazifani tekshirish (agar uy vazifasi o'quvchilarni yangi materialni o'rganishga tayyorlov materialini o'z ichiga olgan bo'lsa, bu tekshirish ayniqsa zarur)
2. O'quvchilarga darsning maqsadini etkazish.
3. Yangi materialni o'rganishga tayyorlash.
4. Yangi materialni o'rganish.
5. Yangi materialni dastlabki puxtalash.
6. Yakunlash va uyga vazifa berish.

Murakkab va yangi materialni tushuntirish darslari strukturalarini taqqoslab, ular deyarli bir xil ekanini ko'ramiz. Bunda farq shundaki, yangi material o'rganishga beriladi.

Bilimlar, masalalar va ko'nikmalarni mustaqkamlash darslari.

Yuqorida qar bir darsda bolalar yangi bilimlarni olib ilgarilab borishlari qa qida gapirilgan edi. Ammo shunday darslar qam borki, ularning asosiy qismlari ilgari olingan bilimlarni mustaqkamlashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni tekshirish va hisobga olish darslari.

O'quvchilarning bilimlari malaka va ko'nikmalarini sistematik tekshirish qar bir darsda bajariladi. Bundan tashqari bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni ajratishda aloqida darslar ajratiladi. Bunday darslarni dastur mavzusi yoki bo'limlar tugallaydi. Bu xil darslarning strukturasi quyidagicha:

- 1) dars maqsadini aytish
- 2) kontrol ishning mazmuni bilan tanishtirish
- 3) ishni bajarishga oid qisqacha yo'l-yo'riq berish
- 4) o'quvchilarning ishlarni mustaqil bajarishlari
- 5) ishni yiqib olish (qo'nqiroqqa 3-5 minut oldin)

Nazorat topshiriqlari

1. Muammoli savol qanday qo'yiladiq
2. Muammoli masala qanday tuziladiq
3. Muammoli vaziyat qanday vujudga keltiriladiq
4. Muammoli vaziyatni echimi qanday hal kilinadiq

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. Dars tuzilishini ishlab chiqing. {1. 53-56 bet.}
2. Ixtiyoriy bir dars konpektini tuzing. {2. 30-32 bet. }

Mavzuga oid xulosalar

Dars o'tkazish metodikasini egallab olishda tajribali o'qituvchilar darslariga qatnashish va shu darslarni taqlil qilish. Shuningdek, o'zining darslarini taqlil qilish katta aqamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E. "Boshlanqich sinflarda matematika O'qitish metodikasi" T.: 2005.
2. N.U. Bikboeva "Boshlanqich sinflarda matematika O'qitish metodikasi" T.: 1996.
3. E. Yangiboeva, N.U. Bikboeva. Matematika-I. T.: «O'qituvchi» 2015.

Mavzu № 5. Matematikadan sinfdan tashqari ishlar

Asosiy masalalar

1. sinfdan tashqari ishning asosiy vazifalarini belgilash, O'quvchilarning bilimlari va amaliy ko'nikmalarini chuqurlashtirish, mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirishdan iborat.

1 - asosiy masalaning bayoni

Sinfdan tashqari ishlar sinf - dars formasidagi ishga nisbatan bir qator xususiyatlarga ega.

1. O'z mazmuni buyicha u davlat dasturi bilan cheklanmagan. Ammo matematik material o'quvchilarning bilimlari va malakalariga mos ravishda berilishi kerak.

2. Boshlanqich sinflarda bolalarning matematikaga nisbatan tuplangan turqun qiziqishlari qaqida hali gapirib bo'lmaydi.

3. Sinfdan tashqari mashqulot ixtiyoriylik printsiipi asosida quriladi. Bolalarni bu ishga majburlab jalb qilish yaramaydi.

4. Darslar 45 minut rejalashtirilgani qolda sinfdan tashqari mashqulotlar mazmuniga va utkazilish formalariga qarab 10-12 minut qam bir soatga qam mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

5. Sinfdan tashqari ishlar shakl va to'rlarining ko'p xilligiga qarab mazmunining turli-tumanligi bilan xarakterlanadi.

Matematik to'garak matematikadan sistematik sinfdan tashqari ishning eng ko'p tarhalganidan biri. Uning asosiy vazifasi - matematikaga aloqida qiziqish ko'rsatgan o'quvchilar bilan bajariladigan chuqurlashtirilgan ish. qiziqarli matematika soatlarini o'qituvchining o'zi tayyorlaydi va o'tkazadi.

Matematik konkursalar va olimpiadalar. Matematik konkurslar qiyin masalalar echish va o'tkir zeqn va tez tushuna olishni talab qiluvchi topshiriqni bajarish buyicha o'ziga xos musobahalar o'tkazadi.

Matematik to'garak matematikadan sistematik sinfdan tashqari ishning eng ko'p tarhalganlaridan biridir. Uning asosiy vazifasi - matematikaga aloqida qiziqish ko'rsatgan o'quvchilar bilan bajariladigan chuqurlashtirilgan ish.

1. To'garaklar ixtiyoriylik asosida tashkil qilinadi. Maktab larda ko'pincha bir necha to'garak ish olib boradi. Bir o'qituvchining bir nechta to'garaklar ishida qatnashishi maqsadga muvofiq emas, chunki bu o'quvchiga nagruzka berib qo'yishi mumkin.

2. qiziqarli matematika soatlarini o'qituvchining o'zi tayyor laydi va o'tkazadi.

Matematik konkurslar qiyin masalalar echish va o'tkir zeqn va tez tushuna olishni talab qiluvchi topshiriqlarni bajarish buyicha o'ziga xos musobahalardir. Matematik konkurslar asosan matematikani tez tushunadigan, ziyrak, qobiliyatli sinfni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

1. Ikki kalava jun ipdan 3 ta halpoqcha to'qish mumkin. 9 ta shunday halpoqcha tukish uchun nechta kalava kerak?

2. Sodiq bilan Naimning birgalikda 30 ta konfeti bor edi.

Ular baravar konfet eganlaridan keyin Sodiqning 9 ta Naimning esa 5 ta konfeti qoldi. Ular nechtadan konfet eyishgan?

3. Ushbu chizmada nechta uchburchak bor?

Nazorat topshiriqlari

1. Matematik devoriy gazetasini tashkil qilish
2. Matematik to'garak o'tkazish
3. Matematik konkurslar va olimpiadalar tashkil qilish
4. 1,2,3,4,5,6,7,8 va 9 sonlari berilgan. Shu qatordagii sonlardan uchtadan qo'shib, javobida 15 chiqadigan misollardan ko'prok hosil qiling.

Mustaqil ish topshiriqlari.

Sinf dan tashqari ishlarning turlarini izoqlang. {1.75 bet}

O'quvchilar tafakkurini rivojlantiruvchi mashqulotlar tuzing. {2. 38-40 bet.}

Mavzuga oid xulosalar.

Qiziqarli masalalar, qazil masalalar, qiziqarli kvadratlar, rebuslarni tuzish va ularni tashkil qilish o'quvchilarda matematikaga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E. "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T.: 2005.
2. Bikboeva N.U. "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T.: 1996.
3. E. Yangiboeva, N.U. Bikboeva. Matematika-I. T.: «O'qituvchi». 2015.

Mavzu 6. "O'nlik" mavzusida sonlarni nomerlashni o'rgatish metodikasi

T/ r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1-bosqich	<p>1.1. Darsning maqsadi: O'quvchilarga 1-o'nliksonlarning tartibmiqdoriqaqidato'laligichama'lumotberishda nibeorat.</p> <p>1.2. Identiv o'quv maqsadlari:</p> <p>1.1. O'quvchilarsanashnio'rganadilarvaamaldako'rsatadilar.</p> <p>1.2. Raqamlarni yozishga tayyorlash variantlarini ishlab chikadilar va asoslaydilar.</p> <p>1.3. Birinchi o'nlik sonlarini taqqoslaydilar.</p> <p>1.3. Mavzuga oid muammolar:</p> <p>1.1. O'quvchilar sanashni o'rganadilar va amalda ko'rsatadilar.</p> <p>1.2. Raqamlarni yozishga tayyorlash variantlarini ishlab chikadilar va slaydilar.</p> <p>1.3. Birinchi o'nlik sonlarini taqqoslaydilar.</p>	O'qituvchi
2-bosqich	<p>2.1 Asosiy tushunchalar: raqam, son, sanoq, shakl.</p> <p>2.2. Dars shakli: aralash.</p> <p>2.3. Darsning jihozlari:</p> <p>a) darslik, daftar;</p> <p>b) chizma, sxema;</p> <p>v) o'yinchoqlar;</p> <p>g) geometrik figuralar.</p> <p>d) taqdimnoma</p> <p>2.4. Metod va usullar: darslik bilan ishlash, daftar bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	O'qituvchi
3-bosqich	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1. Tayyorgarlik davridagi qilinadigan ishlar aytiladi.</p> <p>3.2. Narsalar, harakatlarni sanashni mashq qildiriladi.</p> <p>3.3. Ikki to'planning ularni hosil elementlarning soni bo'yicha taqqoslash olib boriladi.</p> <p>3.4. Tartib munosabatlari va sonlarning tartib qiymatlari o'rgatiladi.</p> <p>3.5. Qo'shish va ayirish amallarini o'rganishga tayyorgarlik ishlari olib boriladi.</p> <p>3.6. Raqamlarni yozishga tayyorlashni o'rgatadi.</p> <p>3.7. O'ylab top o'yini.</p>	O'qituvchi

4- bosqich	<p>Mustaqkamlash va baholash usullari:</p> <p>4.1.Sanash o`tkazish jarayonida o`quvchilarga qanday savol qo`yishni o`rgatish kerak.</p> <p>4.2.Sanoq bilan bog`liq mashqlarni bajarish jarayonida sanoqda ohirgi aytilgan son nimani bildiradi.</p> <p>4.3.Taqqoslash natijasida qanday so`zlarning manosi ochib beriladi.</p> <p>4.4.Sonning tartib raqami deyilganda nimani tushunasiz?</p> <p>4.5.U yoki bu son qanday hosil qilinishi mumkin.</p> <p>4.6.Son qanday ataladi? 4.7.Test.</p>	O`qituvchi
5- bosqich	<p>Umumiy va yakuniy xulosalar chiqarish:</p> <p>Maqsad va vazifalarning bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi, tegishli takliflar aytiladi va mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</p>	O`qituvchi

Asosiy masalalar

1. Ikkita to`plamni elementlari soni buyicha taqqoslash tartibi munosabatlari.
2. qo`shish, ayirish amallarini va raqamlarni yozishga tayyorlash.

1 - asosiy masalaning bayoni:

1-sinfga kelgan o`quvchilar turli joylardan va turli matematik tayyorgarlikka ega bo`ladi. Bolalar boqchasi yoki ba'zi oilalarda tayyorgarligi bor bolalar 1-10 gacha sonlarni o`qish, sanash, yozish malakalariga ega bo`ladilar. Ammo mutlaqo tayyorgarlikka ega bo`lmagan bolalar keladilar. Shuning uchun o`qituvchinin vazifasi 1-sinfga kelgan bolalarning tayyorgarligini individual aniqlashdir. Bu ish o`qish boshlanguncha yoki birinchi qaftadayoq amalga oshirilishi kerak. Anqlashda quyidagi taxminiy savollar bo`lishi mumkin:

- Sanashni bilsizmi? Sanang-chi?
- Doiracha, cho`p, bayroqchalarni sanang-chi?
- Stolda qancha ruchka bo`lsa, shuncha halam oling.
- Qaysi doirachalar ko`p? Yashillarimi, ko`klarimi?
- Tartib bilan qo`yilgan narsalarni tartib bilan sanang.
- Har bir o`quvchining bilim darajasini hisobga olish maqsadida o`qituvchi o`ziga jadval bilan qaydnoma tuzishi lozim.¹

Nazorat topshiriqlari

1. Ikkita to`plam elementlari qanday taqqoslanadi.
2. ... ta kam,... ta ko`p munosabati nima.
3. qo`shish va ayirish amallarini o`rganishga qanday tayyorlanadi.
4. Dars qanday rejalashtiriladi.

¹Ron.Jerman. Преподавание математики.Киев,“Наири”2008.

2 - asosiy masala buyicha darsning maqsadi: o'quvchilarga qo'shish va ayirish amallarini o'rganishi va raqamlarni yozishga tayyorlash qaqida bilim va malakalar hosil qilishdan iborat.

Identiv o'quv maqsadlari

- 1.1. O'quvchilar sanashni o'rganadilar va amalda ko'rsatadilar.
- 1.2. Raqamlarni yozishga tayyorlash variantlarini ishlab chikadilar va asoslaydilar.
- 1.3. Birinchi o'nlik sonlarini taqqoslaydilar.

2 - asosiy masalaning bayoni

Birinchi o'nlik sonlarni nomerlashda o'quvchilarning sanoq malakasi hosil qilinadi. 1-10 ta son qaqida tasavvurni shakllantirish, sonlar qatorini hosil qilish kabi ishlar bajariladi. 10 ichida nomerlashda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarda sanash malakasini shakllantirish va 1-10 sonlar kesmasida natural qatorning tuzilishini ochibberishi va bu asosda natural ketma-ketlikning qadi sifatida ta'riflashdan iborat. Nomerlashni bilish natijasida o'quvchilar quyidagilarga erishadilar:

- 1 dan 10 gacha sonlar ketma-ketligini yaxshi o'zlashtirish.
- Narsalarni sanashni va sanash tartibi ko'rsatilganda qar bir narsanin tartib nomerini aytib bera olishi.
- Sonlarning 1 dan 10 gacha qar bir son qanday hosil bo'lishini.
- Raqamlarni o'qiy olishlari va qar bir raqamga mos keladign narsalar to'plamini mos keltirish. Sonlarning katta, kichik, tengliklarini bilishni.
- Birinchi o'nlik sonlarini bir necha qo'shiluvchilardan iborat qilib yoza olishni.
- 2+1, 4-1 kabi yozuvlarni o'qiy olish va natijasini hisoblay olishni.
- Doira, kvadrat, uchburchaklarni bir-biridan farqlab, ismlarini aytish va ularni chiza olishni.
- O'n ichida sonlarni nomerlashda quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab olish kerak.
- 1-10 nomerlashni va ketma-ketligini.
- Har qanday sonning sonlar qatoridagi o'rnini.
- Sonlarni taqqoslashni (<, >, Q) belgilarini qo'ya olishi.

Nazorat topshiriqlari

1. U yoki bu son qanday hosil qilinadi.
2. Son qanday ataladi, u bosma va yozma raqamlar bilan qanday yoziladi.
3. Berilgan son sonlarning natural qatorida qanday o'rinni egallaydi.
4. Berilgan son bilan sonlar qatorining qanday munosabatlari mavjud.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. «O'nlik»da sonlar tarkiblarini o'rganishga doir didaktik materiallar nimadan iboratq{1. 115-118 bet.}

2. O'yin orhali 1-sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurlarini o'stirish usullarini ko'rsating. {2. 48 bet.}

Mavzuga oid xulosalar.

Birinchi sinfda birinchi o'nlik sonlarini o'rganishda, o'quvchilarda sanoq malakasini hosil qilishda, 1-10 ta son xaqida tasavvurini shakllantirishda ko'rgazmalilikning roli beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E.. "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T.: «O'qituvchi». 2005.
2. Bikboeva N.U. "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T.: «O'qituvchi». 1996.
2. E.Yangiboeva, N.U.Bikboeva. Matematika-I. T.: «O'qituvchi». 2015.

Mavzu 7. "Yuzlik" mavzusida sonlarni nomerlashni o'rganish metodikasi

T/ r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1- bosqich	<p>1.1. Darsning maqsadi: O'quvchilarga "yuzlik" mavzusidasonlarninomerlashni o'rgatishdasonvasanoqtushunchasi nishakllantirishdaniborat.</p> <p>1.2. Identiv o'quv maqsadlari:</p> <p>1.1. Birinchi yuzlik sonlarini nomerlashni o'rganadilar, predmetlarni bittalab va gruppalab sanaydilar.</p> <p>1.2. Birinchi yuzlik sonlarini nomerlash bosqichlarini o'rganadilar.</p> <p>1.3. Yuzlikda teskari sanash tartibini bajaradilar</p> <p>1.3. Mavzuga oid muammolar: Sonlarni o'nliklar va birliklardan qanday hosil bo'lishi turkumi aniqlanadi. Bu bilan nima shakllanadi. qamma tushunchalarga qam buni qo'llash mumkinmiq qanday ijodiy tomonlari borq</p> <p>Sonlarni o'nli tartiblarini bilgalikka asoslanib, sonlarni taqqoslay olish talab etiladi. Buni nimaga asoslanib bajarasizq Taqqoslashdan maqsad nimaq Boshqa taqqoslash usullaridan nimasi bilan farq qiladi.</p>	O'qituvchi
2- bosqich	<p>2.1. Asosiy tushunchalar: raqam, son, sanoq, shakl.</p> <p>2.2. Dars shakli: aralash.</p> <p>2.3. Darsning jihozlari:</p> <p>a) darslik, daftar;</p> <p>b) chizma, sxema;</p> <p>v) o'yinchoqlar;</p> <p>g) geometrik figuralar.</p> <p>d) taqdimnoma</p> <p>2.4. Metod va usullar: darslik bilan ishlash, daftar bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	O'qituvchi
3- bosqich	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1. Yuz ichida raqamlash ikki bosqichda olib boriladi.</p> <p>3.2. 11-20 sonlarini raqamlash va 21-100 sonlarini raqamlash.</p> <p>3.3. Ikkinchi o'nlik sonlarini raqamlash o'quvchilarni o'nlik bilan yangi sanoq birligi sifatida tanishtirishdan boshlanadi.</p> <p>3.4. 11-20 sonlarini hasil bo'lishiga oid didaktik materiallar bilan amaliy ish olib boriladi.</p> <p>3.5. 11-20 sonlarini yozma raqamlash raqamlarning o'rin qiymatlari tamoyilini qo'llanishga asoslanadi.</p> <p>3.6. Ikki honali son termini bilan tanishtiriladi. 3.7. Bir honali va ikki honali sonlarni ajratishga oid mashqlar bajariladi.</p>	O'qituvchi

4- bosqich	<p>Mustahkamlash va baholash usullari: 4.1. Bir honali son deb nimaga aytiladi. 4.2. Ikki honali son deb nimaga aytiladi. 4.3. Bir honali son bilan ikki honali sonning farqi nimada? 4.4. Hona birliklari deganda nimani tushunasiz? 4.5. Har qanday sonni qanday hosil qilish mumkin? 4.6. Labirint. 4.7. Test.</p>	O'qituvchi
5- bosqich	<p>Umumiy va yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsad va vazifalarning bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi, tegishli takliflar aytiladi va mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</p>	O'qituvchi

Asosiy masalalar

- 100 ichida sonlarni nomerlashni o'rganishda predmetlarni bittalab va gruppalab sanashga o'rgatish.
- 100 ichida sonlarni o'qish va yozishga o'rgatish.

1-asosiy masalaning bayoni

Ikkinchi o'nlik sonlarini nomerlashni o'rganishga tayyorgarlik ishi «Birinchilik» mavzusi materialini takrorlash choqida o'tkaziladi. Ana shu maqsadda narsalarni o'nlikdan o'tib sanashga doir mashqlar kiritiladi. Bolalarning birlarni sanashdan o'nliklarni sanashga o'tishlariga yordam berish uchun narsalar guruqlarini sanashga doir bir necha mashq kiritish foydalidir. Tayyorgarlik mashqlari sifatida ikkinchi o'nlik sonlarining nomini aytishdan qam foydalaniladi: sanoq ikkidan keyin qaysi son aytiladi, o'n ikkidan keyinchiq va qokazo

Ikkinchi o'nlik sonlarini og'zaki nomerlashni o'rganish o'nlik qaqidagi tushunchalarni shakllantirishdan boshlanadiq O'qituvchi cho'plarni 10 tadan qilib boqlab, birlardan qanday qilib o'nlar hosil bo'lishini ko'rsatadi. Bunday mashqlarni bolalar qam bajaradilar so'ngra ular o'nliklarni sanaydilar.

Og'zaki nomerlashni, keyinroq esa yozma nomerlashni o'rganishdan, qo'shish va ayirish xonalari qaraladi, ular sonlarni xona qo'shiluvchilariga ajratish va uni tashkil etishga keltiriladi.

Birinchi o'nlikdan o'tib yozma nomerlash sanoqda birliklarni o'nli guruqlash va raqamlarning turgan o'rniga ko'ra qiymati printsiptini qo'llashga asoslangan. Ulardan ongli foydalanish uchun sonni xona sonlariga ajratishni bilishlari kerak. Buni esa bolalar og'zaki nomerlashni o'rganishda o'rgangan edilar. Ikki xonali sonni raqamlar bilan belgilashda raqamlarning o'ni abak-ikki qator cho'ntaklari bo'lgan jadvallar yordamida tushuntiriladi: abakning yuqori qatorida aloqida cho'plar va o'ntaliklar uchun, pastdagi qatorida raqamlar uchun cho'ntaklar mavjud. Keyinroq ana shu maqsadda "o'nlar" va "birlik" yozuvli xonalarni jadvalidan shuningdek, 2 ta qarakatlanuvchi raqamlar qatori mavjud jadvaldan foydalaniladi.

O'qituvchi ikki xonali sonning yozilishini tushuntirishga kirishar ekan, yukoridagi cho'ntakka cho'plarni soladi, bolalar esa birlar va o'nlar sonlarni raqamlar bilan belgilab, mos qolda cho'ntaklarga soladilar va aksincha.

Qo'shish va ayirishning $10+6$, $16-6$, $16-10$ ko'rinishidagi qollari ikkinchi o'nlik sonlarining hosil bo'lishini va ularning o'nli tarkibini o'rganishi munosabati bilan qaraladi. Masalan: o'qituvchi doskaga yozdi: $10-4$, 10 bu o'nlik o'nlikka 4 ta birlik qo'shiliyapti. qaysi son 1 ta o'nlik va 4 ta birlikdan iborat. Demak, $10+4=14$. Mavzuni o'rganish davomida o'quvchilar quyi bosqichlardan o'tishlari kerak.

Nazorat topshiriqlari

1. Nomerlashni o'rgatishda qanday bosqichlar ajratiladi.
2. Ikkinchi o'nlik sonlari qanday nomerlanadi.
3. O'nlikdan o'tish qanday asoslanadi.
4. $11-20$ sonlarining hosil bo'lishiga oid didaktik materiallar qanday bo'lishi mumkin.

2-asosiy masala buyicha darsning maqsadi

Birinchi va 2-xona birliklari, xona soni, xona qo'shiluvchilarining yiqindisi, bir xonali va ikki xonali sonlar kabi yangi tushunchalar va terminlarni o'quvchilarga o'rgatishdan iborat.

Identiv o'quv maqsadlari

1.1. O'ngdan chapga hisoblaganda birliklar va o'nliklar qaysi o'ringa yozilishini aniqlashni o'rganadilar va amalda qo'llaydilar.

1.2. "Yuzlik" ichida og'zaki va yozma nomerlashni o'rganadilar va amalda qo'llaydilar.

1.3. «Yuz» ichida sonlarni taqqoslaydilar.

2 - asosiy masalaning bayoni

Og'zaki nomerlashni o'rganishda, so'ngra esa yozma nomerlashni o'rganishda sonlarni xona qo'shiluvchilariga ajratishga keltiriladigan qo'shish va ayirish qollari qaraladi. Masalan, $10Q7$, $18-10$, $15-5$ misollarini eching. Bu mashqlar qam sonlarning o'nli tarkibiy ongli o'zlashtirilishi imkonini beradi.

$11-20$ sonlarini nomerlashni o'rganishga baqishlangan darslarda sonlarning natural qatori bilan sistemali ravishda ish bajarilib turishi kerak.

100 dan katta sonlarni yozma nomerlash sanoqda birliklarni o'nli gruppalashga va raqamlarning o'rin qiymatlari printsipini qo'llanishiga asoslangan o'ngdan chapga qarab sanalganda birliklar birinchi o'ringa, o'nliklar ikkinchi o'ringa yoziladi.

Abak yozma nomerlash bilan tanishtirish uchun qiymatli ko'rsatmali qo'llanmadir. O'qituvchi abakda 11 dan 19 gacha bo'lgan sonlarning belgilanishini o'nta cho'pdan iborat cho'plar boqlashdan va aloqida birliklardan foydalanib, bosma raqamlar yordamida ko'rsatiladi. Bunda o'ngdan birinchi o'ringa qo'yilgan 1 raqamli birlikni anglanishini o'ngdan ikkinchi o'ringa qo'yilgan xuddi shunday raqam o'nlikni anglatishini tushuntiradi. Bir qancha shunday

mashqlardan so'ng teskari mashqlar bajariladi: raqamlar bilan belgilangan sonlarni o'qish qar qaysi raqamning qiymatini tushuntirish va bu sonda nechta o'nlik va bu sonda nechta birlik borligini cho'plar yordamida ko'rsatish taklif kilinadi. 10 va 20 sonlarining yozilishi aloqida qarab chiqiladi. 1 raqami sonda 1 o'nlik borligini ko'rsatadi, 0 esa berilgan sonda birliklar yo'qligini ko'rsatadi.

Sonlarni yozish malakasini mustaqamlash uchun individual qo'llanmalar-ustiga "o'nliklar" yozilgan xonalar jadvalidan va shuningdek, ikki qator surilma raqamlari bo'lgan jadvaldan foydalaniladi. Bu jadvalni bolalar 1-sinf darsligiga berilgan ilovadan foydalanib yasab olishlari mumkin.

Nazorat topshiriqlari

1. Sonlarni yozish malakasini mustaqamlash uchun nimadan foydalaniladi?
2. 20 ichida sonlarni nomerlashga o'rganish davomida o'qituvchilarqanday terminlar bilan tanishadilar?
3. Darsni ko'rgazmalilik asosida qanday rejalashtirish mumkin?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. 100 ichida nomerlashni o'rganishni asosiy bosqichlarini ko'rsating. {1. 128-132 bet .}
2. O'nliklar sanoqi 10,20,30,... hosil bo'lishi va atalishini izoqlang. {2. 62-64 bet}

Mavzuga oid xulosalar.

100 ichida sonlarni nomerlashni o'rganishda o'quvchilar sonlar qatorida qar bir sonni shunday hosil bo'lishini, qar bir berilgan son o'zidan oldin keladigan sondan qancha kattaligini va o'zidan keyin keladigan sondan qancha kichikligini puxta o'zlashtirib oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E.. "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T.: 2005.
2. Bikboeva N.U. "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T.: 1996.
3. E. Yangiboeva, N.U. Bikboeva Matematika. T.: «O'qituvchi». 2015.

Mavzu 8. Minglik va ko'p xonali sonlarni nomerlashni o'rganish metodikasi

T/ r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1-bosqich	<p>1.1. Darsning maqsadi: O'quvchilarga yangi sanoq birligi - minglik bilan tanishtirish va 1000 ichida nomerlashni o'rgatishdan iborat.</p> <p>1.2. Identiv o'quv maqsadlari:</p> <p>1.2.1. Minglik tushunchasini o'rganadilar, ularni o'qib va yozib amalda qo'llaydilar.</p> <p>1.2.2. "Minglik" mavzusida sonlarni nomerlashni o'rganishdagi asosiy bosqichlarini bilib oladilar va amalda bajaradilar.</p> <p>1.3. Mavzuga oid muammolar: Minlar sinfi ichida natural qatorning nomlarini o'zlashtirib olish bosh vazifalardan biridir. qatorning ixtiyoriy soni bilan o'ndan oldingi keladigan va keyin keladigan sonlar orasida munosabat o'rgatiladi. Bu o'rgatish nimaga asoslanadi.</p>	O'qituvchi
2-bosqich	<p>2.1 Asosiy tushunchalar: raqam, son, sanoq, shakl.</p> <p>2.2. Dars shakli: aralash.</p> <p>2.3. Darsning jihozlari:</p> <p>a) darslik, daftar;</p> <p>b) chizma, sxema;</p> <p>v) o'yinchoqlar;</p> <p>g) geometrik figuralar.</p> <p>d) taqdimnoma</p> <p>2.4. Metod va usullar: darslik bilan ishlash, daftar bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	O'qituvchi
3-bosqich	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1. Narsalarni bittalab, o'ntalab va yuztalab guruhlarga birlashtirib sanash o'rgatiladi.</p> <p>3.2. Ming ichida sonlarni o'qish va yozish hamda ularning natural qatorda kelish tartibi o'rgatiladi.</p> <p>3.3. Sonlarni yuzliklardan, o'nliklardan va birliklardan hasil qila olish tartibi aniqlanadi.</p> <p>3.4. O'ndan chapga hisoblaganda birliklar, o'nliklar va yuzliklar qaysi o'ringa yozilishi aniqlanadi.</p> <p>3.5. Sonni hona qo'shiluvchilari yig'indisi shaklida ifodalash va berilgan sonda istalgan hona birligining umumiy sonini topish ko'rsatiladi.</p> <p>3.6. Oylab top o'yini o'tkaziladi.</p>	O'qituvchi

4- bosqich	<p>Mustahkamlash va baholash usullari:</p> <p>4.1.Ming ichidagi sonlarga necha raqamli sonlar kiradi?</p> <p>4.2.Har bir raqam ming ichidagi sonlarni yozuvida necha martadan qatnashadi?</p> <p>4.3.Uch honali son hona birliklari orasidagi farq nimadan iborat?</p> <p>4.4.``Jonli raqamlash `` o`yini nima maqsadda o`tkaziladi?</p> <p>4.5.Son deb nimaga aytiladi.</p> <p>4.6.Labirint.</p> <p>4.7.Test.</p>	O`qituvchi
5- bosqich	<p>Umumiy va yakuniy xulosalar chiqarish:</p> <p>Maqsad va vazifalarning bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi, tegishli takliflar aytiladi va mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</p>	O`qituvchi

Asosiy masalalar

1. 1000 ichida sonlarni nomerlashga tayyorlash va og`zaki nomerlashni o`rgatish.
2. Ko`p xonali sonlarni nomerlashni o`rgatishda hosil bo`lishi,o`qilishi va yozilishi bilan tanishtirish.

1 - asosiy masalaning bayoni

1000 ichida nomerlashni o`rgatishga tayyorlash ishining vazifasi 100 ichida nomerlashga doir materialdan 1000 ichida sonlarni nomerlashga yordam beradigan qismini takrorlashdan iborat. Shu maqsadlarda o`qituvchilarga taxminan bunday mashqlarni taklif qilish mumkin:

1. Sonlarni tartib bilan 15 dan 19 gacha, 26 dan 31 gacha, 67dan 71 gacha, 96 dan 100 gacha.

2. qar qaysi qatorning yana 5-6 ta sonini ayting:

86,87,88...

95,96,97...

60,70,80...

2. 2-mashqqa o`xshash mashqlar o`quvchilarning yuzdan katta sonlar mavjud ekanini va shu vaqtning o`zida bu sonlarning bolalarga tanish bo`lgan sonlarga o`xshashlik tomonlari borligini tushunishlariga yordam beradi.

3. 7 o`nlik va 2 birlikdan iborat sonni ayting. Bundan oldin gi sonni qanday hosil qilish kerak bo`ladiq Bu sonni yozish uchun nechta raqam kerak bo`ladiq 72 sonini qanday xona kushiluvchilari yiqindisi bilan tasvirlash mumkinq

4. 69 (87,99) qanday qo`shni sonlar orasida turadiq

Keyin o`quvchilar yangi sanoq birligi - minglik bilan tanishadilar. Bu tanishtirish ko`rsatma qurollar, jumladan, bolalarga yaxshi tanish bo`lgan cho`plar va cho`p dastalaridan foydalanib amalga oshirish mumkin. Yangi sanoq birligi yuzlik bilan tanishtirishni aytib o`tilgan ko`rsatma qo`llanmalar yordamida bunday boshlash tavsiya etiladi:

"Chaqirilgan o'quvchi 1dan 10 gacha aloqida cho'plarni sanaydi. 10 ta cho'p rezina bilan oldindan tayyorlab qo'yilgan 9 boq - o'nlik cho'plarni oladi va boshqa o'quvchiga o'ntalab sanashni buyuradi. Bu dastalarning qammasida nechta birlik borligini qanday hisoblash mumkin?"

Mustaqkamlashda cho'plar o'rniga N.S.Popovning "Kvadratlar va poloskalar" deb ataluvchi qo'llanmasidan foydalanish mumkin. qo'llanma, meqnat darslarida halin qoqozdan tayyorlanadi.

Birliklar kvadratlar bilan belgilanadi, o'nliklar qar qaysisida 10 tadan kvadrta bo'lgan poloskalar bilan belgilanadi, yuzliklar esa qar birida 10 tadan poloska bo'lgan kvadratlar bilan belgilanadi. Shu maqsadlarda arifmetik yashikning kubchalari va brusoklaridan foydalanish mumkin.

Nazorat topshiriqlari

1. 1000 ichida sonlarni nomerlashni o'rganishda o'qituvchining vazifasi nimalardan iborat ekanini ayting.
2. Og`zaki nomerlashni o'rgatishda ishni nimadan boshlash kerak?
3. Mustaqkamlashda qanday qo'llanmadan foydalanish mumkin?
4. Sonlarning natural qatorini o'rganishda qanday qo'llanmadan foydalaniladi?

2 - asosiy masala buyicha darsning maqsadi

O'quvchilarga minglik tushunchasini tarkib toptirish, ko'p xonali sonlarni o'qish va yozishga o'rgatish, natural ketma-ketlikka oid bilimlarini aniqlash va umumlashtirishdan iborat. 1000 ichida nomerlashni o'rganishga tayyorlanadilar, minglik bilan tanishtiradilar.

2-asosiy masalaning bayoni:

Ko'p xonali sonlarni nomerlashni o'rgatishda o'qituvchining asosiy vazifasi yangi sanoq birligi - minglik tushunchasini ochish va shu asosda ko'p xonali sonlarni o'qish va yozishga o'rgatish, bolalarning o'nlik sanoq sistemasiga oid bilimlarini natural ketma-ketlik, sonlarni yozishning pozitsion printsipiga oid bilimlarini aniqlash va umumlashtirishdan iborat.

Tayyorgarlik ishining vazifasi bir xonali, ikki xonali va uch xonali sonlarni nomerlashning asosiy maqsadlarini takrorlash. Shu maqsadlarda 3-sinf darsligida maqsadga muvofiq tanlangan mashqlar sistemasi berilgan, mana shulardan ba'zilari:

1. Sonlarni o'qing: 526, 308, 700, 111, 999, 1000. Bu sonlarning har birida qammasi bo'lib qancha o'nlik bor?

2. quyidagilardan iborat sonlarni yozing. 8 yuzlik, 2 o'nlik, 6 birlik; 9 yuzlik, 4 birlik, 4 yuzlik; 6 yuzlik, 5 o'nlik;

3. Mingda nechta yuzlik, o'nlik, birlik borq 1000 ichida sonlarni nomerlashni takrorlashda bolalarni sonlarni cho'tda tasvirlash bilan tanishtirish maqsadga muvofiq. Jumladan, bolalarga pastdan birinchi simga birliklar, ikkinchi simga o'nliklar, uchinchi simga yuzliklar qo'yilishi aytiladi. Sonning yozilishida nol bo'lgan qolga maxsus aqamiyat beriladi.

Nomerlashni o'rganishda bolalarni 1-sinf birliklar sinfi va 2-sinf mingliklar sinfi bilan, ularning tuzilishlari bilan qar bir sinf xonalarining nomlari bilan

tanishtirishdan iborat. Shuningdek, quyi sinf xona birliklaridan yuqori sinf xona birliklari qanday hosil bo'lishini bolalar ongiga etkazish zarur.

Bunda cho'tlar, xonalar va sinflar jadvali asosiy ko'rsatma, qo'llanma vazifasini bajaradi.

Ishni ming qanday hosil bo'lishini takrorlashdan boshlash kerak. Shu maqsadda bolalarga, masalan, 947 sonidan boshlab, bittadan qo'shib sanashni taklif qilish mumkin. O'qituvchi yuzliklar solinadigan 3-simdagi 10 ta cho't donasini 4-simga qo'yiladigan bitta dona minglik bilan almashtiriladi. Shundan keyin hisoblashlar mingtalab bajariladi va o'n mingliklar hosil qilinadi.

Ikkinchi sinf sonlarining hosil bo'lishi, o'qilishi va yozilishi bilan tanishtirishda cho'tlar bilan xonalar va sinflar jadvali asosiy ko'rsatma, qo'llanma bo'ladi. Ishni sonlarni cho'tga solishdan boshlash mumkin. Oldin cho'tga birinchi sinf sonlari solinadi. Xonalar va sinflar jadvalidan foydalanilganda qam shunday ish bajariladi.

O'quvchilar jadvalga o'qituvchi raqbarligida ushbu ko'rinishdagi bir qancha sonni yozadi: 6000, 5700, 70000, 537000. Bolalarning e'tiborlari ularning yozilishi xususiyatiga qaratiladi. O'qituvchilarning e'tiborini yana shunga qaratish maqsadga muvofiqki, sondagi raqamlar miqdori shu sonning yuqori xonasining o'rnini bilan aniqlanadi. Chunonchi, 57 000 sonidan yuqori xona 5-o'ringa turibdi. Demak, bu son 5 ta raqamdan tashkil topadi va u besh xonalidir.

Nazorat topshiriqlari

1. Tayyorgarlik ishi qanday olib boriladi?
2. Asosiy ko'rsatma, qo'llanma vazifasini nimalar bajaradi?
3. Ko'p xonali sonlarni nomerlash ustida ishlashning asosiy bosqichlari qaysilar?
4. Bu darsni qanday rejalashtirish mumkin?

Mustaqil ish topshiriqlaridagi mashqlarni bajarish qanday qoidalarning birligiga asoslanadi. 38600 sonini 100 marta kamaytiring, 700 ni 10 marta kattalashtiring. 480 ni 1000 marta kattalashtiring {1. 136-138 bet.}

qo'p xonali sonlarni o'rganishda o'quvchilar tafakkurlarini o'stirishga doir mashqlarni ko'rsating. {2. 70-72 bet.}

Mavzuga oid xulosalar

O'quvchilar birning natural son ekanligini, o'ndan oldin keladigan qech qanday natural son mavjud emasligini, qar qanday natural songa birni qo'yishdan o'ndan keyin keladigan natural son hosil qilinishini, natural sonlar qatorinig eng kichigi bir, eng kattasi mavjud emas degan xulosaga keladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E. "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T.: 2005.
2. Bikboeva N.U. "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T.: 1996.
3. E. Yangiboeva, N.U. Bikboeva Matematika. T.: «O'qituvchi». 2015.

**Mavzu № 9. O'quvchilarda uzunlik qaqidagi tasavvurni shakllantirish.
Uzunliklarning o'lchov birliklari bilan tanishtirish metodikasi.**

T/p	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1-bosqich	<p>1.1. Darsning maqsadi:O'quvchilargakesmauzunligi, uzunlikbirliklaritushunchasinitushuntirishvao'lchashnio'rgatish.</p> <p>1.2. Identiv o'quv maqsadlari:</p> <p>1.2.1. Kesmauzunligitushunchasini o'rganadilar.</p> <p>1.2.2. Kesmauzunligibirliklarivaularorasidagiboqlanish-niongliravishdatushunibo'rganadilar.</p> <p>1.2.3. Santimetr tushunchasi bilan tanishadilar.</p> <p>Mavzuga oid muammolar: «Ismlı son» tushunchasini shakllantirish, kesmalarni taqqoslash orhali olib boriladi. Taqqoslash muammoni to'la hal qila oladimiq Taqqoslashning qanday usullarini bilasiz?</p> <p>Har bir son uzunlikni bildirishini tushunib etish uchun amaliy ish o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Amaliy ishni o'tkazish nimadan bshlanishi kerak va bu metodning afzalligi nimada?.</p>	O'qituvchi
2- bosqich	<p>2.1 Asosiy tushunchalar: raqam, son, sanoq, shakl.</p> <p>2.2. Dars shakli: aralash.</p> <p>2.3. Darsning jihozlari:</p> <p>a) darslik, daftar;</p> <p>b) chizma, sxema;</p> <p>v) o'yinchoqlar;</p> <p>g) geometrik figuralar.</p> <p>d) taqdimnoma</p> <p>2.4. Metod va usullar: darslik bilan ishlash, daftar bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	O'qituvchi
3- bosqich	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1. Kesma uzunligi xahida tushuncha beriladi.</p> <p>3.2. Kesmalarni taqqoslash usullari kyrsatiladi.</p> <p>3.3. Kesmalarni ylchash mashq qildiriladi .</p> <p>3.4. o'quvchilarni santmetr bilan tanishtiriladi.</p> <p>3.5. Dittsimetr bilan tanishtiriladi.</p> <p>3.6. Metr va milli metr bilan tanishtiriladi.</p> <p>3.7. Kilometr bilan tanishtiriladi.</p> <p>3.8. Uzunlik birliklari jadvali kiritiladi.</p> <p>3.9. “Kim chaqqon” o'yini o'tkaziladi.</p>	O'qituvchi

4- bosqich	<p>Mustahkamlash va baholash usullari:</p> <p>4.1.Uzunlikni ʻlchash qanday oʻʻl bilan amalga oshiriladi?</p> <p>4.2.Kesmalarni taqq oslash natijasida qanday soʻzlarning ma'nosi aniqlanadi.?</p> <p>4.3.Oʻquvchilarda santimetr haqida ayoniy tasavvur qanday amalga oshiriladi.?</p> <p>4.4Santimetr bilan ditsemetrning farqi qanday aniqlanadi?</p> <p>4.5.Santimetr metrning qanday qismini tashkil qiladi.</p> <p>4.6.Millimetr metrning qanday qismini tashkil qiladi?</p>	Oʻqituvchi
5- bosqich	<p>Umumiy va yakuniy xulosalar chiqarish:</p> <p>Maqsad va vazifalarning bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi, tegishli takliflar aytiladi va mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</p>	Oʻqituvchi

Asosiy masalalar

1. Kesma uzunligi tushunchasi va oʻlchash.

Kesma uzunligi birliklari va ular orasidagi boqlanish.

1 - asosiy masalaning bayoni

Kesma uzunligi tushunchasi predmetlarni uzunligi buyicha taqqoslash asosida kiritiladi. Masalan, oʻqituvchi bolalarga ikki boʻlak lentani ixtiyoriy uzunlikdagi ikkita qoqoz poloskani va qokazolarni ustma-ust qoʻyish yoʻli bilan taqqoslashni taklif qilish mumkin. Amaliy ishlar bunda ularning soʻzlar yordamidagi ifodalari bilan kuzatiladi. "Uzunliklari buyicha teng", "Uzunliklari buyicha teng emas" soʻzlarining mazmunlari "bir xil", "uzunroq", "qisqaroq" kabi tushunarliroq soʻzlar orhali aniqlanadi.

Shundan keyin, yana amaliy ishlar asosida masalan poloskalar yordamida bolalar kesmalarni taqqoslashni, kesmalardan birini ikkinchisi ustiga bevosita qoʻyib boʻlmaydigan qollarda oʻrganadilar. Shu maqsadda oʻquvchilar qoqoz poloskalarining chetiga halam bilan bir kesmaning boshi va oxirini belgilaydilar, soʻngra poloskani boshqa kesma yoniga qoʻyadilar. Koʻpburchak tomonlarini taqqoslashni shunday usul bilan bajarish maqsadga muvofiq.

Shunday mashqlarni bajarish natijasida bolalarga kesmalarni taqqoslashning amaliy tajribasi toʻplanadi. Shunga asoslanib oʻqituvchi aniq qayotiy misollar asosida masalan, maʼlum uzunlikdagi lenta sotib olish kerak boʻlganda va shunga oʻxshash qolatlarda kesmalarni taqqoslash uchun maʼlum uzunlikdagi oʻlchov birligidan foydalanish kerak, degan fikrga olib keladi. Bu erda oʻqituvchi raqbarligida amaliy ish oʻtkazish foydali: qar bir oʻquvchiga masalan, sanoq choʻpi uzunligini oʻlchashni taklif qilish mumkin. Buning uchun oldin oʻlchov qoqoz poloskani tanlab olish kerak. qar qaysi oʻquvchi oʻzida bor poloskalardan oʻz oʻlchovini tanlaydi. Natijada qar xil sonlar hosil boʻladi, chunki oʻquvchilar bir qiymat miqdorini topish uchun qar xil oʻlchov tanlab oladilar. Chunki bolalarga oʻlcham jarayoni qaqida dastlabki tasavvurlarini beradi va ularni

uzunlik birligi sifatida qar qanday kesma uzunligini olish mumkin, degan xulosaga olib keladi. Sho'nga asoslanib o'qituvchi kesmalarni taqqoslash uchun aniq o'lchov yordamida o'lchamlardan foydalanishni aytadi.

Nazorat topshiriqlari

1. Kesma uzunliklari qanday taqqoslanadiq
2. O'qituvchi raqbarligida qanday amaliy ishlar o'tkazish mumkinq
3. Kesma uzunligi tushunchasi asosida.

2 - asosiy masala buyicha darsning maqsadi: O'quvchilarda kesma uzunligi birliklari qaqida tasavvur, tushuncha hosil qilish va o'lchash ishlarini o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadlari

- 1.1. Kesma uzunligini o'lchashni va nimalardan foydalanishni o'rganadilar
- 1.2. Kesma uzunligini o'lchashda qanday birliklar mavjudligini bilib oladilar va amalda qo'llaydilar.
- 1.3. Uzunlik birliklarini taqqoslaydilar.

2 - asosiy masalaning bayoni

Oldin uncha katta bo'lmagan cho'plarning, halamning va boshqa narsalarning uzunliklarini topishni o'rganib olamiz. Buning uchun aniq umumiyat tomonidan qabul kilingan uzunlik birligi - santimetrdan foydalanishni o'qituvchi aytadi. O'quvchilar santimetr qaqida ayoniy tasavvur olishlari uchun ular o'qituvchi raqbarligida santimetrning bir qancha modelini tayyorlashlari lozim. Buning uchun katakli qoqoz varaqidan eni bir kattakka va so'ngra o'ndan 1sm li poloska qirqishlari kerak. Poloskalarni ustma-ust qo'yib, bolalar ular o'zaro teng ekaniga ishonch hosil qiladilar. Bunday poloskalarning qar biri santimetrning modeli ekanini o'qituvchi aytadi.

Santimetr modeli yordamida o'quvchilar Berilgan kesmalarni o'lchash.

Berilgan uzunlikdagi kesmani yasash masalasini hal qilishni o'rganib olishlari kerak.

O'quvchilarni uzunlikning yangi birligi detsimetr bilan tanishtirish ikkinchi o'nlik o'rganishi munosabati bilan boshlanadi. Chizqich aslida detsimetrning raqamlanmagan qoqoz modelidir. qar bir o'quvchi shunday modellardan bir qanchasini yasash muqimdir. O'qituvchilar detsimetr modeli bilan qam santimetr modeli yordamida bajaraganliklaridek ishlarni, ya'ni o'lchamlar va yasashlarni bajarishadi.

100 ichida nomerlashni o'rganayotganda yangi chiziqli birlik - metr o'rganiladi. Bu o'lchov bilan tanishtirishning etarlicha ma'lum bo'lgan usuli ushbudan iborat. O'qituvchi sinfga bunday savol bilan murojaat qiladi: sinf xonasining bo'yi va enini santimetr yoki detsimetr bilan o'lchash qulaymiq Nega noqulay?

2-sinfda uzunlik o'lchovi birliklari bilan tanishish davom ettiriladi: bolalar millimetr bilan, keyinroq esa kilometr bilan tanishadilar. O'quvchilarni millimetr bilan tanishtirishi o'qituvchilarni uzunlik o'lchovlari bilan tanishtirish ishining eng qiyin qismidir. Tanishtirishni santimetrga qaraganda ancha mayda bo'lgan yangi o'lchov birligini kiritish amaliyotining talabi ekanini ko'rsatishdan boshlash kerak.

Nazorat topshiriqlari

1. Predmetlarning uzunligi qanday topiladi?
2. Uzunlikni o'lchash uchun qanday birliklardan foydalaniladi?
3. 100 ichida nomerlashda qanday yangi birlik o'rganiladi?
4. Bu darsni qanday rejalashtirish mumkin?

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. Uzunlik o'lchov birliklari orasidagi munosabatni aniqlang.
2. Quyidagi mashqlarni bajarishda o'quvchilar qanday muloqaza yuritadilarq {1. 148-152 bet.}
3. 36647 m; 3807 sonlarni kilometr va metrlarda ifodalang.

Mavzuga oid xulosalar.

O'quvchilarni uzunlik qaqidagi tasavvurlarini shakllantirishda amaliy mshqlarni bajarish, Ko'rgazmalilikning turli vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E. "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T.: 2005.
2. Bikboeva N.U. "Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T.: 1996.
3. E. Yangiboeva, N.U. Bikboeva. Matematika. T.: «O'qituvchi». 2015.

Mavzu № 10 «O'quvchilarda massa va qajm qaqidagi tasavvurdarni tarkib toptirish, ularni o'lchov birliklari bilan tanishtirish metodikasi»

T/ r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1- bosqich	<p>1.1. Darsning maqsadi: o'quvchilarda jismning massasi qaqidagi tasavvurlarini mustaqamlash va taqqoslashni o'rgatish.</p> <p>1.2. Identiv o'quv maqsadlari:</p> <p>1.2.1. Har xil jismlarning massalarini taqqoslashni o'rganadilar.</p> <p>1.2.2. Tortish protsessi jarayoni bilan tanishadilar.</p> <p>1.2.3. Kilogramm tushunchasi bilan tanishadilar.</p> <p>1.3. Mavzuga oid muammolar:</p> <p>Massa va oqirlik tushunchalari bir-biri bilan bog'liq. Bu bog'liqlik nimada namoyon bo'ladi va qanday farqlanadi?</p> <p>Massa birliklari orasidagi munosabatni aniqlash. Amaliy mashqlarni bajarish asosida amalga oshiriladi. Buning boshqa usullari qam mavjudmi?</p>	O'qituvchi
2- bosqich	<p>2.1. Asosiy tushunchalar: raqam, son, sanoq, shakl.</p> <p>2.2. Dars shakli: aralash.</p> <p>2.3. Darsning jihozlari:</p> <p>a) darslik, daftar;</p> <p>b) chizma, sxema;</p> <p>v) o'yinchoqlar;</p> <p>g) geometrik figuralar.</p> <p>d) taqdimnoma</p> <p>2.4. Metod va usullar: darslik bilan ishlash, daftar bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	O'qituvchi
3- bosqich	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1. Massa haqida tushuncha beriladi.</p> <p>3.2. Massa birliklari haqida amaliy ishlar olib boriladi.</p> <p>3.3. Xajm o'lchov birligi litr bilan tanishtiriladi .</p> <p>3.4. Siqmni o'lchashga doir amaliy ishlar o'tkaziladi.</p> <p>3.5. Massa o'lchov birliklari jadvali bilan tanishtiriladi.</p> <p>3.6. "Magazin " o'yini o'tkaziladi.</p>	O'qituvchi
4- bosqich	<p>Mustahkamlash va baholash usullari:</p> <p>4.1. Massa deb nimaga aytiladi?</p> <p>4.2. Kilogram sentnerning qanday qismini tashkil qiladi?</p> <p>4.3. Kilogram tannaning qanday qismini tashkil qiladi?</p> <p>4.4. Gramm tonnaning qanday qismini tashkil qiladi?</p> <p>4.5. Tsentener trnnaning qanday qismini tashkil qiladi?</p> <p>4.6. 9 l va 5 l idishlar yordamida 6 l suvni qanday o'lchab olish mumkin?</p>	O'qituvchi

5- bosqich	<p>Umumiy va yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsad va vazifalarning bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi, tegishli takliflar aytiladi va mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</p>	O'qituvchi
-------------------	--	------------

Asosiy masalalar:

1. qar xil predmetlarning massalarini taqqoslash va amalda ko'rsatish.
2. Massa birliklari va ularni o'lchash.

1-asosiy masalaning bayoni:

Maktabgacha bo'lgan yoshdayoq bolalar qis va tuyqular asosida jismning masassi qaqida dastlabki tasavvurlarini olishgan.

Har xil predmetlarning massalarini taqqoslashga doir amaliy ishlarni bolalar ularning so'zlar orhali ifodalari bilan kuzatib borishgan: «engil», «oqirroq», «bir xil oqirlikda».

Bolalar 1-sinfda tanishadigan birinchi massa birligi bu kilogrammdir.

1kg li massa qaqidagi tasavvurni bolalar faqat o'zlarining amaliy ishlari asosida olishlari kerak. Bolalar massalari 1 kg ga teng bo'lgan (masalan, bir pachka shakar) predmetlarni qo'llarida ushlab ko'rishlari va bu predmetlarni oqir yoki engil predmetlar bilan taqqoslashlari kerak. Taqqoslash operatsiyasi asosidagina bolalar 1 kg li massa qaqida real tuyquni sezadilar.

Birinchi darsning o'zidayoq bolalarni pallali (richagli) tarozida qar xil predmetlarni 1, 2, 5 kg li toshlar naboridan foydalanib tortish bilan tanshtirish kerak.

Tortish jarayonida bolalarning o'zlari qatnashishi muqimdir. Albatta, bunda o'qituvchi oldindan tarozida tortish qoidalarini gapirib berishi kerak. Tortish natijalari doskaga va daftarlarga yoziladi.

Nazorat topshiriqlari

1. Har xil predmetlarning massalari qanday taqqoslanadi?
2. Massani qaysi so'zlar orhali ifodalash mumkin?
3. Tortish jarayoni qanday amalga oshiriladi?

2-asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi: O'quvchilarda massa birliklari qaqida tasavvurni shakllantirish va qanday o'lchash kerakligini o'rgatishdan iborat.

Identiv o'quv maqsadlari

Hajm o'lchov birligi – litr bilan tanishadilar va uning qar xil namunalarni o'rganadilar.

Massa birligi - gramm bilan tanishadilar va aniq tasavvurga ega bo'lgan qolda amalda qo'llaydilar.

Massa birliklarini taqqoslaydilar.

2-asosiy masalaning bayoni:

Navbatdagi darsda bolalar qajm o'lchovi birligi – litr bilan tanishadilar. Bunda litrning qar xil namunalarining bo'lishi, ya'ni bir litrli banka, krujka, shuningdek, idishlarning (banka, chelak, kastyulka, stakanlar) bo'lishi juda katta aqamiyatiga ega.

O'qituvchiga mo'ljallangan metodik qo'llanmada darsni suqbatdan boshlash tavsiya qilinadi, - bu suqbatda bolalardan oldin kim ulardan sut yoki lampa moy (kerosin) sotib olganini, unda sotuvchi sut yoki kerosinni nima bilan o'lchashini so'rab olish tavsiya etiladi, Shundan keyin litrni ko'rsatish va litr yordamida qar xil idishlarning qajmini o'lchamga o'tish tavsiya qilinadi. Amaliy ishlarni qar xil shaklda o'tkazish mumkin. Shulardan «Magazin» uyini quyidagicha: o'qituvchilardan biri sotuvchi qilib tayinlanadi, Chelaklarga «sut» quyilgan. Bir necha o'qituvchi bidonlar va bankalar olishadi. Ular xaridorlar. Xaridorlarning talabiga binoan sotuvchi ularga 1 l, 2l, 3l «sut» – quyib beradi. qolgan qamma o'quvchilar sotuvchi «sutni» to'qri quyib berayotganini kuzatib borishadi».

O'qituvchi ba'zi mashqlarni tanlab olishi, o'z mashqlaridan foydalanishi mumkin, ammo bolalar o'lchashni mashq qilishlari va siqimni ko'zda chamalab aniqlashni mashq qilishlari eng muqimdir.

2-sinfda o'quvchilar yangi massa birligi – gramm bilan tanishadilar, Bunda ish metodikasi kilogramm bilan tanishganlaridekdir. Masalan, gramm qaqida aniq tasavvur hosil qilish uchun bolalar qo'llari bilan massasi bir gramm bo'lgan toshni ushlashlari va uning oqirligini boshqa predmetlarning oqirliklari bilan taqqoslashlari kerak. Bolalarga bir tiyinlik tanganing massasi 1 g, 2 tiyinlikniki 2 g, 3 tiyinlikni 3 g, besh tiyinlikniki 5 g ekanini aytish foydali.

Sinfga dorixona tarozisini olib kirish, bolalarga bu tarozida dorilar tortilishini tushuntirish kerak. Dorilarni o'lchash uchun 1g, 2 g, 5 g, 10 g, 100 g, 500 g li mayda toshlar kerakligini aytadi. Shundan keyin tortishga oid amaliy mashqlar o'tkazish kerak: Masalan, 300 g shakar, 200 g yorma tortib olish va qokazo. Bu jarayonda o'quvchilarning o'zlari ishtirok etishlari muqimdir. Ikkinchi sinfda o'quvchilarni savdo tarozisi bilan tanishtirish tavsiya qilinadi. Shu maqsadda yaqin joydagi oziq-ovqat magaziniga ekskursiya tashkil qilish va bolalarni bunday tarozilarning tuzilishi va ishlatilishi bilan tanishtirish kerak.

3-sinfda, birinchidan, «massa o'lchovlari» tushunchasi kiritiladi, ikkinchidan, o'quvchilar o'zlari uchun yangi birlik – sentner va tonna bilan tanishadilar, uchinchidan, massa o'lchovlari jadvali kiritiladi.

«Massa o'lchovlari» terminini quydagicha tushuntirish yordamida kiritilishi tavsiya qilinadi: «Ikki kesmani taqqoslab, ulardan qaysinisi uzun, qaysinisi qisqa ekanini bilish zarur bo'lganda, ularning uzunliklarini bir xil birlik, masalan, santimetr bilan o'lchab taqqoslaymiz. qaysi bo'lak nonning massasi ortiq, qaysinisiniki kam ekanini bilish zarur bo'lganda esa, buni tarozi va toshlar yordamida hal qilamiz».

Nazorat topshiriqlari

1. «Magazin» o'yini qanday tashkil qilinadi?

2. qajm o'lvhov birligi nima va u haqida qisqacha tushuntiring.
3. 3-sinfda o'quvchilar qanday yangi materiallar bilan tanishadilar
4. Mustaqil ish topshiriqlari
5. Yiqindi va qo'shiluvchilardan biri ma'lum bo'lganda ikkinchi qo'shiluvchini topish nimaga asoslanadi? {1. 175 b}
6. qo'shilishning komponentlari borasidagi munosabatni ko'rsating. {2. 66-70 bet}

Mavzuga oid xulosalar:

O'quvchilar 10 ichida qo'shishni bajarish jarayonida qo'shiluvchi, yiqindi so'zlari bila tanishib, qo'shishning o'rin almashtirish xossasini ifodalaydilar va ularning abstrakt bilimlari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumatev.M.E. «Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi» T.: 2005
2. Bikboeva N.U. «Boshlanqich sinflarda matematika O'qitish metodikasi» T.: 1996.
3. E.Yangiboeva, N.U.Bikboeva, Matematika-II. T.: «O'qituvchi» 2015.

Mavzu № 11: «O'quvchilarda massa va qajm qaqidagi tasavvurdarni tarkib toptirish, ularni o'lchov birliklari bilan tanishitirish metodikasi»

T/ r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1-bosqich	<p>1.1. Darsning maqsadi: o'quvchilarda jismning massasi qaqidagi tasavvurlarini mustaqamlash va taqqoslashni o'rgatish.</p> <p>1.2. Identiv o'quv maqsadlari:</p> <p>1.2.1. Har xil jismlarning massalarini taqqoslashni o'rganadilar.</p> <p>1.2.2. Tortish protsessi jarayoni bilan tanishadilar.</p> <p>1.2.3. Kilogramm tushunchasi bilan tanishadilar.</p> <p>1.3. Mavzuga oid muammolar:</p> <p>Massa va oqirlik tushunchalari bir-biri bilan bog`liq. Bu bog`liqlik nimada namoyon bo`ladi va qanday farqlanadi? Massa birliklari orasidagi munosabatni aniqlash. Amaliy mashqlarni bajarish asosida amalga oshiriladi. Buning boshqa usullari qam mavjudmi?.</p>	O'qituvchi
2- bosqich	<p>2.1. Asosiy tushunchalar: raqam, son, sanoq, shakl.</p> <p>2.2. Dars shakli: aralash.</p> <p>2.3. Darsning jihozlari:</p> <p>a) darslik, daftar;</p> <p>b) chizma, sxema;</p> <p>v) o'yinchoqlar;</p> <p>g) geometrik figuralar.</p> <p>d) taqdimnoma</p> <p>2.4. Metod va usullar: darslik bilan ishlash, daftar bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	O'qituvchi
3- bosqich	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1. Massa haqida tushuncha beriladi.</p> <p>3.2. Massa birliklari haqida amaliy ishlar olib boriladi.</p> <p>3.3. Xajm o'lchov birligi litr bilan tanishtiriladi .</p> <p>3.4. Siqmni o'lchashga doir amaliy ishlar o'tkaziladi.</p> <p>3.5. Massa o'lchov birliklari jadvali bilan tanishtiriladi.</p> <p>3.6. "Magazin " o'yini o'tkaziladi.</p>	O'qituvchi
4- bosqich	<p>Mustahkamlash va baholash usullari:</p> <p>4.1. Massa deb nimaga aytiladi?</p> <p>4.2. Kilogram sentnerning qanday qismini tashkil qiladi?</p> <p>4.3. Kilogram tannaning qanday qismini tashkil qiladi?</p> <p>4.4. Gramm tonnaning qanday qismini tashkil qiladi?</p> <p>4.5. Tsentener trnnaning qanday qismini tashkil qiladi?</p> <p>4.6. 9 l va 5 l idishlar yordamida 6 l suvni qanday o'lchab olish mumkin?</p>	O'qituvchi

5- bosqich	<p>Umumiy va yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsad va vazifalarning bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi, tegishli takliflar aytiladi va mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</p>	O'qituvchi
-------------------	--	------------

Asosiy masalalar:

1. qar xil predmetlarning massalarini taqqoslash va amalda ko'rsatish.
2. Massa birliklari va ularni o'lchash.

1-asosiy masalaning bayoni:

Maktabgacha bo'lgan yoshdayoq bolalar qis va tuyqular asosida jismning masassi qaqida dastlabki tasavvurlarini olishgan.

Har xil predmetlarning massalarini taqqoslashga doir amaliy ishlarni bolalar ularning so'zlar orhali ifodalari bilan kuzatib borishgan: «engil», «oqirroq», «bir xil oqirlikda».

Bolalar 1-sinfda tanishadigan birinchi massa birligi bu kilogrammdir.

1kg li massa qaqidagi tasavvurni bolalar faqat o'zlarining amaliy ishlari asosida olishlari kerak. Bolalar massalari 1 kg ga teng bo'lgan (masalan, bir pachka shakar) predmetlarni qo'llarida ushlab ko'rishlari va bu predmetlarni oqir yoki engil predmetlar bilan taqqoslashlari kerak. Taqqoslash operatsiyasi asosidagina bolalar 1 kg li massa qaqida real tuyquni sezadilar.

Birinchi darsning o'zidayoq bolalarni pallali (richagli) tarozida qar xil predmetlarni 1, 2, 5 kg li toshlar naboridan foydalanib tortish bilan tanshtirish kerak.

Tortish jarayonida bolalarning o'zlari qatnashishi muqimdir. Albatta, bunda o'qituvchi oldindan tarozida tortish qoidalarini gapirib berishi kerak. Tortish natijalari doskaga va daftarlarga yoziladi.

Nazorat topshiriqlari

1. Har xil predmetlarning massalari qanday taqqoslanadi?
2. Massani qaysi so'zlar orhali ifodalash mumkin?
3. Tortish jarayoni qanday amalga oshiriladi?

2-asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi

O'quvchilarda massa birliklari qaqida tasavvurni shakllantirish va qanday o'lchash kerakligini o'rgatishdan iborat.

Identiv o'quv maqsadlari

Hajm o'lchov birligi – litr bilan tanishadilar va uning qar xil namunalarni o'rganadilar. Massa birligi - gramm bilan tanishadilar va aniq tasavvurga ega bo'lgan qolda amalda qo'llaydilar. Massa birliklarini taqqoslaydilar.

2-asosiy masalaning bayoni:

Navbatdagi darsda bolalar qajm o'lchovi birligi – litr bilan tanishadilar. Bunda litrning qar xil namunalarining bo'lishi, ya'ni bir litrli banka, krujka, shuningdek, idishlarning (banka, chelak, kastyulka, stakanlar) bo'lishi juda katta aqamiyatiga ega.

O'qituvchiga mo'ljallangan metodik qo'llanmada darsni suqbatdan boshlash tavsiya qilinadi, - bu suqbatda bolalardan oldin kim ulardan sut yoki lampa moy (kerosin) sotib olganini, unda sotuvchi sut yoki kerosinni nima bilan o'lchashini so'rab olish tavsiya etiladi, Shundan keyin litrni ko'rsatish va litr yordamida qar xil idishlarning qajmini o'lchamga o'tish tavsiya qilinadi. Amaliy ishlarni qar xil shaklda o'tkazish mumkin. Shulardan «Magazin» uyini quyidagicha: o'qituvchilardan biri sotuvchi qilib tayinlanadi, Chelaklarga «sut» quyilgan. Bir necha o'qituvchi bidonlar va bankalar olishadi. Ular xaridorlar. Xaridorlarning talabiga binoan sotuvchi ularga 1 l, 2l, 3l «sut» – quyib beradi. qolgan qamma o'quvchilar sotuvchi «sutni» to'qri quyib berayotganini kuzatib borishadi».¹

O'qituvchi ba'zi mashqlarni tanlab olishi, o'z mashqlaridan foydalanishi mumkin, ammo bolalar o'lchashni mashq qilishlari va siqimni ko'zda chamalab aniqlashni mashq qilishlari eng muqimdir.

2-sinfda o'quvchilar yangi massa birligi – gramm bilan tanishadilar, Bunda ish metodikasi kilogramm bilan tanishganlaridekdir. Masalan, gramm qaqida aniq tasavvur hosil qilish uchun bolalar qo'llari bilan massasi bir gramm bo'lgan toshni ushlashlari va uning oqirligini boshqa predmetlarning oqirliklari bilan taqqoslashlari kerak. Bolalarga bir tiyinlik tanganing massasi 1 g, 2 tiyinlikniki 2 g, 3 tiyinlikni 3 g, besh tiyinlikniki 5 g ekanini aytish foydali.

Sinfga dorixona tarozisini olib kirish, bolalarga bu tarozida dorilar tortilishini tushuntirish kerak. Dorilarni o'lchash uchun 1g, 2 g, 5 g, 10 g, 100 g, 500 g li mayda toshlar kerakligini aytadi. Shundan keyin tortishga oid amaliy mashqlar o'tkazish kerak: Masalan, 300 g shakar, 200 g yorma tortib olish va qokazo. Bu jarayonda o'quvchilarning o'zlari ishtirok etishlari muqimdir. Ikkinchi sinfda o'quvchilarni savdo tarozisi bilan tanishtirish tavsiya qilinadi. Shu maqsadda yaqin joydagi oziq-ovqat magaziniga ekskursiya tashkil qilish va bolalarni bunday tarozilarning tuzilishi va ishlatilishi bilan tanishtirish kerak.

3-sinfda, birinchidan, «massa o'lchovlari» tushunchasi kiritiladi, ikkinchidan, o'quvchilar o'zlari uchun yangi birlik – sentner va tonna bilan tanishadilar, uchinchidan, massa o'lchovlari jadvali kiritiladi.

«Massa o'lchovlari» terminini quydagicha tushuntirish yordamida kiritilishi tavsiya qilinadi: «Ikki kesmani taqqoslab, ulardan qaysinisi uzun, qaysinisi qisqa ekanini bilish zarur bo'lganda, ularning uzunliklarini bir xil birlik, masalan, santimetr bilan o'lchab taqqoslaymiz. qaysi bo'lak nonning massasi ortiq, qaysinisini kam ekanini bilish zarur bo'lganda esa, buni tarozi va toshlar yordamida hal qilamiz».

¹М. И. Мого, Н. Бантова Методика обучения математике в начальной школе. М. «Просвещения» - 1988

Nazorat topshiriqlari

1. «Magazin» o'yini qanday tashkil qilinadi?
2. qajm o'lchov birligi nima va u qaqida qisqacha tushuntiring.
3. 3-sinfda o'quvchilar qanday yangi materiallar bilan tanishadilar?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Yiqindi va qo'shiluvchilardan biri ma'lum bo'lganda ikkinchi qo'shiluvchini topish nimaga asoslanadiq{1. 175 b}
2. qo'shilishning komponentlari borasidagi munosabatni ko'rsating. {2. 66-70 bet}

Mavzuga oid xulosalar:

O'quvchilar 10 ichida qo'shishni bajarish jarayonida qo'shiluvchi, yiqindi so'zlari bila tanishib, qo'shishning o'rin almashtirish xossasini ifodalaydilar va ularning abstrakt bilimlari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev.M.E. «Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi» T.: 2005
2. Bikboeva N.U. «Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi» T.: 1996.
3. E.Yangiboeva, N.U.Bikboeva, Matematika-II. T.: «O'qituvchi» 2015.

Mavzu № 12. Vaqtga oid tasavvurlarni tarkib toptirish

T/ r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1-bosqich	<p>1.1. Darsning maqsadi: o'quvchilarni vaqtni aniqlashlarida soatdan amalda foydalanishga, qodisaning qancha davom etganligi, boshlanishi va oxirini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan qar xil masalalarni echishda tabel-kalendardan foydalanishga o'rgatishdan iborat.</p> <p>1.2. Identiv o'quv maqsadlari:</p> <p>1.2.1. Tabel-kalendar bilan tanishadilar, soatlarning demonstratsion modelini o'rganadilar.</p> <p>1.2.2. Vaqt, o'lchov bilan bog'liq bo'lgan asosiy tushunchalar qanday kiritilishini bilib oladilar.</p> <p>1.2.3. Soat qaqida tushunchaga ega bo'ladilar.</p> <p>Mavzuga oid muammolar: Vaqtni hisoblash Grigoryan kalendari asosida amalga oshiriladi. Bu kalendar bo'yicha vaqtni to'g'riligini tekshirish qanday amalga oshiriladi? Vaqtni hisoblashga doir yana qanday kalendarlar mavjud, agar mavjud bo'lsa ularning farqi nimada?</p>	O'qituvchi
2-bosqich	<p>2.1. Asosiy tushunchalar: raqam, son, sanoq, shakl.</p> <p>2.2. Dars shakli: aralash.</p> <p>2.3. Darsning jihozlari:</p> <p>a) darslik, daftar;</p> <p>b) chizma, sxema;</p> <p>v) o'yinchoqlar;</p> <p>g) geometrik figuralar.</p> <p>d) taqdimnoma</p> <p>2.4. Metod va usullar: darslik bilan ishlash, daftar bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	O'qituvchi
3-bosqich	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1. o'quvchilarni tabel kalendar, soatlarning namoish modeli, maktb o'quvchisining kundalik rejimi jadvallarii bilan tanishtiriladi.</p> <p>3.2. Kalendarning tuzilish tarixi bayon etiladi.</p> <p>3.3. Sutka, yil, oy, hafta haqida tushunchalar beriladi .</p> <p>3.4. Sekunt va asr bilan tanishtirishda amaliy ish o'tkaziladi</p> <p>3.5. Vaqt o'lchov birliklari jadvali bilan tanishtiriladi.</p> <p>3.6. "Kim chaqqon " o'yini o'tkaziladi.</p>	O'qituvchi

4-босқич	Mustahkamlash va baolash usullari: 4.1. Vaqt deb nimaga aytiladi? 4.2. Soat sutkaning qanday qismini tashkil qiladi? 4.3. Sutka oyning qanday qismini tashkil qiladi? 4.4. Oy yilning qanday qismini tashkil qiladi? 4.5. Yil asrning qanday qismini tashkil qiladi?	Ўқитувчи
5- босқич	Umumiy va yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsad va vazifalarning bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi, tegishli takliflar aytiladi va mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi

Asosiy masalalar

1. Tabel – kalendar, soatlarning demonstratsion modeli va «Maktab o'qituvchisining kundalik rejimi» jadvallari.
2. Yangi vaqt birliklari – sekund va asr, asosiy birliklar – yil va sutka.

1-asosiy masalaning bayoni:

2-sinfda «Vaqt o'lchovlari» mavzusini o'rganishda bolalar vaqt o'lchovining asosiy birliklari qaqida aniq tasvurga ega bo'lishlari kerak. Bular yil, oy, qafta, sutka, soat, minut. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarni vaqtni aniqlashlarida soatdan amalda foydalanishga, shuningdek, qodisaning qancha vaqt davom etganligini, boshlanishi va oxirini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan qar xil masalalarni echishda tabel-kalendardan foydalanishni o'rgatishdan iborat.

Ma'lumki, vaqt o'lchovlari, o'lchovlarning metrik sistemasidan farqli o'laroq, bevosita o'lchash imkoniyatini bermaydi. Bu qol turli ko'rsatma qo'llanmalardan keng foydalanish kerakligini ko'rsatadi. Bu mavzuni o'rganishda quyidagi eng ko'p tarhalgan ko'rsatma qo'llanmalardan foydalanish mumkin.

1. Tabel – kalendar. Bu qar bir o'quvchida bo'lishi kerak. Joriy yil uchun bunday tabel-kalendarni o'quvchilarning o'zlari o'qituvchi raqbarligida tayyorlaydilar.

Soatlarning demonstratsion modeli. Darslikda berilgan mashqlarning ko'pchiligi siferblat bilan ishlashni talab qilganligi uchun qar bir o'qituvchi soat modellarini tayyorlagan bo'lishi kerak.

«Maktab o'qituvchisining kundalik rejimi» jadvallari. «Vaqt o'lchovlari qafta bilan tanishish bo'ladilar, yildagi oylarning nomlarini va ularning kelish tartibini bilib olgan bo'ladilar.

Bolalarda yiqilgan bunday tasavvurlar ikkinchi sinfda vaqt o'lchovlarini o'rganishga zamin bo'ladi».¹

Endi vaqt o'lchovi bilan bog'liq bo'lgan asosiy tushunchalar qanday kiritilishi, bolalarda tegishli tushunchalarning shakllanishi nimaga asoslanishi masalasini qarab chiqamiz. Berilgan mavzuni o'rganishga baqishlangan birinchi darsda bolalarda yil, oy, qafta qaqidagi tasavvurlarni shakllantirishga doir ishlar

¹L.Sh.Levenberg "Boshlang'ich sinflarda matematika O'qitish metodikasi" T.: 1986.

Bu mavzuga oid darslarda yirikroq vaqt o'lchovlarini maydaroq vaqt o'lchovlariga almashtirishga oid va aksincha mashqlarga katta e'tibor beriladi.

Bir necha dars vaqt o'lchovlari qatnashgan ismli sonlarni qo'shish va ayirish bilan bolalarni tanishtirishga baqishlanadi. Bunday hisobotlarni ismli sonlarni bir xil birlikka almashtirmay turib bajariladi. Shuni ta'kidlash kerakki, qo'shishni o'rganishdan oldin shunday mashqlar qaraladiki, ularda minutlar yiqindisi 60 dan kam bo'ladi, soatlar yiqindisi esa 24 dan kam bo'ladi. Shundan keyin murakkabroq qollar qam qaraladi.

Ayirishni qarashni ushbu ko'rinishdagi misollarni echishdan boshlash tavsiya etiladi: 1 soat – 4 minut, 3 minut – 26 sekund va qokazo.

Nazorat topshiriqlari

1. Asr tushunchasini kiritishda o'qituvchining vazifasi nimadan iborat?
2. Bu mavzuni o'rganish nimadan iboratq Bu mavzuga oid darslarda nimalarga katta e'tibor beriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. Vaqt birliklari orasidagi boqlanishni ifodalang. {1. 157 b}
2. Berilgan qodisalar orasidagi o'tgan vaqtni hisoblashga doir masala tuzing va eching. {2. 80-82 bet.}

Mavzuga oid xulosalar.

O'quvchilar vaqt birliklari orasidan boqlanishlarni hisoblashni o'rganadilar qamda vaqtga oid masalalarni echish natijasida ularning vaqtga oid tasavvurlari shakllanadi. Vaqtning takroriy jarayon ekanligini anglaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev. M.E. «Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi». T.: 2005.
2. Bikboeva N.U. «Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi». T.: 1996.
3. E. Yangiboeva, N.U. Bikboeva, Matematika-IV. T.: «O'qituvchi». 2015.

Mavzu № 13. O'quvchilarda geometrik figuralarning yuzasi qaqidagi tasavvurlarni tarkib toptirish, yuza o'lchovlari birliklari bilan tanishtirish metodikasi

T/ r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1- bosqich	<p>1.1. Darsning maqsadi: o'quvchilarni to'qritib burchakning yuzasini hisoblash qoidasi bilan tanishtirish va usullarini o'rgatishdan iborat.</p> <p>1.2. Identiv o'quv maqsadlari:</p> <p>1.2.1. Figuralarning yuzlari» mavzusini darslikdako'rsatilgan reja asosida o'rganadilar.</p> <p>1.2.2. Har bitta bosqichni aloqida o'rganadilar.</p> <p>1.2.3. Kvadrat santimetr tushunchasini kiritadilar.</p> <p>1.2.4. O'quvchilar to'qri to'rtburchakning yuzasini hisoblash qoidasi bilan tanishadilar va amalda ko'rsatadilar.</p> <p>1.2.5. O'quvchilar to'qri to'rtburchaklardan boshqa figuralarni ajratadilar.</p> <p>1.2.6. Geometrik figuralarni taqqoslaydilar.</p> <p>1.3. Mavzuga oid muammolar: Yuzalarni hisoblar kvadrat birlik asosida amalga oshiriladi. Bu hisoblashlar har qanday ko'rinishdagi figuralar uchun ham taalluhlimi? Agar taalluqli bo'lmasa ularni qanday yil bilan hisoblash mumkin?</p>	O'qituvchi
2- bosqich	<p>2.1. Asosiy tushunchalar: raqam, son, sanoq, shakl.</p> <p>2.2. Dars shakli: aralash.</p> <p>2.3. Darsning jihozlari:</p> <p>a) darslik, daftar;</p> <p>b) chizma, sxema;</p> <p>v) o'yinchoqlar;</p> <p>g) geometrik figuralar.</p> <p>d) taqdimnoma</p> <p>2.4. Metod va usullar: darslik bilan ishlash, daftar bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	O'qituvchi

3- bosqich	<p>Guruhda ishlash:</p> <p>3.1. Kvadrat birlik haqida tushuncha beriladi.</p> <p>3.2. Figuralarning yuzlarini taqqoslash olib boriladi.</p> <p>3.3. har xil figuralarning yuzlarini paletka yordamida xisoblash o'rganiladi.</p> <p>3.4. To'g'ri to'rtburchakning yuzini kvadrat santimetrlarda o'lchash bajariladi.</p> <p>3.5. To'g'ri to'rtburchakning yuzini kvadrat ditsemetrmetrlarda o'lchash bajariladi.</p> <p>3.6. To'g'ri to'rtburchakning yuzini kvadrat metrlarda o'lchash bajariladi.</p>	Ўқитувчи
4- bosqich	<p>Mustahkamlash va baholash usullari:</p> <p>4.1. Yuza o'lchov birligi qilib nima qabul qilingan?</p> <p>4.2. Har xil figuralarning yuzlari qanday hisoblanadi?</p> <p>4.3. To'g'ri to'rtburchakning yuzi qanday hisoblanadi?</p> <p>4.4. Kvadratning yuzi qanday hisoblanadi?</p> <p>4.5. Bir hil yuzaga ega bo'lgan kvadrat va to'g'ri to'rtburchak yasash mumkinmi?</p> <p>4.6. Yuzasining son qiymati 36 ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak kvadrat bo'la oladimi?</p>	O'qituvchi
5- bosqich	<p>Umumiy va yakuniy xulosalar chiqarish:</p> <p>Maqsad va vazifalarning bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi, tegishli takliflar aytiladi va mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</p>	O'qituvchi

Asosiy masalalar

«Figuralarning yuzalari» mavzusini reja asosida o'rganish.

To'g'ri to'rtburchak yuzasini hisoblash qoidasi

1-asosiy masalaning bayoni

«Ko'pburchak yuzasi» mavzusi 3-sinfda o'rganiladi. Ammo tegishli tayyorgarlik ishlari 1-sinfdan boshlanadi. 1 va 2-sinf o'quvchilariga sanash, figuralarni berilgan shakliga ko'ra kataklar bo'yicha yasash, figuralarni taqqoslashga oid mashqlar beriladi.

«Figuralarning yuzalari» mavzusini darslikda ko'rsatilgan reja asosida o'rganish kerak.

Taqqoslash, qaysi figura tekislikda ko'proq o'rin olishini aniqlash asosida figuraning yuzasi qaqidagi umumiy tasavvurlarni shakllantirish. Birlik kvadrat qaqidagi tasavvurni shakllantirish, bu kvadrat yordamida figuralarning qaysinisining yuzasi bitta ekanligini qar doim aniqlash mumkin. Kvadrat santimetrlari bilan tanishish.

- Har xil figuralarning yuzalarini kvadrat santimetrlarida topish. Poletika
- To'g'ri to'rtburchakning yuzasini kvadrat santimetrlarida hisoblash.

- To'qri to'rtburchakning yuzasini kvadrat detsimetrlarida hisoblash.
- To'qri to'rtburchakning yuzasini kvadrat metrlarida hisoblash.

Figuraning yuzasi qaqidagi umumiy tasavvurlarini shakllantirishdan oldin kesmalarni taqqoslash, kesmalar va kesmalarning uzunliklariga nisbatan «katta», «kichik», «teng» munosabatlari qaqida o'quvchilarda to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish muqimdir. Bu ish o'quvchilarda ko'p burchaklarni taqqoslash qaqida, kesmalarni taqqoslash ishlari bir-biridan farq qilishi qaqida aniq tasavvurlar hosil qilishga imkon beradi.

Figuralarning yuza tushunchasini shakllantirishda amaliy mashqlarga aloqida aqamiyat berish kerak, bu mashqlarning bajarilishi mavzuni o'rganishga bevosita tayyorgarlik bo'ladi. Chunonchi, o'quvchilarga bunday amaliy topshiriqni berish mumkin: «katakli qoqozga qar xil figuralarni chizing va bir-biri-bilan taqqoslang».¹

Bunday misollarni qarash yuzalarni o'lchash zarur, degan fikrga olib keladi. Bunda kesmalarni o'lchashdagi analogiya o'rinlidir. Shu sababli oldin o'lchamlarni bajarish va shundan keyingina o'lchash natijasida sonlarni taqqoslash kerak.

O'quvchilar o'zlari mustaqil figuralarning yuzalarini taqqoslashning yana bir usulini topishlari uchun ularga amaliy mazmundagi bunday masalani taklif qilish mumkin: «bir o'quvchi 6 tadan katakli bo'lgan 4 ta qatorni, 2-o'quvchi esa 9 tadan katakli bo'lgan 3 ta qatorni halam bilan chiqib o'radi. qqysi o'quvchi ko'proq katakni va qancha katakni o'raganq»

Bunday masalalarni arifmetik usulda echish bilan o'quvchilar ikkinchi sinfda tanishgan, shuning uchun ular echimni qech bir qiynalmay topadilar - $9 \times 3 - 6 \times 4 = 3$. Shundan keyin, masalani grafik usul bilan echish taklif qilinadi. O'quvchilar oldin to'rtta to'qri burchakli poloskalardan tashkil topgan to'qri to'rtburchaklardan chizishadi. Bu poloskalarining qar birida 6 tadan katak bor, so'ngra 3 ta to'qri burchakli poloskadan tashkil topgan to'qri to'rtburchakni chizishadi Keyingi poloskaning qar birida 9 tadan katak bor. O'quvchilar figuralarning qar biridagi kataklarni sanab, qaysinisida kataklar ko'p ekanini bilishlari kerak. O'quvchilar bu masalani grafik usul bilan echganlarida amalda yuzalarni taqqoslashning yangi usulini egallab oladilar.

Nazorat topshiriqlari:

1. «Figuralarning yuzalari» mavzusini o'rganishda qanday rejaga asoslaniladi?
2. Figuraning yuzasi tushunchasini shakllantirishda nimalarga aqamiyat berish kerak?
3. Kesmalarni o'lchashda qanday usul o'rinli?

2-asosiy masalaning bayoni:

O'quvchilarni to'qri to'rtburchakning yuzasini hisoblash qoidasi bilan tanishtirish ishini bunday amaliy ishdan boshlash mumkin. O'quvchilarga qar biriga kvadratlarga bo'lingan to'qri to'rtburchak chizilgan qoqoz varagi

¹М. И. Мого, Н. Бантова Методика обучения математике в начальной школе. М. «Просвещения» - 1988

tarqatiladi. O'quvchilar to'qri to'rtburchakdagi kataklar sonini qar xil usullar bilan hisoblashadi.

1-usul. Bir poloskadagi kataklar soni hisoblanadi va hisoblash natijasida topilgan sonni boshqa songa – poloskalar soniga ko'paytiriladi. Bunday yoziladi: $6 \times 4 = 24$

2-usul. Bir ustundagi kataklar soni va ustunlar soni hisoblanadi. hisoblash natijasida topilgan sonlar o'zaro ko'paytiriladi. Bunday yoziladi: $4 \times 6 = 24$. Shundan keyin o'quvchilarga to'qri to'rtburchakning bo'yi va enini o'lchash taklif kilinadi. Siz qanday sonlarning ko'paytmasini topdingiz (4 va 6)

O'ylab ko'ring-chi 6 soni nimani ifodalaydiq (to'qri to'rtburchakning buyini) yana nimani (to'qri to'rtburchakdagi ustunlar sonini) to'qri to'rtburchakdagi ustunlar soni to'qri to'rtburchakning buyini santimetrlarda ifodolovchi songa teng.

4 soni nimani ifodalaydiq (to'qri to'rtburchak enini) yana nimaniq (1-ustundagi kvadrat santimetrlar sonini). To'qri bir ustundagi kvadrat santimetrlar soni to'qri to'rtburchakning enini santimetrlarda ifodolovchi songa teng.

Shundan keyin o'qituvchi chiziqlar bilan kvadrat santimetrlariga bo'lingan to'qri to'rtburchakni ko'rsatadi va to'qri to'rtburchakning bir qismini qoqoz varaqi bilan berkitib qo'yadi. Bu qolda kataklar sonini to'g'ridan-to'g'ri sanab bo'lmaydi.

Bu qolda to'qri to'rtburchakning yuzini qanday hisoblash mumkin? Ko'pchilik o'quvchilar buning uchun bir qatordagi kvadratlar sonini yoki satrlar soniga ko'paytirish kerakligini darqol tushunadilar: bunday yozuvlar paydo bo'ladi: $7 \times 3 = 21$ (kv.sm) $3 \times 7 = 21$ (kv.sm)

Nazorat topshiriqlari

1. To'qri to'rtburchak yuzasini hisoblash qoidasi bilan tanishtirishi qanday amalga oshiriladi?
2. O'quvchilar kuzatishlar va taqqoslashlar natijasida nimani aniqlashadi?
3. Mazkur mavzuni o'rganishda o'qituvchining vazifasi nimalardan iborat?

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. Aylanani teng uch bo'lakka bo'l va teng tomonli uchburchak yasa.
2. To'rtburchakni uchta kesma yordamida nechta ko'pburchakka bo'lish mumkin. {1. 162-165 bet.}

Mavzuga oid xulosalar.

O'quvchilarda geometrik figuralarni yasash, ularni almashtirish, qismlarga bo'lish va shu qismlardan yangi figuralar tuzish bilan ularning fazoviy tasavvurlari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayey.M.E. «Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi» T.: 2005.
2. Bikboeva N.U. «Boshlanqich sinflarda matematika o'qitish metodikasi» T.: 1996.
3. E.Yangiboeva, N.U.Bikboeva, Matematika-IV. T.: «O'qituvchi».2015

Mavzu № 14: "O'nlik" mavzusida arifmetik amallarni o'rganish.

MA'RUZA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni 60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot visual ma'ruza, aniq holatlarni yechushga asoslangan ma'ruza yordamida o'qitish texnologiyasi.
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Arifmetik amallarni o'rganish metodikasining umumiy masalalari. 2. "O'nlik" mavzusida arifmetik amallarni o'rganish. 3. Qo'shishning o'rin almashtirish xossasini o'qitish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga arifmetik amallarni o'rganish metodikasi haqida ma'lumot berish	
Pedagogik vazifalar: - Arifmetik amallarni o'rganish metodikasining umumiy masalalari umumiy masalalarini tushuntirib berish. - "O'nlik" mavzusida arifmetik amallarni o'rganish malakalarini shakllantirish. - Qo'shishning o'rin almashtirish xossasini o'qitish usullarini o'rgatish.	O'quv faoliyat natijalari: - Arifmetik amallarni o'rganish metodikasining umumiy masalalarini tushunadilar. - "O'nlik" mavzusida arifmetik amallarni o'rganish malakalari shakllanadi. - Qo'shishning o'rin almashtirish xossasini o'qitish usullarini o'rganadi.
Ta'lim usullari	Axborot visual ma'ruza, aniq holatlarni yechushga asoslangan ma'ruza yordamida o'qitish texnologiyasi.
Ta'limni shakllantirish shakli	Ommaviy va ghuruh bilan ishlash
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, proektor, qog'oz, marker, doska, bor
Ta'lim berish sharoiti	Jihozlangan auditoriya


Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich o'quv mashg'ulotiga	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, y'zib oladilar.

kirish (10 daqiqa)		
2 – bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	<p>2.1. Talabalarni e'tiborini jalb etish va bilim darajasini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi.</p> <p>1. O'quvchilarda og'zaki va yozma xisoblash ko'nikmalarini tarkib toptirishda qanday holatlarni ko'rib chiqiladi?</p> <p>2. Arifmetik amallarini o'rganishdan oldin bolalarning ongiga uning nimalarini etkazish kerak?</p> <p>2.2. Arifmetik amallarni metodikasining umumiy masalalari haqida tushuncha beriladi (1-ilova).</p> <p>2.3. «O'nlik» mavzusida arifmetik amallarni o'rganish metodikasi vizual materiallar asosida tushuntirib beriladi (2-3-ilova).</p> <p>2.4. Qo'ishishning o'rin almashtirish xossasini o'rgatish, talabalar bilan maslaxatli holda didaktik materiallar asosida tushuntirib beriladi.</p>	<p>2.1. Savollarga aniq javob beradilar.</p> <p>2.2. Jadvallar mazmunini muhokama qiladilar va qo'shish va ayrishning xadlari bilan tanishadilar</p> <p>2.3. «O'nlik» mavzusida arifmetik amallarni echish bosqichlari bilan tanishadilar, o'qituvchi oldida turgan asosiy maqsadlarni bilib oladilar</p> <p>2.4. Didaktik materiallar asosida talabalar tushunirib beradilar.</p>
3- bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzuga xulosa qiladi va faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiriladi.</p> <p>3.2. Uyga vazifa: Mavzuga oid ko'rzama, qo'lanmalar va tarqatma materiallar tayyorlaydilar.</p>	<p>3.1. Eshitadilar.</p> <p>3.2. Yozib oladilar</p>

1-ilova

Qo'shishning hadlari



$$3 + 2 = 5$$

3 va 2 ning yig'indisi 5 ga teng.

3 – qo‘shiluvchi.

2 – qo‘shiluvchi.

5 – yig‘indi.

$$3+2=$$

yig‘indi




$$6 + 2 = 8$$




$$8 - 2 = 6$$

Ayrishning hadlari



$$6 - 2 = 4$$



6 – kamayuvchi.

2 – ayriluvchi.

4 – ayrima.

$$6-2=$$

ayrima

Qo‘shish (ayrish)	Darslik sahifasi	Rasm
1 + 1	15	00

Son	Bu son tarkibini ko‘rsatish	Darslik sahifasi
4	~~~3 + 1	14
5	vvvvv 4 + 1	14

BLITS- SO‘ROV UCHUN SAVOLLAR

№	Savollar
1	10 ichida qo‘shish va ayirishni (katta, kichik, teng mubosnatlari) (taqqoslash elementlarini) o‘rganishda nimalarga etibor berish kerak..
2	Bo‘laklab, bittalab qo‘shish va ayirish (katta, kichik, teng mubosnatlari) usullaridan foydalanish o‘rganish natijasida qanday savolalarga qiynalmasdan javob bera oladigan bo‘ladi?
3	«O‘nlik» mavzusidaarifmetikamllarnio‘rganishda qanday bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallab olishlari kerak?

3-ilova

«INSERT» TEXNIKASI

№	«Oʻnlik» mavzusidaarifmetikamllarnioʻrganishda	V	+	-	?
I	«Oʻnlik» mavzusidaarifmetikamllarnioʻrganishdaquyidagilar bajariladi:				
1	10 ichida qoʻshish va ayrishni				
2	Katta, kichik, teng mubosanalari (taqqoslash elementlarini				
3	Birga qoʻshish va birni ayrish usullarini tushuntirish uchun raqamlash tamoyillaridan foydalanish.				
4	Boʻlaklab, bittalab qoʻshish va ayrish (katta, kichik, teng mubosanalari) usullaridan foydalanish.				
5	Ikki xonali qoʻshiluvchilarning oʻrinlarini almashtirib, qoʻshish usullaridin foydalanish				

Mavzu № 15: “Yuzlik” mavzusida arifmetik amallarni oʻrganish

MAʼRUZA TAʼLIM TEXNOLOGIYASI


Vaqt: 2 soat	Talabalar soni 60 nafar
Oʻquv mashgʻulotining shakli	Axborot visual maʼruza, aniq holatlarni yechishga asoslangan maʼruza yordamida oʻqitish texnologiyasi.
Oʻquv mashgʻulotining rejasi	1. Yuz ichida qoʻshish va ayirish. 2. Yuz ichida koʻpaytirish va boʻlish. 3. Jadval bilan koʻpaytirish va boʻlishni oʻrgatish. 4. Jadvaldan tashqari koʻpaytirish va boʻlish..
Oʻquv mashgʻulotining maqsadi: Talabalarga arifmetik amallarni oʻrganish metodikasi haqida maʼlumot berish	
Pedagogik vazifalar: -Yuz ichida qoʻshish va ayirish usullarini oʻrgatish -Yuz ichida koʻaytarish va boʻlish usullarini oʻrgatish -Jadval bilan koʻaytirish va boʻlishni oʻrgatish malakalarini shakllantirish -Jadvaldan tashqari koʻaytirish va boʻlish koʻnikmalarini xosil qilish	oʻquv faoliyat natijalari: -Yuz ichida qoʻshish va ayirish usullarini oʻrganadilar -Yuz ichida koʻaytarish va boʻlish usullarini oʻrganadilar va qoʻllay oladilar -Jadval bilan koʻaytirish va boʻlishni oʻrgatish malakalari shakllanadi -Jadvaldan tashqari koʻaytirish va boʻlish koʻnikmalari hosil boʻladi
Taʼlim usullari	Axborot visual maʼruza, aniq holatlarni yechushga asoslangan maʼruza yordamida oʻqitish texnologiyasi.
Taʼlimni shakllantirish shakli	Ommaviy va ghuruh bilan ishlash
Taʼlim vositalari	Maʼruza matni, proektor, qogʻoz, marker, doska, bor
Taʼlim berish sharoiti	Jihozlangan auditoriya

Maʼruzaning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Oʻqituvchi	Talaba
1-bosqich oʻquv mashgʻulotiga kirish (10 daqiq)	1.1. Mavzu, maqsad va maʼruza rejasini maʼlum qiladi. Oʻquv mashgʻulotlari rejasi bilan tanishtiradi. Mazkur mashgʻulot muammoli maʼruza tarzida oʻtishini eʼlon qiladi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.

<p>2 – bosqich. Asosiy (60 daqiqa)</p>	<p>2.1. Muammoni xal qilishdagi izlanuvchanli faoliyatida talabalar bilimni etarliligini aniqlash uchun tezkor savol-javob o‘tkazadi.</p> <p>1. Yig‘indiga sonni qo‘shish 2.2. Yig‘indidan sonni ayirish 2.3. . Songa yig‘indini qo‘shish. 2.4. Sondan yig‘indini ayirish.</p>	<p>2.1. Savolga javob beradilar.</p> <p>2.2. Asosiy muammoni yechish uchun fikrlarini bildiradilar</p> <p>2.3. “Yuzlik” mavzusida arifmetik amallar bilan tanishtirish «Tizimli-mantiqiy chizma texnikasi» asosida tasvirleydilar</p> <p>2.4. “Yuzlik” mavzusida arifmetik amallarni o‘rganish uchun bir nechta misollarni bajarib ko‘rsatadilar va vizual materialdan kerakli ma’lumotlarni yozib oladilar</p>
<p>3- bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzuga xulosa qiladi va faol ishtirok etgan talabalarni rag‘batlantiriladi.</p> <p>3.2. Uyga vazifa: Vaqt va yuzaga oid miavzularni dars ishlanmasini tuzib keladilar.</p>	<p>3.1. Eshitadilar.</p> <p>3.2. Yozib oladilar</p>

Vizual materiallar



MA'RUZA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni 60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual, baxs-munozara, klaster, «Tizimli-mantiqiy chizma» texnikalarini qo'llash.
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. "Minglik" mavzusida arifmetik amllarni o'rganish 2. "sonni qismlari bo'yicha (bitalab yoki guruhlab) qo'shish va ayirish" usuli . b) ikkita sonni yig'indining o'rin almashtirish xossasidan foydalanib qo'shish usuli.
<p>■ O'quv mashg'ulotining maqsadi: o'quvchilarni qo'shish va ayirish amallarining mazmuni bilan tanishtirish;</p> <p>2) hisoblash usullaridan o'quvchilarning ongli foydalanishlarini ta'minlash</p>	
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <p>1. Sonni yig'indiga qo'shish metodikasi bilan tanishtirish;</p> <p>2. Yig'indini songa qo'shish, sonni yig'indidan ayirish metodikasi bilan tanishtirish;</p> <p>3. Yig'indini ayirish xossalari bilan tanishtirish;</p> <p>4. Yig'indini yig'indiga qo'shish bilan tanishtirish;</p> <p>5. Yig'indidan ayirish xossalari bilan tanishtirish</p>	<p>O'quv faoliyat natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • "Minglik" ichida qo'shish va ayirishni (katta, kichik, teng mubosanatlari) o'rganish metodikasi bilan tanishadilar; • "Birga qo'shish va birni ayirish usullarini tushuntirish uchun raqamlash tamoyillaridan foydalanish ko'nikmasi hosil bo'ladi; • Bo'laklab, bitalab qo'shish va ayirish (katta, kichik, teng mubosanatlari) usullaridan foydalanish malakasi shakllanadi ; • Ikki xonali qo'shiluvchilarning o'rinlarini almashtirib, qo'shish usullaridin foydalanishga o'rganadilar;
Ta'lim usullari	Vizual, baxs-munozara, klaster, «Tizimli-mantiqiy chizma» texnikalarini qo'llash.
Ta'limni shakllantirish shakli	Ommaviy va ghuruh bilan ishlash
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, proektor, qog'oz, marker, doska, bor
Ta'lim berish sharoiti	Jihozlangan auditoriya

<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari: tinglovchilar biladilar:</i>
-----------------------------	---

•	•
<i>Tahlim usullari</i>	Kichik ma`ruza, tezkor so`rov, namoyish etish, suhbat, amaliy ish, "Zanjir" texnikasi, taqdimot
<i>Tahlim vositalari</i>	Tayanch matn, o`quv qo`llanmalar, ekspert topshiriqlar, slaydlar, flipchart, markerlar, skotch
<i>O`qitish shakllari</i>	Ommaviy, guruhli.
<i>O`qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo`ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Savol-javob

Ma`ruzaning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1-bosqich o`quv mashg`ulotiga kirish (10 daqiqa)	1.1. Mavzuning, uning maqsadi, o`quv mashg`ulotdan kutilayotgan natijalarni ma`lum qiladi. 1.2. Mazkur mashg`ulot baxs-munozara tarzida o`tilishini e`lon qiladi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar. 1.2. Baxs-munozara uchun guruhlarga ajraladilar.
2 – bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarning darsga tayyorgarlikini aniqlash uchun tezkor savol-javob o`tkazadi. 1.Sonlar yig`indisi nima 2.Sonlar ayirmasi kabi matematik ifodalarni o`zlashtiradi, qo`sh tengliklar, bir va ikki amalli ifodalarni qavslar yordamida yozishni o`rganadi, ikki xonali sonlarni o`nlik va birlik yordamida yoza oladilar.	2.1. Topshiriqlarni bajaradi, muammolarni juftlikda muxokama qiladi, savollarga javob beradi. 2.2. Jadvalni yozib oladilar. 2.3. O`zlarining fikrlarini to`liq bayon etadilar, B.B.B. jadvalidagi «Bilaman» bo`limini to`ldiradilar. 2.4. Talabalar «Insert» jadvalini to`ldiradilar. 2.5. Talabalar jadvalni yozib oladilar. 2.6. Talabalar kerakli ma`lumotlarni yozib oladilar
3- bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzuga xulosa qiladi va faol ishtirok etgan talabalarni rag`batlantiriladi. 3.2. Uyga vazifa: Darslikdagi mavzuga oid masala va	. 3.1. Eshitadilar. 3.2. Yozib oladilar

	misollarni yechib keladi.	.
--	---------------------------	---

BLIS- SO'ROV UCHUN SAVOLLAR

№	Savollar
1	10 ichida qo`shish va ayrishni (katta, kichik, teng mubosnatlari) (taqqoslash elementlarini) o`rganishda nimalarga etibor berish kerak..
2	Bo`laklab, bittalab qo`shish va ayrish (katta, kichik, teng mubosnatlari) usullaridan foydalanish o`rganish natijasida qanday savolalarga qiynalmasdan javob bera oladigan bo`ladi?
3	«O`nlik» mavzusidaarifmetikamllarnio`rganishda qanday bilim, malaka va ko`nikmalarni egallab olishlari kerak?

3-ilova

«INSERT» TEXNIKASI

№	«O`nlik» mavzusidaarifmetikamllarnio`rganishda	V	+	-	?
I	«O`nlik» mavzusidaarifmetikamllarnio`rganishdaquyidagilar bajariladi:				
1	10 ichida qo`shish va ayrishni				
2	Katta, kichik, teng mubosnatlari (taqqoslash elementlarini				
3	Birga qo`shish va birni ayrish usullarini tushuntirish uchun raqamlash tamoyillaridan foydalanish.				
4	Bo`laklab, bittalab qo`shish va ayrish (katta, kichik, teng mubosnatlari) usullaridan foydalanish.				
5	Ikki xonali qo`shiluvchilarning o`rinlarini almashtirib, qo`shish usullaridin foydalanish				

Mavzu № 17: "Ko'p xonali sonlar" mavzusida arifmetik amallarni o'rganish

MA'RUZA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni 60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Baxs-munozarali, vizual, ma'ruza, fikrlar xujmi, B.B.B., insert, texnikalarini qo'llagan holda
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. "Ko'p xonali sonlar" mavzusida arifmetik amallarni o'rganishtayyorgarlik davri. 2. Ko'p xonali sonlar" mavzusida arifmetik amallarni o'rganish .
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga . "Ko'p xonali sonlar" mavzusida. sonlarni nomerlash haqida ma'lumot berish	
Pedagogik vazifalar: - Tayyorgarlik davri, - "Ko'p xonali sonlar" mavzusida. arifmetik amallarni o'rganish . malakalarini shakllantirish. - . "Ko'p xonali sonlar" mavzusida mavzusida arifmetik amallarni o'rganish .metodikasini tushuntirish.	O'quv faoliyat natijalari: - Tayyorgarlik davri, "Ko'p xonali sonlar" mavzusida arifmetik amallarni o'rganadilar. - "Ko'p xonali sonlar" mavzusida arifmetik amallarni o'rganish.malakalari shakllanadi. - "Ko'p xonali sonlar" mavzusida arifmetik amallarni o'rganish.metodikasi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.
Ta'lim usullari	Baxs-munozarali, vizual, ma'ruza, fikrlar xujmi, B.B.B., insert, texnikalarini qo'llagan holda
Ta'limni shakllantirish shakli	Ommaviy va ghuruh bilan ishlash
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, proektor, qog'oz, marker, doska, bor
Ta'lim berish sharoiti	Jihozlangan auditoriya

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish	1.1. Darsning avvalida talabalarga ma'ruzalar matni va o'quv topshiriqlarini tarqatadi. 1.2. Mashg'ulot mavzusini eslatadi va	1.1. Eshitadilar va ma'ruza matnini oladilar.

(10 daqiqa)	kutayotgan natijani, darsni olib borish tartibini ma'lum qiladi.	1.2. Mavzuni va rejani yozib oladilar.
2 – bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	<p>2.1. Juftlikka ajralishga topshiriq beradi. Rejalar bo'lib beriladi va rejalarini yorit berish, muhokama qilish va savollarga javob berishni taklif etadi.</p> <p>2.2. Tayyorgarlik davri xaqida jadval asosida tushuntirish olib boradi</p> <p>2.3. Fikrlar xujmi texnikasidan foydlangan xolda quyidagi savollar beriladi:</p> <p>1. Nomerlashni bilish natijasida o'quvchilar nimalarga erishadilar?</p> <p>2. O'rganish natijasida qanday savollarga qiynalmasdan javob bera oladigan bo'ladi?</p> <p>3. "Ko'p xonali sonlar" mavzusida arifmetik amallarni o'rganish .qanday bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab olishlari kerak? Shu savollarni B.B.B. jadvali asosida tushuntirib beradilar (2-ilova).</p> <p>2.4. "Ko'p xonali sonlar" mavzusida arifmetik amallarni o'rganish «insert» texnikasi asosida baxs munozara tarzida yoritib beriladi (3-ilova).</p> <p>2.5. Vizual material asosida ming ichida sonlarni nomerlashni o'rganish metodikasi yoritib beriladi (4-ilova).</p>	<p>2.1. Topshiriqlarni bajaradi, muammolarni juftlikda muxokama qiladi, savollarga javob beradi.</p> <p>2.2. Jadvalni yozib oladilar.</p> <p>2.3. O'zlarining fikrlarini to'liq bayon etadilar, B.B.B. jadvalidagi «Bilaman» bo'limini to'ldiradilar.</p> <p>2.4. Talabalar «Insert» jadvalini to'ldiradilar.</p> <p>2.5. Talabalar jadvalni yozib oladilar.</p> <p>2.6. Talabalar kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.</p>
3- bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzuga xulosa qiladi va faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiriladi.</p> <p>3.2. Uyga vazifa: Darslikdagi mavzuga oid materiallar bilan tanishib chiqadilar.</p>	<p>3.1. Eshitadilar.</p> <p>3.2. Yozib oladilar</p>

1-ilova

BLIS- SO'ROV UCHUN SAVOLLAR

№	Savollar
1	Nomerlanishi bilish natijasida o'quvchilar nimalarga erishdilar?

2	O'rganish natijasida qanday savolalarga qiynalmasdan javob bera oladigan bo'ladi?
3	"Ko'p xonali sonlar" mavzusida arifmetik amallarni o'rganish .qanday bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab olishlari kerak?

3-ilova

«INSERT» TEXNIKASI

№	"Ko'p xonali sonlar" mavzusida sonlarni nomerlash	V	+	-	?
I	Ko'p xonali sonlarni nomerlashda quyidagilar bajariladi:				
1	Predmetlarni bittalab va g'ualab sanashga o'rgatish.				
2	"Ko'p xonali sonlar" mavzusida sonlarni o'qish va y'zish.				
3	O'ngdan chapga hisoblaganda birliklar, o'nliklar va yuzliklar qaysi o'rinda yozilishini o'rgatish.				
4	Birliklari yo'q xona qanday ko'rsatilishini. o'rgatish.				
5	Ko'p xonali sonlarni xona birliklari, xona soni, xona qo'shiluvchilari, yig'indisi tushunchalarini berish mumkin.				
II	Qanday misollar qaraladi				
1	Xonaqo'shuvchilari ga ajratishga keltiriladigan qo'shish va ayirish xoll aridoir misollar				
2	Bittalab qo'shib sanashga va ajratib sanashga doir misollar				
3	Taqqoslashga doir misollar				
II	Qanday ko'rinishdagi mashqlarni berish mumkin?				
I					
1	Oldin 1, 2, 3 xonali, keyin ko'p xonali sonlarni tartib bilan yozing.				
2	6 ta ixtiyoriy ko'p xonali son yozing va har birini 100 ta orttiring, 100 takamaytiring				
3	1 dan 9 gacha bo'lgan raqamlar yordamida ko'p xonali sonlarni yozing.				
IV	Ko'p xonali sonlarni nomerlashga o'tiladi.				
1	O'nliklarsanog'i				
2	Sonlarning birliklardan, o'nliklardan, yuzliklardan vamingliklardan hosil bo'lishi.				
3	Ko'p xonali sonlarni yozma nomerlash, yozish va o'qish.				

(V) – men bilaman;

(+) – Yangi axborot belgisi;


(-) – men bilganlarimga zid belgisi.

(?) – meni o'ylantirib qo'ydi


FIKRLAR XUJUMI TEXNIKASI. 1-ilova

№	Savollar	Javoblar (talabalar fikri)
1	Matematika kursining asosini	

	nimalar tashkil qiladi?	
2	Butun nomanfiy sonlarni ogʻzaki nomerlash bilan oʻquvchilarga nimalar oʻrgatiladi?	
3	YOzmi nomerlash orqalichi?	
4	Oʻnlik,yuzlik,minglik kontsentrada nomerlashga oʻrgatishda siz qanday bosqichlardan foydalana edingiz?	
5	Son tushunchasini bolada qanday shakllantirish mumukin?	



Vizual materiallar



Mavzu № 18: Masalalar ustida ishlashning umumiy vazifalari

Asosiy savollar

1. Masala deb nimaga aytiladi.

2. Masalaning turlari

Masalalarni yechaolish qator o‘zaroaloqador va uzviy bog‘langan qator xususiy (alohida) ko‘nikmalarni o‘z ichigaoladiki, ularni quyidagicha ta’kidlab o‘tish mumkin;

1. Masalani o‘qib chiqib, uni tushunish, ya’ni xar bir iboraning ma’nosigaetib, unda tasvir etilgan xolatni ko‘z o‘ngida gavdalantiraolish;

2. Masaladagi shart va savol. Ma’lum va noma’lum narsalarni ajratib ola bilish;

3. Masaladagi shart va savol, berilgan va izlanayotgan ma’lumotlar o‘rtasidagi aloqani aniqlay olish, ya’ni mashq matnini taxlil eta bilish va uning natijasi o‘laroq, mashqni yechish uchun arifmetik amallarni tanlab olish;

4. Masalaning yechimi va javobini yozaolish.

Bu ko‘nikmalar muntazam va maqsadli amaliyot jarayonida quyidagi bosqichlarda shakllanadi.

1. Tayyorgarlik ishlari .

2. Masala matnini tushuntirish ishlari.

3. Masalani tahlil etish, uni yechish yo‘lini izlash va yechish rejasini tuzish.

4. Yechim va javobini yozish.

5. Masala echilgandan so‘ng uning ustida ishlash.

Mashg‘ulotlarning har bir bosqichida o‘qituvchi masalaning mazmuni, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, mashg‘ulotning didaktik va tarbiyaviy hamda o‘zga qator omillarni nazarda tutib, yechishning turli xil metodik uslublaridan foydalanadi. Masalani yechish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha metodik uslublarga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Masala bo‘yicha o‘quvchi bilan yuzma-yuz suhbat,

2. Masalani ko‘rgazmali vositalar yordamida tushuntirish,

3. Masalalarni taqqoslash;

4. Masalani o‘zgartirish, o‘zgacha shaklga kiritish;

5. Masalalar shartlarida biror ta’limot yetishmovchi yoki ortiqcha holatidagi matnini tahlil etish;

6. Masalalarni o‘quvchilar tomonidan tuzilishi;

7. Masalani boshqa usul bilan yechish;

8. Masalaning yechimini tekshirish;

1. Masala bo‘yicha differensial (har bir sharoit yoki o‘quvchiga moslab) ish olib borish va boshqalar.

Bu bosqichda “masala” iborasini ishlatgan ma’qul. Tayyorgarlik davridagi ishdan maqsad – bolalarga real hayotda yuz beradigan holatlarni matematik simvollar tiliga o‘tkazish imkoniyatini anglatishdan iboratdir. Bu holatda rasmlar yordamida masalalar tuzilishining zarurati yo‘q. Yaxshisi kichik hikoya shaklida bayon etilgan holatni bolalar matematik belgilar bilan daftarga yozib olish imkoniyati bo‘lsin. Hikoya uchun $+$ $=$ yoki $-$ $=$. Sxematik shakldagi

yozuvlar ko'rsatkich (yo'llanma) bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu shakllar ichiga bolalar tegishli sujetdagi raqamlar (sonlarni) qo'yadilar (yozadilar). Masalan, «ikki tasvir keltirilgan (36-rasm) – mana bu rasm bo'yicha men tuzgan hikoyaga diqqat qilinglar».

Sodda va murakkab masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rejalashtirishning foydali vositasi bo'lib, odatda, o'z ichiga “yashirin informatsiyani” oladi. Bu informatsiyani qidirish, masala yechuvchidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o'rgatish matematika o'qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Masalalar yechish orqali o'quvchilarda ushbu malakalar tarkib topmog'i lozim.

1. Masalani tinglashni o'rganish va uni mustaqil o'qiy olish. Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. O'quvchilar hali o'qish malakasiga ega bo'lmagan dastlabki vaqtlarda ularni o'qituvchi o'qib beradigan masala matnini tinglashga, shartning muhim elementlarini tovush chiqarib ajratishga o'rgatish kerak. Shundan keyin masala shartini yaxshiroq o'zlashtirish maqsadida, har bir o'quvchi masala matnini tinglabgina qolmay, balki masalani mustaqil o'qib chiqishi zarur;

Masala matni o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan bir-ikki marta o'qiladi, ammo bunda bolalarni masala matnini bir marta o'qishdayoq uning mazmunini tushunib olishga asta-sekin o'rgata borish kerak.

2. Masalani dastlabki analiz qilish (ma'lumni noma'lumdan ajarataolish malakasi). Ma'lumni noma'lum-dan, muhimni nomuhimdan ajratish, masalada berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog'lanishni ochish - bu eng muhim malakalardan biri. Bunday malakaga ega bo'lmay turib, masalalarni mustaqil yechishga o'rganib bo'lmaydi.

3. Masalani qisqa yozish malakasi. Masala matni ustida og'zaki ishlagandan keyin uning mazmunini matematik atamalar tiliga o'tkazish va qisqa yozuv shaklidagi matematik strukturasi belgilash kerak (rasmlar, chizmalar, sxemalar, jadvallar).

Shuni nazarda tutish kerakki, barcha hollarda ham qisqa yozuvni bajarish bilan bir vaqtda masala shartining tahlili ham amalga oshiriladi. Aslini aytganda, qisqa yozuvning vazifasi shundan iborat. Haqiqatan ham masala shartining qisqa yozuvi o'quvchilar xotirasiga tayanch bo'lib, son ma'lumotlarni tushunish va ajratish imkonini beradi, shu bilan birga ularning ratsional yozilishi masalada nima berilgan va nimani izlash kerakligini bayoniy tushuntirish imkonini yaratadi.

4. Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so'ngra yechish rejasini tuzish malakasi. Oldin sodda masalani yechishda amal tanlash masalasini qarab chiqishga to'xtalamiz. Bu malaka birinchi sinfdan boshlab tarkib topa boshlaydi, ikkinchi va uchinchi o'quv yillarida yanada rivoj toptiriladi, ya'ni ba'zi tanish masalalarga nisbatan amal tanlash ishini bajarish asosi o'zgartiriladi.

5. Yechimni bajarish, uni o'qituvchi talabiga mos qilib rasmiylashtirish va masala savoliga javob berish malakasi. Sodda masalalardan boshlaymiz.

Soddamasalani arifmetik usul bilan ham, algebraik usul bilan ham yechish mumkin. Bu o‘rinda masalalarni arifmetik usul bilan yechish haqidagina so‘z boradi, masalani algebraik usulda yechish keyinroq alohida qaraladi.

6. Masala yechimini tekshiraolish malakasi. Masala yechimining tekshirish quyidagi usullarda qo‘llaniladi:

- a) olingan javob bilan masala sharti o‘rtasida moslik o‘rnatish;
- b) teskari masala tuzish va yechish;
- v) masalani boshqa usullar bilan yechish;
- g) javobning chegaralarini aniqlash (javobni chamalash);
- d) grafik tekshirish.

7. Masalalar ustida ishlashda ma’lum sistemani belgilash va uni joriy qilish malakasi.

Masalalar ustida ishlash rejasi	
.	Masalani o‘qib chiqing, masalada nima haqida gap borayotganini o‘zing tasavvur qiling
.	Masalada nima ma’lum va nimani topish kerakligini aniqlab oling. Agar masala matnini tushunib olish qiyin bo‘lsa, uni qisqa yozing (yoki masalaga oid chizma tayyorlang).
.	Qisqa yozuv bo‘yicha har bir son nimani ko‘rsatishini tushuntiring va masala savolini takrorlang
.	O‘ylab ko‘ring, masala savoliga birdaniga javob berish mumkinmi, agar mumkin bo‘lmasa, nega? Oldin nimani, keyin nimani bilish mumkin? Masalani yechish rejasini tuzing.
.	Yechishni bajaring va javobini yozing.
.	O‘z yechimingizning to‘g‘riligini tekshirib ko‘ring.
.	O‘zingizga qiziqarli savollar bering va ularga javob bering.

Bunda ilg‘or o‘qituvchilar ishlarida o‘quvchilarni mustaqil masalalar yechishga o‘rgatishning bir qancha bosqichini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1-bosqich. Masala o‘qituvchining yo‘naltiruvchi savollari bo‘yicha yechiladi va bu yechish doskada va daftarlarda bir vaqtda bajariladi.

2-bosqich. Masala sharti o‘qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va yechish rejasi tuziladi. Yechishning o‘zi doskaga yozilmaydi, og‘zaki aytilmaydi ham, o‘quvchilar esa uni mustaqil bajaradilar.

3-bosqich. O‘qituvchi rahbarligida masala faqat analiz qilinadi. Yechish rejasi va yechishning o‘zini o‘quvchilar mustaqil bajarishadi.

4-bosqich. Masalani o‘qituvchining hech bir yordamisiz mustaqil yechish.

O‘quvchilarda masalalar yechish malakasini tarkib toptirishda ijodiy xarakterdagi mashqlarning ham muhim ahamiyati bor. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Masalalarni har xil usullar bilan yechish.
2. Muammoli xarakterdagi masalalarni yechish.
3. Masalalar tuzish va ularni almashtirishga doir topshiriqlar.

Oxirida shuni ta'kidlab o'tamizki, matematik masala ustida ishlash jarayonida shunga intilish kerakki, har bir masala bolalar uchun haqiqiy bilim manbai bo'lib qolsin. Buning uchun o'quvchining diqqatini masala shartidan tafakkurini va bilish qobiliyatlarini rivojlantiradigan darajada ko'proq ma'lumotlarni olishga yo'naltirish kerak.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar

1. Matematik masalalar yechishning o'rni va ahamiyati nimadan iborat?
2. O'quvchilar masalalar yechishda qanday malakalarni egallashlari kerak?
3. Masalalar yechish bosqichlarini tahlil qiling.

Mavzu № 19: O`nlik mavzusida masalalar ustida ishlash.

Bu xil masalalar ustida ishlash matematikadan birinchi darslardayoq boshlanadi va boshida amaliy mashqlar xarakterida bo`ladi, bu mashqlarning bajarilishida bolalar atrof-borliqdagi real predmetlar bilan ish ko`rib, to`plamlar ustida, bu to`plamlarni birlashtirishga yoki berilgan to`plamdan uning qismini ajratishga oid amallarni bajarishadi. Bular ushbu ko`rinishdagi mashqlar: “3 ta doiracha qo`ying. Ularning yoniga bitta doirachani suring. Doiracha nechta bo`ladi?”, “5 ta cho`p qo`ying. Ikkita cho`pni nari suring. Nechta cho`p qoldi?” va hokazo. Bolalar predmetlar bilan bajariladigan amaliy ishlardan sekin-asta rasmlarda tasvirlangan predmetlar to`plamlari ustida ish ko`rishga o`tkaziladi.

Masalaning o`zi bilan va uning tarkibiy elementlari bilan bolalarni tanishtirish o`qitish jarayonidagi navbatdagi eng muhim va juda mas`uliyatli bosqichdir. Keyingi darslarda masalani dastlabki analiz qilishda o`quvchilar bilan savol-javob asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

2.Sonni bir necha birlik orttirish va kamaytirishga oid masalalar. Sonni bir necha birlik orttirish (kamaytirish)ga doir masalalar yig`indi va qoldiqni topishga doir masalalardan keyinroq kiritiladi. Bu xildagi sodda masalalarni qarashga tayyorgarlik ularni kiritishdan ancha oldin boshlanadi. Bu ish ushbu munosabatlarni o`rnatishdan iborat: agar predmet-larning berilgan gruppasiga bir yoki bir nechta predmet qo`shilsa, bu dastlabki predmetlar sonini orttiradi, agar ayrilsa, dastlabki predmetlar sonini kamaytiradi.

Ayirmali taqqoslashga doir masalalar. Bu xil masalalar bilan tanishtirish ishini avval sanoq materiallaridan foydalanib amalga oshirish tavsiya qilinadi. O`quvchilar ishni mustaqil bajarsalar ishning natijasini tekshirish qulay bo`ladi. Mustaqil ishlarni samarali tashkil qilishga amaliy ishlar o`tkazishga yordam beradi. Masalan, o`qituvchi o`quvchilarga 6 ta katakli bir satr (yoki ustun) chizishni va uning yoniga boshqa 4 katakli satr (yoki ustun) chizishni taklif qiladi.

Masalani yechishda (shuningdek, didaktik materiallar va rasmlar bilan ishlashda) o`quvchilar ayirmani (qoldiqni) to`g`ridan-to`g`ri predmetlarni sanash yo`li bilan topadilar., chunki rasm predmetlar sonini akslantirish bilan amalda yechimni chiqarib qo`yadi. Quyidagi masala berilgan bo`lsin. ”Bir qutida 10 ta, ikkichi qutida 6 ta qalam bor. Birinchi qutida ikkinchi qutiga qaraganda qancha ortiq qalam bor?”.

I – 10 ta q.

II – 6 ta q.

Birinchi qutida ikkinchi qutidagidan qancha ortiq qalam bor?.

Yechish: $10 - 6 = 4$

Mavzu № 20: Yangi xil murakkab masalalar ustida ishlash.

a) Yig'indi va qo'shiluvchilardan biri ma'lum bo'lib, qo'shiluvchilarni taqqoslashni talab qiladigan masalalar.

Shuni ta'kidlab o'tamizki, bu xildagi har qanday masa-laning ham yechimini ifoda yordamida tasvirlab bo'lavermaydi. Masalaning bosh savolini qo'yishda biz yechimini alohida amallar bilan yozilishiga murojaat qilishimizga to'g'ri keladi.

Aytilgan fikrni tasdiqlash uchun bunday masalani qaraymiz:

“Bog'da 236 tup daraxt ekishdi, buning 127 tupi olma, qolganlari olcha. Qaysi daraxtlardan ko'p va qancha ko'p ekishgan?”

Masalani tahlil qilib o'quvchilar 236–127 (tup) olcha ekish-ganini aniqlashadi. Shundan keyin o'quvchilar qiyinchilikka uchraydilar: masalaning bosh savoli shunday ifodalanganki, (236-127) ayirmaning qiymatini topmay turib, 127 sonidan 236 va 127 sonlarining ayirmasini ayirish kerak yoki kerakmasligini bilish qiyin va aksincha. Shu sababli yechimni amallarni bajarish bilan yozish kerak. Yechimni amallar bo'yicha izohlab yozish ushbu ko'rinishda bo'ladi:

1) $236-127=109$ – bog' ekan olchalar soni.

2) $127-109=18$ – olchalarga qaraganda ortiq ekilgan olmalar soni.

b) $axb + c$, $a+b \times s$ va h.k. ko'rinishdagi masalalar. (Ko'paytirish va bo'lishga oid sodda masalalarni o'z ichiga olgan masalalar.) Bunday masalar bilan II sinf o'quvchilari ko'paytirish jadvalini tuzish va o'rganishga tayyorlanish davrida birinchi marta tanishadilar.

Birinchi bunday masalalarni rasmlar bilan illyustrasiyalash foydalidir. Masalan, ushbu masalani qaraymiz: “Bali yozda kapalaklardan kolleksiya yig'di: uchta qutida 6 tadan, bitta qutida 4 ta kapalak bo'ldi. Balining qancha kapalagi bo'lgan?” Darslikda bu masalaga doir predmet rasm berilgan, ammo buni, qutini to'g'ri to'rtburchak, kapalakni uchburchak bilan tasvirlab, sxematik rasmsga aylantirish mumkin.

Keyingi masala shartini qisqacha bunday yozish mumkin:

Qirqib olishdi – 2 xaridorga 8 m dan.

Qoldi – 7 m.

Bor edi – ?

yoki bunday:

Qirqib olishdi – 2 xaridorga 8 m dan

Qoldi – 7 m.

Chizma yoki qisqa yozuv javobni qidirishga yordam beradi:

$$8 \times 2 + 7 = 16 + 7 = 23 \text{ (m).}$$

Javob: to'pda 23 m chit bo'lgan.

v) Ikki ko'paytmaning yig'indisini (ayirmasini); ikki bo'linmaning ayirmasini topishga doir masalalar.

“Quruvchilar har birida 6 tadan xonadon bo'lgan 8 ta uy va har birida 5 tadan xonadon bo'lgan 7 ta uy qurishdi. Bu uylarda hammasi bo'lib qancha kvartira bo'lgan?”

Masalaning shartini qisqacha bunday yozish mumkin:

8 ta uy 6 tadan xon.

7 ta uy 5 tadan xon. ?

Bunday masalalarni ifoda tuzib yechish maqsadga muvofiqdir:

$$6x8+5x7=83 \text{ (kv.)}$$

Javob: 83 ta xonadon.

“Minglik” mavzusida o‘quvchilar yangi masalalarga duch kelmaydilar. Bunda ham “Yuzlik” mavzusidagi masalalar qaraladi. Faqat bundagi farq shundan iboratki, ushbu holda bir xonali, ikki xonali sonlar bilangina emas, balki uch xonali sonlar bilan ham ish ko‘riladi. Shunday masalalardan bittasini ko‘rib chiqish bilan chegaralanamiz: “Bir bola uchta kitob o‘qidi. Ularning hammasi 653 betdan iborat. Birinchi kitob 256 betli, ikkinchisi undan 58 bet kam. Uchinchi kitob necha betli?”

Masala shartini bunday yozamiz:

$$653 \text{ bet} \quad \left\{ \begin{array}{l} \text{I k.} - 256 \text{ bet} \\ \text{I k.} - ?, 58 \text{ bet kam} \\ \text{III k.} - ? \end{array} \right.$$

Yechilishi :

1) 256	2) + 256	3) _ 653
<u>58</u>	<u>198</u>	<u>454</u>
198	454	199
(bet)	(bet)	(bet)

Javob: uchinchi kitob 199 betli.

d) Nisbat usuli bilan yechiladigan birlikka keltirishga doir masalalar.

Sodda uchlik qoidaga doir masalalar yechishda nisbatlar usulining mohiyati shundan iboratki, oldin bir son ikkinchisida necha marta borligini (yoki bir son ikkinchisidan necha marta kattaligini) bilish kerak, so‘ngra ikkinchi miqdorning ma’lum kattaligini shuncha marta orttirish yoki kamaytirish kerak. Shuni ta’kidlab o‘tamizki, qaralayotgan masalalarni bu usul bilan faqat bitta miqdorning ikkita qiymatini ifodalovchi sonlar bir-biriga karrali bo‘lgandagina yechish mumkin.

Nisbatlar usuli bilan yechiladigan sodda uchlik qoidaga doir masalalarni yechishga o‘quvchilarni tayyorlash uchun ularga taxminan bunday mashqlarni taklif qilish foydali: “12 l da necha marta 4 l dan bor?”, “30 metrda necha marta 5 m dan bor?”, “36 soni 12 sonidan necha marta katta?” va hokazo.

Tayyorgarlik mashqlarini bajarganlaridan keyin o‘quvchilarga sodda uchlik qoidaga doir bunday masalani taklif qilish mumkin: “Ikkita bir xil kulcha 12 tiyin turadi. Shunday 6 ta kulcha uchun qancha to‘lash kerak?” Oldin masala o‘quvchilarga tanish usul - birlikka keltirish usuli bilan yechiladi: $12 : 2 * 6 = 36$ (tiy). Shundan keyin o‘qituvchi bolalarga bunday masalalarni yechishning yangi usuli bilan tanishishlarini aytadi. O‘quvchilarni yangi usulni tushunishlarini osonlashtirish uchun ko‘rsatmalilikdan foydalanish kerak. Bolalarning bir miqdorning qiymati qancha marta orttirilsa, ikkinchi miqdorning qiymati shuncha marta orttirilishi kerakligini aniqlashga yordam beradi. Jumladan, qaralayotgan masalada 2 ta kulchaga 12 tiyin to‘langani ma’lum. Demak, 6 ta kulcha uchun 2 ta

kulchaga qaraganda 6 soni 2 sonidan necha marta katta bo'lsa, shuncha marta ortiq to'lash kerak.

Masalaning yechilishi ushbu ko'rinishda bo'ladi:

$$12 * (6 : 2) = 12 * 3 = 36 \text{ (tiy.)}$$

Masala yechishning yangi usuli (munosabatlar usuli) oldin tanish bo'lgan usul bilan taqqoslanadi va bu usullarning farqi aniqlanadi.

e) Proporsional bo'lishga doir masalalar. O'quvchilarning proporsional bo'lishga doir masalalarning yechilish usullari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida bundan keyin ikki xil masalaning yechilishini taqqoslash kerak. Shu maqsadda mustaqil yechish uchun qo'yidagi masalalarni berish mumkin:

1) Ikki maktabga bir xil bahoda yozuvchilar portretlari olindi. Bir maktabga 6 ta portret, ikkinchi maktabga 8 ta portret olindi. Hamma portret uchun 70 so'm to'landi. Har qaysi maktab qancha pul to'lashi kerak?

2) Ikki maktabga bir xil bahoda 14 ta yozuvchilar portreti olindi: Bir maktab 30 so'm, ikkinchi maktab 40 so'm to'ladi. Har qaysi maktabga nechta portret olingan?

z) Ikki ayirmaga ko'ra noma'lumni topishga doir masalalar. Bu masalalarni muvaffaqiyatli yechish ko'p jihatdan o'quvchilarning masaladagi mavjud muhim xususiyatlarni chuqur tushunishlariga bog'liq. Bu xususiyatlar shundan iboratki, masalada ma'lum bo'lgan bir miqdorning qiymatlari ayirmasi ikkinchi miqdorning qiymatlari ayirmasiga to'g'ri kelishi kerak, keyingi ayirma masalada oshkor holda berilmaydi, bu ayirmani topish bundan keyingi yechimni izlashni ancha yengillashtiradi.

Noma'lum ikki ayirma bo'yicha topishga doir masalalarni yechishga kirishishdan oldin tayyorlash mashqlarini, masalan, bunday masalalarni berish mumkin: bir to'pdagi gazmol ikkinchi to'pdagidan 4 m ortiq bo'lib, undan 24 so'm ortiq turadi. 1 metr gazmol qancha turadi?

Bunday savol qo'yiladi: nega birinchi to'p gazmol ikkinchi to'p gazmoldan qimmat? Jami pulidagi 24 so'm farq uzunliklardagi 4 m farqqa to'g'ri keladi, demak, 4 m gazmol 24 so'm turadi, deb xulosa qilinadi. Bundan masalaning yechilishi ham kelib chiqadi: $24:4=6$ (so'm).

Javob: 1 m gazmol 6 so'm turadi.

k) Harakatga doir masalalar. "Harakat"ga doir masala deb, tarkibiga harakatni xarakterlovchi miqdorlar, ya'ni tezlik, vaqt va masofa kirgan masalalarni atash mumkin.

"Harakat" so'zi har xil tipdagi masalarda: oddiy uchlik qoidaga doir masalalarda, ikki ayirma bo'yicha noma'lumni topishga doir masalalarda va boshqa xil masalalarda uchraydi. Ammo bu masalalar harakatga doir masalalar turiga kirmaydi.

Matematika o'qitish metodikasida harakatga doir masalalar jumlasiga harakatni xarakterlovchi uchta miqdor-tezlik, vaqt va masofa orasidagi bog'lanishlarni topishga doir masalalar kiritiladi, bu masalalarda aytilgan miqdorlar yo'naltirilgan miqdorlar sifatida qatnashadi. Xususan, quyidagi masalalar harakatga doir masalalar jumlasiga kiradi:

- a) bir jism harakatiga doir hamma sodda va murakkab masalalar (bu masalalarda miqdorlardan biri - tezlik, vaqt yoki masofa-qolgan ikkitasiga bog'liq holda qatnashadi);
- b) uchrashma harakatga doir masalalar;
- v) ikki jismning qarama-qarshi yo'nalishdagi harakatlariga doir masalalar;
- g) ikki jismning bir yo'nalishdagi harakatiga doir masalalar (masalalarning bu turi boshlang'ich maktabda qaralmaydi).

Mavzu № 21: Ma'lum masofa va harakat vaqti bo'yicha tezlikni topishga doir masalalar.

Bu xildagi masalalar ustida ishlashning mohiyatini ushbu masalani yechish misolida ochib beramiz:

“Piyoda kishi har soatda baravardan yo'l bosib, 3 soatda 12 km yurgani ma'lum bo'lsa, u qanday tezlik bilan yurgan?”

O'quvchilar o'qituvchi yordamida masala shartini tahlil qilish bilan bir vaqtda masalani jadvalga yozishni o'rganadilar.

– Masalada nima ma'lum? (Piyoda kishi yo'lda 3 soat bo'lgani.)

– 3 soat - tushuntiradi o'qituvchi - bu piyoda kishining yurgan vaqti.

– Masalada yana nima ma'lum? (Piyoda kishi 3 soatda 12 km o'tgani.)

– 12 km – piyoda o'tgan yo'l yoki masofa.

– Masalada nimani bilish talab qilinadi? (Piyoda bir soatda qancha yo'l o'tgani.)

Masalani analiz qilish jarayonida o'qituvchi masalaning sharti jadvalga qanday yozilishini ko'rsatadi:

Tezlik	Baqt	Maso fa
?	3 soat	12 km

Bunday xulosa chiqariladi: agar masofa va harakat vaqti ma'lum bo'lsa, tezlikni topish mumkin. *Tezlik masofaning vaqtga bo'linganiga teng.*

m) Tezlik va harakat vaqtiga ko'ra masofani topishga doir masalalar.

Misol uchun bunday masalaning yechilishini qaraymiz: “Piyoda kishi soatiga 6 km tezlik bilan 3 soat yo'lda bo'ldi. Piyoda kishi qancha masofa o'tgan?”

Masala shartini chizma yordamida ham hal qilish mumkin.

Shunga o'xshash bir qator masalalarni yechish natijasida o'quvchilar bunday xulosaga kelishadi: agar tezlik va harakat vaqti ma'lum bo'lsa, u holda masofani topish mumkin. Masofa tezlik bilan vaqtning ko'paytmasiga teng.

Ma'lum tezlik va masofaga ko'ra harakat vaqtini topishga doir bir qator masalalarni yuqoridagidek qarab bunday xulosaga keladilar: agar tezlik va masofa ma'lum bo'lsa, u holda harakat vaqtini topish mumkin. Vaqt masofaning tezlikka bo'linganiga teng.

n) Uchrashmaharakatgadoirmasalalar.

Uchrashma harakatga doir masalalar yechish uchun avval og'zaki yechiladigan quyidagi tayyorlash masalalari qarab chiqiladi, bunda ko'rsatmalilikdan foydalaniladi.

Boshlang'ich sinflarda asosan uchrashma harakatga doir shunday masalalar beriladiki, ularda jismlar bir vaqtda harakatlanadi va bir vaqtda to'xtadi. Bu masalalarda to'rtta o'zaro bog'liq miqdorlar ustida so'z boradi: bunda; s – harakat qilayotgan jismlarning tezliklari – harakat vaqti. Bundan ushbu guruhga to'rt xil masala kiradi, degan xulosa chiqadi. Ammo birinchi va ikkinchi jismlarning

tezliklarini topish bir xilda hal qilishni talab qiladi, shu sababli masalalarning bu guruhga uch xil masalani kiritish qabul qilingan,

1. Berilgan jismlarning tezliklari va harakat vaqtiga ko'ra masofani topishga doir masalalar.

2. Har qaysi jismning ma'lum tezligi va masofaga ko'ra vaqtni topishga doir masalalar.

3. Harakat qilayotgan jismlardan birining tezligi, berilgan masofa, harakat vaqti va jismlardan ikkinchisining tezligi, masofa, harakat vaqti va jismlardan ikkinchisining tezligini topishga doir masalalar.

Berilgan masalaga teskari masala tuzib yechish

Har bir masala 2 qismdan iborat bo'ladi: 1) shart. 2) savol

Ma'lum bo'lgan narsalar «shart» deyiladi. Hisoblab topiladigan qismi «savol» deyiladi. Yana «yechim» va «javob» degan qismlar ham bor, uni quyidagi masalani yechish orqali o'rganamiz.

Masalani turli usullarda yechish

Berilgan masalaning to'g'ri echilganligini bilish uchun unga teskari masala tuzib yechish uchun, yoki masalani murakkablashtirish yoki boshqacha yechish usullarini qo'llash uchun masala mazmunida turli o'zgarishlar qilish ham mumkin?

Nazorat uchun savollar

1. "Yuzlik", "Ko'p xonali sonlar" mavzusidagi murakkab masalalar turlarini ayting.

2. "Noma'lumni ikki ayirmaga ko'ra topishga doir masalalar yechishga o'rgatish" ga doir darsni ishlab chiqing.

3. Masalalar yechishda yo'l qo'yiladigan xatoliklar oldini olishga doir tayyorgarlik ishlari qismini bajaring

Mavzu № 22: Minglik mavzusida masalalar ustida ishlash.

“Minglik” mavzusida o‘quvchilar yangi masalalarga duch kelmaydilar. Bunda ham “Yuzlik” mavzusidagi masalalar qaraladi. Faqat bundagi farq shundan iboratki, ushbu holda bir xonali, ikki xonali sonlar bilangina emas, balki uch xonali sonlar bilan ham ish ko‘riladi. Shunday masalalardan bittasini ko‘rib chiqish bilan chegaralanamiz: “Bir bola uchta kitob o‘qidi. Ularning hammasi 653 betdan iborat. Birinchi kitob 256 betli, ikkinchisi undan 58 bet kam. Uchinchi kitob necha betli?”

Masala shartini bunday yozamiz:

$$653\text{bet} \quad \left\{ \begin{array}{l} \text{I k.} - 256 \text{ bet} \\ \text{I k.} - ?, 58 \text{ bet kam} \\ \text{III k.} - ? \end{array} \right.$$

Yechilishi :

$$\begin{array}{r} 1) \\ \begin{array}{r} \\ - 256 \\ \hline 58 \\ 198 \end{array} \end{array} \quad \begin{array}{r} 2) \\ \begin{array}{r} \\ + 256 \\ \hline 198 \\ 454 \end{array} \end{array} \quad \begin{array}{r} 3) \\ \begin{array}{r} \\ - 653 \\ \hline 454 \\ 199 \end{array} \end{array}$$

Mavzu № 23: Proporsional miqdorli masalar ustida ishlash .

I bosqich	<p>Darsning maqsadi: a) Talabalarni minglik mavzusidamasalalar echish metodikasi bilan tanishtirish; b) Minglik mavzusidamasalalar echish jarayonida o'quvchilarda hozirjavoblik, zukkolik, topqirlik fazilatlarini tarbiyalash; v) Hayotiy masalalar echish orqali o'quvchilarni faolligini oshirish;</p> <p>O'qituvchining vazifasi: Minglik mavzusidamasalalar haqida tushuncha berish. Minglik mavzusidamasalalarni turlarini ajratish va ularni echish usulini ongli ravishda o'zlashtirishlarini ta'minlash.</p> <p style="text-align: center;">Identiv o'quv maqsadlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Minglik mavzusidamasalalarning turlari bilan tanishadilar; • Minglik mavzusidamasalalarni echish uslubini o'rganadilar; • Minglik mavzusidamasala turlarini taqqoslaydilar; <p style="text-align: center;">Mavzuga oidmuammolar:</p> <p>Turli xil harakat yo'nalishidagi masalalarni echish uslubi bir xilmi? Bu usullarni o'xshashlik, umumiylik va farqli tomonlari nimada?</p>	<p>O'qituvchi</p> <p>O'qituvchi</p> <p>O'qituvchi</p> <p>O'qituvchi</p>
II bosqich	<p>Asosiy tushunchalar: masala, matn, son, ma'lumot, noma'lum, echim.</p> <p>Dars shakli: aralash</p> <p>Darsning jihozlari: a) darslik, daftar: b) jadval, sxema, grafik; v) didaktik materiallar; g) geometrik figuralar.</p> <p>Metod va usullar: darslik bilan ishlash, daftar bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	<p>O'qituvchi</p>
III bosqich	<p style="text-align: center;">Guruhda ishlash</p> <ul style="list-style-type: none"> • Minglik mavzusidamasalalarni har bir turga doir masalalar echiladi; • Minglik mavzusidamasalalar javobini tekshirish usuli aniqlanadi; • Minglik mavzusidamasalalar turlarini echishning bir-biridan farqli, o'xshashlik va umumiylik tomonlari taqqoslanadi; • Hayotdan olingan minglik mavzusidamasalalar orqali o'quvchilarning bilimlari shakllantiriladi; • O'quvchilarga yo'l qoidalari haqida ko'rsatma beriladi. 	<p>O'qituvchi</p>

IV bosqich	Mustahkamlash va baholash usullari <ul style="list-style-type: none"> • Minglik deganda nimani tushunasiz? • Minglikda qatnashuvchi miqdorlarni ayting. • Minglik mavzusigadoir masalalar necha turga bo'linadi? • Minglik mavzusigadoir masalalar javobini tekshirish qanday usulda olib boriladi? • Berilgan masalaga nechta teskari masala tuzish mumkinligini qanday bilish mumkin? • “Kim chaqqon” o'yini nima maqsadda o'tkaziladi? • “Estafeta” o'yinidan maqsad nima? 	O'qituvchi
V bosqich	Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish Maqsad va vazifalarning bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi, takliflar aytiladi va mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi

I bosqich	<p>Darsning maqsadi:</p> <p>a) Talabalarni proporsional miqdorlimasalalar echish metodikasi bilan tanishtirish;</p> <p>b) Proporsional miqdorli masalalar echish jarayonida o'quvchilarda hozirjavoblik, zukkolik, topqirlik fazilatlarini tarbiyalash;</p> <p>v) Hayotiy masalalar echish orqali o'quvchilarni faolligini oshirish;</p> <p>O'qituvchining vazifasi: Proporsional miqdorli masalalar haqida tushuncha berish. Harakatga doir masalalarni turlarini ajratish va ularni ularni echish usulini ongli ravishda o'zlashtirishlarini ta'minlash. O'quvchilarda yo'l harakati qoidalarini o'zlashtirishga erishish.</p> <p style="text-align: center;">Identiv o'quv maqsadlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Proporsional miqdorli masalalarning turlari bilan tanishadilar; • Proporsional miqdorli masalalarni echish uslubini o'rganadilar; • Proporsional miqdorli masala turlarini taqqoslaydilar; • Mavzusini mustahkamlashga doir o'yinda qatnashadilar. <p style="text-align: center;">Mavzuga oidmuammolar:</p> <p>Turli xil proporsional miqdorli masalalarni echish uslubi bir xilmi?</p> <p>Bu usullarni o'xshashlik, umumiylik va farqli tomonlari nimada?</p>	O'qituvchi
		O'qituvchi
		O'qituvchi

II bosqich	<p>Asosiy tushunchalar: masala, matn, son, ma'lumot, noma'lum, echim.</p> <p>Dars shakli: aralash</p> <p>Darsning jihozlari: a) darslik, daftar: b) jadval, sxema, grafik; v) didaktik materiallar; g) geometrik figuralar.</p> <p>Metod va usullar: darslik bilan ishlash, daftar bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	O'qituvchi
III bosqich	<p style="text-align: center;">Guruhda ishlash</p> <ul style="list-style-type: none"> • Proporsional miqdorli masalalar turlari: bir tomonlama, qarama-qarshi va uchrashma harakatlarni bir-biridan farqlash jonli misollar yordasida o'rgatiladi; • Proporsional miqdorli masalalarni har bir turga doir masalalar echiladi; • Proporsional miqdorli masalalar javobini tekshirish usuli aniqlanadi; • Proporsional miqdorli masalalar turlarini echishning bir-biridan farqli, o'xshashlik va umumiylik tomonlari taqqoslanadi; • Hayotdan olingan proporsional miqdorli masalalar orqali o'quvchilarning bilimlari shakllantiriladi; • O'quvchilarga yo'l qoidalari haqida ko'rsatma beriladi. 	O'qituvchi
IV bosqich	<p style="text-align: center;">Mustahkamlash va baholash usullari</p> <ul style="list-style-type: none"> • Proporsional miqdor deganda nimani tushunasiz? • Proporsional miqdorlarda qatnashuvchi miqdorlarni ayting. • Proporsional miqdorli masalalar necha turga bo'linadi? • Proporsional miqdorli masalalar javobini tekshirish qanday usulda olib boriladi? • Berilgan masalaga nechta teskari masala tuzish mumkinligini qanday bilish mumkin? • "Kim chaqqon" o'yini nima maqsadda o'tkaziladi? • "Estafeta" o'yinidan maqsad nima? 	O'qituvchi
V bosqich	<p style="text-align: center;">Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish</p> <p>Maqsad va vazifalarning bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi, takliflar aytiladi va mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</p>	O'qituvchi

Proporsional bo'lishga doir masalalar. O'quvchilarning proporsional bo'lishga doir masalalarning yechilish usullari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida bundan keyin ikki xil masalaning yechilishini taqqoslash kerak. Shu maqsadda mustaqil yechish uchun qo'yidagi masalalarni berish mumkin:

1) Ikki maktabga bir xil bahoda yozuvchilar portretlari olindi. Bir maktabga 6 ta portret, ikkinchi maktabga 8 ta portret olindi. Hamma portret uchun 70 so'm to'landi. Har qaysi maktab qancha pul to'lashi kerak?

2) Ikki maktabga bir xil bahoda 14 ta yozuvchilar portreti olindi: Bir maktab 30 so‘m, ikkinchi maktab 40 so‘m to‘ladi. Har qaysi maktabga nechta portret olingan?

z) Ikki ayirmaga ko‘ra noma‘lumni topishga doir masalalar. Bu masalalarni muvaffaqiyatli yechish ko‘p jihatdan o‘quvchilarning masaladagi mavjud muhim xususiyatlarni chuqur tushunishlariga bog‘liq. Bu xususiyatlar shundan iboratki, masalada ma‘lum bo‘lgan bir miqdorning qiymatlari ayirmasi ikkinchi miqdorning qiymatlari ayirmasiga to‘g‘ri kelishi kerak, keyingi ayirma masalada oshkor holda berilmaydi, bu ayirmani topish bundan keyingi yechimni izlashni ancha yengillashtiradi.

Noma‘lum ikki ayirma bo‘yicha topishga doir masalalarni yechishga kirishishdan oldin tayyorlash mashqlarini, masalan, bunday masalalarni berish mumkin: bir to‘pdagi gazmol ikkinchi to‘pdagidan 4 m ortiq bo‘lib, undan 24 so‘m ortiq turadi. 1 metr gazmol qancha turadi?

Bunday savol qo‘yiladi: nega birinchi to‘p gazmol ikkinchi to‘p gazmoldan qimmat? Jami pulidagi 24 so‘m farq uzunliklardagi 4 m farqqa to‘g‘ri keladi, demak, 4 m gazmol 24 so‘m turadi, deb xulosa qilinadi. Bundan masalaning yechilishi ham kelib chiqadi: $24:4=6$ (so‘m).

Javob: 1 m gazmol 6 so‘m turadi

IV bosqich	Mustahkamlash va baholash usullari	
	<ul style="list-style-type: none"> • Harakat deganda nimani tushunasiz? • Harakatda qatnashuvchi miqdorlarni ayting. • Harakatga doir masalalar necha turga bo'linadi? • Bir tomonlama harakat deganda nimani tushunasiz? • Qarma-qarshi tomonlama harakat deganda nimani tushunasiz? • Uchrashma harakat deganda nimani tushunasiz? • Harakatlarga doir masalalar javobini tekshirish qanday usulda olib boriladi? • Berilgan masalaga nechta teskari masala tuzish mumkinligini qanday bilish mumkin? • "Kim chaqqon" o'yini nima maqsadda o'tkaziladi? • "Estafeta" o'yinidan maqsad nima? 	O'qituvchi
V bosqich	Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish	
	Maqsad va vazifalarning bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi, takliflar aytiladi va mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika kursida tenglamalar yordamida masalalar yechishga o'rgatish muammosi hozirgi zamon metodika fanining eng muhim muammolaridan biri sanaladi. Bu muammoni hal qilish uchun juda ko'p tadqiqotchilar va ular jamoasi shug'ullanib kelganlar (V.V. Davidov, N.A. Menchinskaya, M.I. Moro, K.I. Neshkov, N.A. Bikboyeva, E. Yangaboyeva, Z. Tojiyeva, M. Jumayev va boshqalar) va bu ishni davom ettirib kelmoqlar.

Bu muammoni ikki qismga ajratish mumkin:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini masala shartlari bo'yicha tenglama tuzishga tayyorlash;
2. Ularni berilgan tenglamani yechishga tayyorlash.

Biz quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarini masala shartlari bo'yicha olib borilishi lozim bo'lgan tayyorgarlik ishlari ustida to'xtalishni lozim topdik.

1. Boshlang'ich sinf matematika kursigaharflarni kiritish

Masalani algebraik usul bilan yechish o'quvchilarni ma'lum darajada yaqqollikdan, masalaning sujetidan uzoqlashishni. Shu munosabat bilan harfiy simvolikani o'zlashtirish bu masala shartini berilgan kattalikning miqdoriy xarakteristikasidan uzoqlashish va masaladagi kattaliklar orasidagi bog'lanishlarni uning tarkibini anglashda muhim qadam hisoblanadi. Shunday qilib, harfiy simvolikani o'rganish o'quvchilarning mavhum (abstrakt) tafakkurini yangi bosqichga ko'taradi.

Matematik ta'lim metodikasida matematika kursiga harflarni kiritishning bir nechta usullari mavjud, masalan:

- arifmetik masalani yechish uchun umumiy formula tuzishga asoslangan usul;
- fizikada, geometriyada va hokazolarda kattaliklar orasidagi funktsional bog'lanishlarni analitik ifoda asoslashga asoslangan usul;
- arifmetik amallar qonuniyatlarini yozishga asoslangan usul.

Harflar bilan berilgan masalani yechish jarayonida o'quvchilar har bir yaqqol holatda masalada berilgan harflar qanday qiymatlarni qabul qilishi haqida mulohaza yuritadilar, ya'ni noma'lum kattaliklar parametrlarning imkoniyatlari sohasini aniqlaydilar.

2. Har bir arifmetik amal bilan yechiladigan soddamasalalarni o'rganish.

O'quvchilarning sodda matematik masalalarning turlarini bilishlarimasala sharti bo'yicha algebraik ifodalarni to'g'ri va tezda tuzishlari va ularning amallar yanada aniqroq tanlashlari uchun muhim shart bo'lib hisoblanadi. Bu hol esa keyinchalik o'quvchilar tomonidan masalalar yechishlarini, yanada murakkab masalalar tuzish malakalarini shakllantirishga ko'maklashadi. Ishning ikkinchi bosqichida murakkab masalalar tuzish ustida ish olib boriladi. Bu yerda ham o'quvchilarda yuqoridagiga o'xshash malakalar shakllantiriladi:

- murakkab masalaning tarkibiga kiruvchi sodda masalalarning turlarini aniqlashmalakasi;
- ko'rsatilgan sodda masalalardan murakkab masalalar tuzish malakasi.

Sodda malalalarning turlarini qanday o'rganish lozimligini qo'shishamali misolida ko'raylik. O'quvchilarga $40 + 20 = 60$ ko'rinishida yechilishi lozim bo'lgan masala tuzish topshirig'i taklif qilinadi. O'quvchilar javoblari bunday bo'lishi mumkin:

1-o'quvchi: Bir bolaning albomida 40 ta, ikkinchisida esa 20 ta marka bor. Hammasi bo'lib ikkala bolada nechta marka bor?

2-o'quvchi: Bir bo'lakda 40 m, ikkinchisida esa 20 m gazlama bor. Ikkalasida hammasi bo'lib necha metr gazlama bor?

3-o'quvchi; O'quvchilar birinchi kuni 40 tup, ikkinchi kuni esa 20 tup daraxt ko'chati o'tqazdilar. O'quvchilar hammasi bo'lib necha tup daraxt ko'chati o'tqazganlar?

Ko'rinib turibdiki, javob bergan o'quvchilar ikkita qo'shiluvchining yig'indisini topishga doir masalalar tuzganlar. Bu masalalarning barchasida faqat qandaydir narsalarning mazmuni umumiy, ularning matematik mazmuni esa bir xil.

Bunday holda o'quvchilar oldiga shunday savol tashlanadi: "Xuddi $40 + 20 = 60$ kabi yechiladigan, mazmuni esa o'zgaray qoladigan masala tuzish mumkin emasmi?" O'quvchilar osongina bunday masala tuzadilar: "Bir maktab ko'rgazmaga 40 ta, ikkinchi maktab esa undan 20 ta ko'p ish qo'ydi. Ikkinchi maktab ko'rgazmaga nechta ish qo'ygan?"

Shunday qilib, o'quvchilar o'zlari tuzgan masalalar misolida ular tuzgan masalalarning hammasi bir xil amal – qo'shish bilan yechilishini, ammo ularning matematik mazmuni bir xil ekanligiga ishonch hg'osil qildilar: bir holatda masalada qandaydir kattalikning ikkita qiymati berilgan bo'lib, ularning yig'indisini topish talab qilingan, boshqa holatda esa berilgan kattalikni qanchagadir orttirish talab qilingan. Shundan so'ng o'quvchilarga "qo'shishga doir masala uning matematik mazmuniga mos ravishda yig'indini topishga doir masala va sonni bir necha birlikka orttirishga doir masala deb ataladi" degan ma'lumot beriladi.

Qo'shishga doir sodda masalalarning turlari haqida ma'lumot berilgandan keyin berilgan masalalarning turlarini shakllantirishga va o'qituvchi ko'rsatgan turdagi masalalar tuzish malakasini shakllantirishga o'tish mumkin. Shu maqsadda avval son ma'lumotli masalalar olinadi. Masalan, biz tajriba-sinov ishlarini olib borishda o'quvchilarga bunday mashqlarni tavsiya qildik.

1. Masalaning turini aniqlang: "Uydan maktabgacha ekinzor yonidan 1 km, so'ngra esa kanal yoqalab 2 km yurish kerak. Uydan maktabgacha bo'lgan masofani toping".

2. Masalaning turini aniqlang: "Bir o'quvchida 30 ta, ikkinchi o'quvchida esa undan 20 ta ortiq kitob bor. Ikkinchi o'quvchida hammasi bo'lib nechta kitob bor?"

3. $a + c$ misoliga qarab ikki qo'shiluvchining yig'indisini topishga doir masala tuzing.

Ishning ikkinchi bosqichida o'quvchilar sonlar, shuningdek harflar bilan berilgan murakkab masalalarni tahlil qilganda sodda masalalar haqida olgan bilimlarini qo'llashga o'rganishlari kerak. Buning uchun ularga bunday mashqlar tavsiya qilinadi:

Masalani yeching va bu berilgan masalaga kiruvchi sodda masalalarning turlarini aniqlang: "Bir polizdan 100 t, ikkinchi polizdan esa birinchiga qaraganda 70 t ko'p kartoshka yig'ib olindi. Ikkala polizdan birgalikda necha tonna kartoshka yig'ib olingan"

Yechilishi: 1) $100 + 70 = 170$ (t) – sonni bir necha birlikka orttirish;

2) $100 + 170$ (1) = 270 – ikki qo'shiluvchining yig'indisini topish.

2. Masalani yeching va bu berilgan masalaga kiruvchi sodda masalalarning turlarini aniqlang: «Sayyoh 70 km piyoda, mashinada undan 20 km ortiq, piyoda esa mashinadagiga qaraganda 50 km ortiq yo'l uyrdi. Barcha yo'lning uzunligi qancha?"

Yechilishi: 1) $70 + 20 = 90$ (km) – sonni bir necha birlikka orttirish;

2) $90 + 50 = 140$ (km) - sonni bir necha birlikka orttirish;

3) $70 + 90 + 140 = 300$ (km) – uchta qo'shiluvchining yig'indisini topish.

Shunga o'xshash mashqlarni qolgan arifmetik amallar bilan yechiladigan boshqa sodda masalalarni o'rganishda ham qo'llaniladi. Bunda har bir amalni o'rganishda mashqlar har turli holatlarni aks ettirishiga va masalalarni ko'proq o'quvchilar tomonidan mustaqil tuzilishiga alohida e'tibor berish kerak.

3. Masalaning shartlari bo'yicha algebraik ifodalar tuzish

O'quvchilarning algebraik ifodalar tuzish malakalari ular tomonidan masalani ongli ravishda idrok qilganliklarining, ma'lum darajadagi ko'rsatkichi ular arifmetik amallarni yanada chuqurroq tushunib yetganliklarini ma'lum darajadagi ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. O'quvchilar algebraik ifodalar tuzishlari jarayonida matematik simvolika yordamida masalada berilgan kattaliklar orasidagi va masala shartida so'zlar orqali yashirinib yotgan mantiqiy bog'lanishlarni algebraik ifoda shaklida ro'yobga chiqaradilar.

Masalaning shartlari bo'yicha algebraik ifodalar tuzishni egallash malakasi masalani algebraik usul bilan yechishning muhim sharti hisoblanadi, chunki tenglamalarni matematik simvolika yordamida masaladagi kattaliklar orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni ikki algebraik ifodani tenglashtirish jarayonidir. Shu

munosabat bilan o'quvchilarning tenglamalar yordamida masalalar yechish samarasi ular qanchalik masalaning shartlari bo'yicha algebraik ifodalar tuzishni o'rganliklariga bog'liq.

Malakani egallashda asosiy mezon bo'lib u yoki bu algebraik ifoda qanday usul bilan tuzilganligidadir. Biz algebraik ifodalar tuzish bo'yicha ishni aslida natural sonlarni belgilash uchun matematika kursiga harflar kiritilgan onlardan boshladik. Keyinchalik algebraik ifodalar tuzish bo'yicha ish o'quvchilar har bir arifmetik amal yordamida yechiladigan sodda masalalarning turlarini o'rganishlari bilan yonma-yon olib borildi. Ikki yoki bir necha sonlarning yig'indisini topish eng oson ekanligini tajriba tasdiqladi. Shuning uchun algebraik ifodalar tuzish bo'yicha ishlarni aynan shundan boshladik. O'quvchilarga topshiriqlar bunday ketma-ketlikda tavsiya qilindi. Avval son ma'lumotli misollar berildi:

- 17 va 24 sonlarining yig'indisini yozing;
- 42 va 15 sonlarining yig'indisini yozing va hokazo.

So'ngra sonlar o'rnida harflar ishlatilgan yuqoridagiga o'xshash misollarga o'tildi:

- a va b sonlarining yig'indisini yozing;
- 4 va s sonlarining yig'indisini yozing va hokazo.

Bulardan keyin ikki yoki bir necha sonlarning yig'indisini topishga doir matnli masalalarga o'tdik, yana ishni son ma'lumotli masalalardan boshlab, so'ngra harflar orqali berilgan masalalarga o'tdik, masalan:

- Paroxod birinchi kuni 42 km, ikkinchi kuni esa 53 km yo'l bosdi. U 2 kunda qandaymasofani bosib o'tgan?

- 3-sinf o'quvchilari 50 kg, 4-sinf o'quvchilari esa 49 kg temir-tersak yig'ishdi. Ikkala sinf o'quvchilari hammasi bo'lib necha kilogramm temir-tersak yig'ishgan?

- 3-sinf ko'rgazmaga matematika bo'yicha a ta, mehnat ta'limi bo'yicha esa c ta ish qo'yishdi. Shu sinf ko'rgazmaga hammasi bo'lib nechta ish qo'ygan?


Shunga o'xshash masalalar tizimi masalalarning qolgan barcha turlari ustida ishlashda ham tavsiya qilindi. Masalaning keyingi har bir turini o'rganish shundan boshlandi.

Biz ishni son ma'lumotli masalalardan boshlashni lozim topishimizning sababi shundaki, o'quvchilar avvalgi sinflarda yaqqol sonlar va yaqqol amallar bajarish bilan ish ko'rganlar. Shuning uchun ularga tanish bo'lgan amallarni harflar

Mavzu № 25: Harakatga doir masalalar ustida ishlash
Texnologik xarita

I bosqich	<p>Darsning maqsadi: a) Talabalarni harakatga doir masalalar echish metodikasi bilan tanishtirish; b) Harakatga doir masalalar echish jarayonida o'quvchilarda hozirjavoblik, zukkolik, topqirlik fazilatlarini tarbiyalash; v) Hayotiy masalalar echish orqali o'quvchilarni faolligini oshirish;</p> <p>O'qituvchining vazifasi: Harakatga doir masalalar haqida tushuncha berish. Harakatga doir masalalarni turlarini ajratish va ularni ularni echish usulini ongli ravishda o'zlashtirishlarini ta'minlash. O'quvchilarda yo'l harakati qoidalarini o'zlashtirishga erishish.</p> <p style="text-align: center;">Identiv o'quv maqsadlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Harakatga doir masalalarning turlari bilan tanishadilar; • Harakatga doir masalalarni echish uslubini o'rganadilar; • Harakatga doir masala turlarini taqqoslaydilar; • Mavzusini mustahkamlashga doir o'yinda qatnashadilar. <p style="text-align: center;">Mavzuga oidmuammolar:</p> <p>Turli xil harakat yo'nalishidagi masalalarni echish uslubi bir xilmi? Bu usullarni o'xshashlik, umumiylik va farqli tomonlari nimada?</p>	<p>O'qituvchi</p> <p>O'qituvchi</p> <p>O'qituvchi</p>
II bosqich	<p>Asosiy tushunchalar: masala, matn, son, ma'lumot, noma'lum, echim.</p> <p>Dars shakli: aralash</p> <p>Darsning jihozlari: a) darslik, daftar: b) jadval, sxema, grafik; v) didaktik materiallar; g) geometrik figuralar.</p> <p>Metod va usullar: darslik bilan ishlash, daftar bilan ishlash, amaliy mashq, o'yin.</p>	<p>O'qituvchi</p>

III bosqich	<p style="text-align: center;">Guruhda ishlash</p> <ul style="list-style-type: none"> • Harakatga doir masalalar turlari: bir tomonlama, qarama-qarshi va uchrashma harakatlarni bir-biridan farqlash jonli misollar yordasida o'rgatiladi; • Harakatga doir masalalarni har bir turga doir masalalar echiladi; • Harakatga doir masalalar javobini tekshirish usuli aniqlanadi; • Harakatga doir masalalar turlarini echishning bir-biridan farqli, o'xshashlik va umumiylik tomonlari taqqoslanadi; • Hayotdan olingan harakatga doir masalalar orqali o'quvchilarning bilimlari shakllantiriladi; • O'quvchilarga yo'l qoidalari haqida ko'rsatma beriladi. 	O'qituvchi
IV bosqich	<p style="text-align: center;">Mustahkamlash va baholash usullari</p> <ul style="list-style-type: none"> • Harakat deganda nimani tushunasiz? • Harakatda qatnashuvchi miqdorlarni ayting. • Harakatga doir masalalar necha turga bo'linadi? • Bir tomonlama harakat deganda nimani tushunasiz? • Qarma-qarshi tomonlama harakat deganda nimani tushunasiz? • Uchrashma harakat deganda nimani tushunasiz? • Harakatlarga doir masalalar javobini tekshirish qanday usulda olib boriladi? • Berilgan masalaga nechta teskari masala tuzish mumkinligini qanday bilish mumkin? • "Kim chaqqon" o'yini nima maqsadda o'tkaziladi? • "Estafeta" o'yinidan maqsad nima? 	O'qituvchi
V bosqich	<p style="text-align: center;">Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish</p> <p>Maqsad va vazifalarning bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi, takliflar aytiladi va mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</p>	O'qituvchi



“Harakat”ga doir masala deb, tarkibiga harakatni xarakterlovchi miqdorlar, ya’ni tezlik, vaqt va masofa kirgan masalalarni atash mumkin.

“Harakat” so‘zi har xil tipdagi masalarda: oddiy uchlik qoidaga doir masalalarda, ikki ayirma bo‘yicha noma’lumni topishga doir masalalarda va boshqaxil masalalarda uchraydi. Ammo bu masalalar harakatga doir masalalar turiga kirmaydi.

Matematika o‘qitish metodikasida harakatga doir masalalar jumlasiga harakatni xarakterlovchi uchta miqdor-tezlik, vaqt va masofaorasidagi bog‘lanishlarni topishga doir masalalar kiritiladi, bu masalalarda aytilgan miqdorlar yo‘naltirilgan miqdorlar sifatida qatnashadi. Xususan, quyidagi masalalar harakatga doir masalalar jumlasiga kiradi:

a) bir jism harakatiga doir hamma sodda va murakkab masalalar (bu masalalarda miqdorlardan biri - tezlik, vaqt yoki masofa-qolgan ikkitasiga bog'liq holda qatnashadi);

b) uchrashma harakatga doir masalalar;

v) ikki jismning qarama-qarshi yo'nalishdagi harakatlariga doir masalalar;

g) ikki jismning bir yo'nalishdagi harakatiga doir masalalar (masalalarning bu turi boshlang'ich maktabda qaralmaydi).

l) Ma'lum masofa va harakat vaqti bo'yicha tezlikni topishga doir masalalar.

Bu xildagi masalalar ustida ishlashning mohiyatini ushbu masalani yechish misolida o'chib beramiz:

“Piyoda kishi har soatda baravardan yo'l bosib, 3 soatda 12 km yurgani ma'lum bo'lsa, u qanday tezlik bilan yurgan?”

O'quvchilar o'qituvchi yordamida masala shartini tahlil qilish bilan bir vaqtda masalani jadvalga yozishni o'rganadilar.

– Masalada nima ma'lum? (Piyoda kishi yo'lda 3 soat bo'lgani.)

– 3 soat - tushuntiradi o'qituvchi - bu piyoda kishining yurgan vaqti.

– Masalada yana nima ma'lum? (Piyoda kishi 3 soatda 12 km o'tgani.)

– 12 km – piyoda o'tgan yo'l yoki masofa.

– Masalada nimani bilish talab qilinadi? (Piyoda bir soatda qancha yo'l o'tgani.)

Masalani analiz qilish jarayonida o'qituvchi masalaning sharti jadvalga qanday yozilishini ko'rsatadi:

Tezlik	Baqt	Masofa
?	3 soat	12 km

Bunday xulosa chiqariladi: agar masofa va harakat vaqti ma'lum bo'lsa, tezlikni topish mumkin. *Tezlik masofaning vaqtga bo'linganiga teng.*

m) Tezlik va harakat vaqtiga ko'ra masofani topishga doir masalalar.

Misol uchun bunday masalaning yechilishini qaraymiz: “Piyoda kishi soatiga 6 km tezlik bilan 3 soat yo'lda bo'ldi. Piyoda kishi qancha masofa o'tgan?”

Masala shartini chizma yordamida ham hal qilish mumkin.

Shunga o'xshash bir qator masalalarni yechish natijasida o'quvchilar bunday xulosaga kelishadi: agar tezlik va harakat vaqti ma'lum bo'lsa, u holda masofani topish mumkin. Masofa tezlik bilan vaqtning ko'paytmasiga teng.

Ma'lum tezlik va masofaga ko'ra harakat vaqtini topishga doir bir qator masalalarni yuqoridagidek qarab bunday xulosaga keladilar: agar tezlik va masofa ma'lum bo'lsa, u holda harakat vaqtini topish mumkin. Vaqt masofaning tezlikka bo'linganiga teng.

n) Uchrashma harakatga doir masalalar. Uchrashma harakatga doir masalalar yechish uchun avval og'zaki yechiladigan quyidagi tayyorlash masalalari qarab chiqiladi, bunda ko'rsatmalilikdan foydalaniladi.

Boshlang'ich sinflarda asosan uchrashma harakatga doir shunday masalalar beriladiki, ularda jismlar bir vaqtda harakatlanadi va bir vaqtda to'xtadi. Bu masalalarda to'rtta o'zaro bog'liq miqdorlar ustida so'z boradi: bunda; s – harakat qilayotgan jismlarning tezliklari – harakat vaqti. Bundan ushbu guruhga to'rt xil masala kiradi, degan xulosa chiqadi. Ammo birinchi va ikkinchi jismlarning tezliklarini topish bir xilda hal qilishni talab qiladi, shu sababli masalalarning bu guruhga uch xil masalani kiritish qabul qilingan,

1. Berilgan jismlarning tezliklari va harakat vaqtiga ko'ra masofani topishga doir masalalar.

2. Har qaysi jismning ma'lum tezligi va masofaga ko'ra vaqtni topishga doir masalalar.

3. Harakat qilayotgan jismlardan birining tezligi, berilgan masofa, harakat vaqti va jismlardan ikkinchisining tezligi, masofa, harakat vaqti va jismlardan ikkinchisining tezligini topishga doir masalalar.

Berilgan masalaga teskarimasala tuzib yechish

Har bir masala 2 qismdan iborat bo'ladi: 1) shart. 2) savol

Ma'lum bo'lgan narsalar «shart» deyiladi. Hisoblab topiladigan qismi «savol» deyiladi. Yana «yechim» va «javob» degan qismlar ham bor, uni quyidagi masalani yechish orqali o'rganamiz.

Masalani turli usullarda yechish

Berilgan masalaning to'g'ri echilganligini bilish uchun unga teskarimasala tuzib yechish uchun, yokimasalanimurakkablashtirish yokiboshqacha yechish usullarini qo'llash uchun masala mazmunida turli o'zgarishlar qilish ham mumkin?

Nazorat uchun savollar

1. "Yuzlik", "Ko'p xonali sonlar" mavzusidagi murakkab masalalar turlarini ayting.
2. "Noma'lumni ikki ayirmaga ko'ra topishga doir masalalar yechishga o'rgatish" ga doir darsni ishlab chiqing.
3. Masalalar yechishda yo'l qo'yiladigan xatoliklar oldini olishga doir tayyorgarlik ishlari qismini bajaring.

**Mavzu № 26: Algebra elementlarini o`rganish metodikasi
Son va ifoda tushunchasi.**

Ma`ruza mashg`ulotini ta`lim texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni 83 nafar
O`quv mashg`ulotining shakli	Kirish, vizual ma`ruza, fikrlar xujmi
O`quv mashg`ulotining rejasi	1. Mavzu mazmuniga kirish; 2. Algebra elementlarini o`rganish metodikasi bilan tanishtirish; 3. Konsentrlar bo`yicha qo`shiluvchilarning o`rinlarini almashtirib, qo`shish usullaridan foydalanishga o`rgantish ko`nikmasini hosil qilish; 4. Konsentrlar bo`yicha ko`paytirish va bo`lish amallarini o`rgantish ko`nikmasini hosil qilish; 5. Son va ifoda tushunchalarini shakllantirish
O`quv mashg`ulotining maqsadi: Algebra elementlarini o`rganishda lozim bo`lgan asosiy hisoblash usullarini aniqlash. Mavzuni mantiqiy didaktik tahlil etish. ma`lumot berish	
Pedagogik vazifalar: Algebra elementlarini o`rganish metodikasi bilan tanishtirish; • Konsentrlar bo`yicha qo`shiluvchilarning o`rinlarini almashtirib, qo`shish usullaridan foydalanishga o`rgantish ko`nikmasini hosil qilish; Konsentrlar bo`yicha ko`paytirish va bo`lish amallarini o`rgantish ko`nikmasini hosil qilish; Son va ifoda tushunchalarini shakllantirish	O`quv faoliyat natijalari: Algebra elementlarini o`rganish metodikasi bilan tanishadilar; • “Konsentrlar bo`yicha qo`shiluvchilarning o`rinlarini almashtirib, qo`shish usullaridan foydalanishga o`rgantish ko`nikmasi hosil bo`ladi; • Konsentrlar bo`yicha ko`paytirish va bo`lish amallarini o`rgantish ko`nikmasini malakasi shakllanadi ; Son va ifoda tushunchalarini shakllantirishni o`rganadilar;
Ta`lim usullari	Kirish, vizual ma`ruza, fikrlar xujmi
Ta`limni shakllantirish shakli	Ommaviy va ghuruh bilan ishlash
Ta`lim vositalari	Ma`ruza matni, proektor, qog`oz, marker, doska, bor
